


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDISINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

B. M. Eshburiyev

HAYVONLARNING ENDEMIK MIKROELEMENTOZLARI

monografiya



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDISINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

ESHBURIYEV BAXTIYAR MAMATQULOVICH

**HAYVONLARNING ENDEMIK
MIKROELEMENTOZLARI**

Monografiya

Toshkent - 2024

“Fan ziyosi” nashriyoti

UO'K: 612.369.548.21

KBK: 28.074(O'zb)5

E-16

HAYVONLARNING ENDEMIK MIKROELEMENTOZLARI:
Monografiya / ESHBURIYEV B.M. – Toshkent, “Fan ziyosi”
nashriyoti, 2024, 148 bet.

Monografiyada chet ellar va vatanimiz olimlarining biogeokimyoiy provinsiyalar, mikroelementlarning organizmdagi ahamiyati, Respublikamiz hududida hayvonlarda uchraydigan mikroelementozlarning etiologiyasi va diagnostikasi, kechish xususiyatlari, davolash hamda oldini olish usullariga oid ilmiy mulohazalari, shuningdek, muallifning shu soha bo'yicha ilmiy izlanishlarining natijalari bayon qilingan.

Oliy o'quv yurtlarining «Veterinariya» yunalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalari, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar va veterinariya mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Muallif: vet. fan. doktori, professor B.M.Eshburiyev.

Taqrizchilar:

Q.N.Norboev

SamDVMCHBU «Ichki yuqumsiz kasalliklar» kafedrasi professori, vet. fan. doktori.

B.A.Elmurodov

Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti direktori, vet. fan. doktori, professor

Monografiya SamVMCHBU Ilmiy kengashining 29- noyabr 2023 yildagi (4-bayonnomma) yig'ilishida muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN - 978-9910-745-2-1-8

KIRISH

Istiqlol yillarida Mamlakatda chorvachilikka oid bo‘lgan ko‘plab davlat qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Davlat dasturlari qabul qilingan. Shu davr mobaynida chorvachilikning barcha tarmog‘i barqaror rivojlanib, bu jarayon ayniqsa, keyingi yillarda yanada jadallahshgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlangandek:

qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash eng muhim vazifamizdir. Qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorvachilik bo‘yicha yangi tarmoqlarni rivojlantirishimiz zarur¹.

Respublika Prezidentining 2019 yil 18- martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243- sonli qarori chorvachilikni, jumladan uning bosh tarmog‘i bo‘lgan qoramolchilikni yanada barqaror rivojlantirishda asosiy me’zon bo‘lib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligida islohotlar o‘tkazishdan maqsad - iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir.

Qoramolchilik sohasiga berilgan qator imtiyozlar evaziga, tejalgan mablag‘lar naslchilik ishlarini takomillashtirish va sohaga yangi texnologiyalarni olib kirishga zamin yaratib, qoramollarni umumiyl bosh sonini hamda mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘payishiga erishilmoqda.

Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2021 yilning avgust oyiga qadar 278 ta chorvachilik subyektiga 34 mlrd 143 mln so‘m subsidiya ajratildi. Shundan import qilingan qoramollar uchun 2098 ta chorvachilik subyektiga 9956 bosh qoramol uchun 19 mlrd. 912 mln. so‘m, import qilingan qo‘y-echkilar uchun 21 ta fermer xo‘jaligiga 8191 mayda mol uchun 3 mlrd 291 mln so‘m subsidiya berildi².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 28.12.2018.

² Norqobilov B.T. Chinakam islohatlar yurt farovonligi demakdir. Veterinariya meditsinasi jurnali, 2021 yil 08 (165) soni, 3 sahifasi.

Oxirgi yillarda chorvachilikni fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalar asosida rivojlantirish maqsadida naslchilik ishlari, oziqa bazasini mustahkamlash va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishslash texnologiyalarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilib, dunyo genofondiga xos xo‘jalik foydali belgilari bilan boshqa zotlardan keskin farq qiladigan golshtin, simmental, shvits, qizil cho‘l kabi zotlarga mansub qoramollar, yuqori mahsuldor qo‘y-echki va boshqa hayvonlar mamlakatimizning turli xududlariga xorijdan keltirilmoqda. O‘z navbatida ushbu hayvonlarni respublikamizning o‘ziga xos biogeokimyoviy sharoitlariga moslashishini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Sigirlarning mikroelementozlar bilan kasallanishida va bepushtligi ratsionlarning takomillashmaganligi, tarkibi va to‘yimliligi bo‘yicha sigirlar organizmining to‘yimli moddalar, biologik faol moddalar, makro- va mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to‘liq qondirmasligi, ratsionlarning oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibligi, qand-oqsil va fosfor-kalsiy nisbatlarining pastligi asosiy etiologik omillar hisoblanadi. Sigirlarda bir vaqtning o‘zida bir necha mikroelementlarning yetishmovchiligi qayd etilib, hayvonlarni bir joyda saqlash va silos-senaj-shrot tipida oziqlantirishda asosan alimentar-endemik patologiyalar tarzida kechadi.

Jahon mamlakatlarida yuqori mahsuldor sigirlarda mikroelementozlar, shuningdek, yod va rux mikroelementlarining yetishmovchiligi bepushtliklarga sabab bo‘lib, ayrim qoramolchilik xo‘jaliklari sharoitida ushbu gipomikroelemen-tozlar sigirlar yuqumsiz kasalliklarining etiologiyasida 33,8% gachani tashkil etmoqda³.

Hayvonlar organizmi asosiy oziqaviy moddalardan (protein, uglevodlar, karotin, kalsiy, fosfor) tashqari biologik faol moddalarga ham ehtiyoj sezadi. Bular orasida mikro- va ultramikroelementlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, oziqalar tarkibida juda kam miqdorlarda uchraydi. Hozirgi kunda mikroelementlarning metallokomponentlar sifatida ko‘pchilik vitaminlar, fermentlar, gormonlar tarkibini tashkil etishi, ularning ta’sirini kuchaytirishi yoki pasaytirishi va shu orqali ularning fiziologik funksiyalarini va moddalar almashinuvi jarayonlarini ta’minlashi fanga ma’lum. Tabiatda uchraydigan 92 elementdan 81 tasi odam va hayvonlar organizmida aniqlangan. Bular orasida temir, yod, mis, rux,

³ Пестова Л.В. Микроэлементная недостаточность крупного рогатого скота в Ивановской области и меры ее профилактики. Автореф. дис. канд. вет. наук.- Иваново 2003.18. с.

kobalt, nikel, xrom, vanadiy, selen, marganes, ftor, kremniy, litiy kabilar hayotiy muhim (essensial) elementlar hisoblanadi.

Mikroelementlar organizmning hayot-faoliyati davomida siydik, tezak va sut bilan tashqi muhitga chiqarilib turiladi. Lekin ular organizmda sintezlanmaydi va boshqa to'yimli moddalar ularning o'rmini qoplay olmaydi. Mikroelementlar organizmga faqat oziqalar va suv orqali tushadi. Ishlab chiqarish sharoitlarida, ayniqsa bir tomonlama oziqlantirishda ko'pincha oziqalarda, shuningdek, hayvonlar organizmida kobalt, yod, mis, marganes, rux kabi mikroelementlarning yetishmovchiligi, ayrim hududlarda selen, molibden, ftor, nikel, stronsiy va boshqa mikroelementlarning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi kuzatiladi.

Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, insonlar orasida yod yetishmovchiligi qayd etilishi hollari yiliga 5% gacha ko'payishi aniqlangan. Tireoid patologiya rivojlanishida ekologik holatning yomonlashishi, oziqalarda yodni yetishmasligi asosiy etiologik omil hisoblanadi.

Organizmda mikroelementlarning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi moddalar almashinuvining izdan chiqishi, o'sish-rivojlanishdan qolish, oziqalar hazmlanishi va oziqalar tarkibidagi to'yimli moddalar o'zlashtirilishining yomonlashishi oqibatida mahsuldarlikning pasayishi, ko'payish funksiyalarining buzilishi oqibatida qisir qolish, pushtdarlikning kamayishi, nimjon, hayotchanligi past bola tug'ilishi hamda ularni hayotining birinchi kunlarida o'limiga sabab bo'ladi.

Mikroelementozlar - patologik jarayonlarning umumlashtirilgan nomlanishi bo'lib, mikroelementlarning yetishmovchiligi, ortiqchaligi yoki ular orasidagi nisbatlarning buzilishi bilan xarakterlanadi. Bu guruhga mansub kasalliklarning ko'pchiligi endemik kasalliklar (Morbi endemica, morbis - kasallik, endemos - mahalliy) guruhiga mansub bo'lib, ma'lum biogeokimyoviy regionlarda (provinsiyalarda) uchraydi va tuproq, suv hamda oziqalar tarkibida hayotiy muhim kimyoviy elementlarning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi bilan xarakterlanadi. Biogeokimyoviy provinsiyalar, hayvonlar organizmi kimyoviy tarkibi bilan yer sharining tarkibi orasidagi chambarchas bog'liqlik to'g'risidagi ta'limotni akademik V. I. Vernadskiy yaratgan.

Biogeokimyoviy provinsiyalar va ularning insonlar va hayvonlarda endemik kasalliklarning kelib chiqishidagi ahamiyati to'g'risidagi ta'limotning asoschisi A.P.Vinogradov hisoblanadi. Insonlar va hayvonlarda endemik kasalliklarni kelib chiqishi bilan tashqi muhitdagi kimyoviy elementlarning miqdori o'rtasidagi bog'liqliknii aniqlashga asoslangan biogeokimyoviy rayonlashtirish t'limotini V.V.Kovalskiy

yaratgan.

To‘proq-iqlim sharoitlarining yomonlashishi hayvonlar orasida endemik osteodistrofiya, gipokuproz, gipokobaltoz, alimentar anemiya, buqoq kabi endemik kasalliklarning ko‘p uchrashiga sabab bo‘lmoqda. Bu kasalliklar oqibatida oziqalar sarfining ortishi, mahsuldorlik va chorvachilik mahsulotlari oziqaviy qimmatining pasayishi, ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi, ulardan nimjon, hayotchanligi va nasliy xususiyatlari past bola tug‘ilishi hamda ularning kasallanishi va o‘limi hisobiga xo‘jaliklar katta iqtisodiy zarar ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi kengashi mehnat va sosial masalalar bo‘yicha ishchi guruhining 18 dekabr 2014 yildagi yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasining “Yod yetishmovchiligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida” gi qonuniga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish masalalari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, BJSST ma’lumotiga ko‘ra bugungi kunda dunyo aholisining uchdan bir qismi yod yetishmovchiligi bilan kasallanishi ehtimoli mavjud, 740 million kishida kasallik aniqlangan, ushbu kasallik oqibatida 50 mingga yaqin insonlar aqliy zayiflikdan aziyat chekmoqda. Respublika ilmiy-amaliy tibbiy endokrinologik markaz ma’lumotlariga ko‘ra, respublikaning 40,2% aholisi orasida yod yetishmovchiligi mavjudOrganizmada yetishmaydigan mikroelementlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularning o‘rnini to‘ldirish bilan modda almashinushi jarayonlarini ma’romlashtirish, hayvonlar mahsuldorligini oshirish, ularning turli kasalliklarga va tashqi muhitning noqulay ta’sirotlariga nisbatan chidamliliginini, ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarini oshirish, nasillik xususiyatlari va kasalliklarga nisbatan rezistentligi yuqori bo‘lgan bola olishga erishish mumkin.

Shuningdek, mikroelementozlar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish va organizmda ularning yetishmovchiligin yo‘qotish maqsadida mineral qo‘srimchalarni qo‘llash bilan chorvachilikda yuqori samaradorlikka erishish hamda sut, go‘sht, tuxum kabi yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ta’minalash mumkin. Shuning uchun hayvonlarning endemik kasalliklarini o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb va o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Hayvonlarning endemik kasalliklari - veterinariya-ekologik muammo hisoblanadi. Bu muammolarni samarali hal etish zooveterinariya mutaxasislaridan ekologik bilimlarga ega bo‘lishlikni talab etadi. Shuningdek, veterinariya bilim dargohlarida o‘quv jarayonlarini tashkil etishda talabalarning ekologik bilim olishlariga alohida e’tibor berilishi, ularning ekologiya, biogeosenologiya, biogeokimyo va hayvonlarning

geosenotik patologiyalari, ushbu kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish orqali hayvonlar mahsuldorligini oshirish, chorvachilik mahsulotlari sifatini yaxshilash to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishlari e’tiborga olinishi kerak.

BIOGEOKIMYOVİY PROVINSİYALAR TO‘G‘RİSIDA TUSHUNCHA

Biogeokimyoviy provinsiyalar, hayvonlar organizmi kimyoviy tarkibi bilan yer sharning tarkibi orasidagi chambarchas bog‘liqlik to‘g‘risidagi ta’limotni akademik V. I. Vernadskiy yaratgan. Bu ta’limot tibbiyot va veterinariya amaliyotida o‘lka patologiyalarini o‘rganish, mikroo‘g‘itlardan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirish me’yorlarini belgilashning yangi istiqbollarini belgilab berdi.

Biogeokimyoviy provinsiyalar va biogeokimyoviy endemiyalar to‘g‘risidagi ta’limotlarni tabiiy-ilmiy fanlarning alohida tarmog‘i sifatida ilmiy jihatdan asoslangan holda shakllanishida A. P. Vinogradovning qo‘sghan hissasi katta bo‘lgan.

V. V. Kovalskiy insonlar va hayvonlarda endemik kasalliklarni kelib chiqishi bilan tashqi muhitdagi kimyoviy elementlarning miqdori o‘rtasidagi bog‘liqliknin aniqlashga asoslangan biogeokimyoviy rayonlashtirish va geokimyoviy ekologiya ta’limotlarini yaratgan. Shuningdek, V. I. Vernadskiyning «triada» to‘g‘risidagi ta’limotini rivojlanirib, «oziqaviy biogeokimyoviy zanjir» sxemasi, organizm gomeostatik imkoniyatlarida kimyoviy elementlar yuqori konsentrasiyalarining chegara ekanligi to‘g‘risidagi tushuncha, ekstremal geokimyoviy sharoitlarda organizmda kechadigan biologik reaksiyalar, patologik jarayonlar va ularning rivojlanish mexanizmlari, shuningdek, organizmnning tashqi muhit geokimyoviy sharoitlariga fiziologik va genetik adaptasiyasini o‘rgangan.

Biogeokimyoviy rayonlashtirish qonuniyatlarining o‘rganilishi bilan birgalikda biogeokimyoviy zonalar (V. V. Kovalskiy, 1957), zonal provinsiyalar tushunchalari (A. P. Vinogradov, 1960) paydo bo‘ldi.

A. P. Vinogradov biogeokimyoviy provinsiyaga «yonida joylashgan hududdan tarkibidagi kimyoviy elementlarning miqdori va oqibatda mahalliy fauna va floralar tomonidan turli biologik reaksiyalarning kuzatilishi bilan farq qiladigan yerning bir oblasti» - deb, ta’rif beradi.

Ekologik va biosenologik adabiyotlarda “biogeosenoz” termini bilan birgalikda «ekologik sistema», “ekosistema” terminlari ham ko‘p uchraydi. Bu terminlarni 1935 yilda Angliyalik olim A.Tensli tavsiya etgan. Biogeosenoz (BGS) va ekologik tizim tushunchalari bir-biriga yaqin

bo‘lsada bir tushuncha emas. Biogeosenoz - bu aniq yoki aniqroq chegaraga ega bo‘lgan tabiiy kompleksdir. Masalan, o‘rmon BGS, botqoq BGS, ko‘l BGS va boshqalar. Ya’ni biogeosenoz biosferaning bir xil tuproq, flora va faunaga ega bo‘lgan kichkina yacheykasidir [102].

Ekosistema - sof funksional tushuncha bo‘lib, ma’lum hajm va kattalikka ega emas. Bir tomchi suv, chirigan daraxt kundasi va biogeosenoz ham ekosistema bo‘lishi mumkin. Biogeosenozdagi har qanday o‘zgarishlar qandaydir darajada hayvonlarning sog‘ligiga ta’sir ko‘rsatadi. Biogeosenozdagi qo‘lay o‘zgarishlar hayvonlarning mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilaydi, organizm tabiiy rezistentligini oshiradi. Biogeosenozdagi o‘zgarishlar noqulay tus olganda esa organizmnning tabiiy rezistentligi pasayadi, yuqumli va yuqumsiz xarakterdagi epizootiyalar kelib chiqadi. Bu o‘zgarishlarni o‘rganadigan fanga “biogeosenotik patalogiya” - deb ataladi. Bu fan hayvonlarda ekologik holatning o‘zgarishi tufayli kelib chiqadigan kasallikkarni o‘rganadi. Bu kasalliklar orasida katta salmoqqa ega bo‘lgan endemik kasalliklar qishloq xo‘jalik ekotizimida geokimyoviy holatning noqulay o‘zgarishlari oqibati deb qaraladi.

Enzootiyalar, shu jumladan qishloq xo‘jalik hayvonlarining endemik kasalliklarini o‘rganishda ekologik - tizimli yondoshish lozim. Kasallikni biogeosenotik darajada o‘rganish bilan faqatgina uning sababini aniqlash mumkin. Tashqi muhitda mikroelementlar miqdorining juda kam yoki ortiqcha bo‘lishi endemik kasallikkarga sabab bo‘ladi. Kasalliklarning rivojlanish xususiyatlari va patogenezini faqatgina organizm, a’zo, to‘qima, hujayra va molekulyar tuzilmalar darajasida o‘rganish mumkin.

Hayvonlarning yashash sharoitlari klimatik, tuproq, gidrologik, geokimyoviy kabi turli ekologik omillar kompleksidir. Ekologik omillar qishloq xo‘jalik hayvonlari uchun yashash sharoitlarini tashkil etadi. Hayvonlarning mahsuldorligi, ko‘payish xususiyatlari va tabiiy rezistentligi atrof muhitning “sifatini” bildiradigan ko‘rsatkichlar (indikatorlar) hisoblanadi. Noqulay ekologik sharoitda hayvonlarning bu ko‘rsatkichlari ham yomonlashadi.

Hayvonlar organizmi tashqi muhitning noqulay o‘zgarishlariga o‘ziga xos reaksiya bilan javob beradi. Bu o‘zgarishlarga yuqori mahsuldor, boshqacha sharoitga ega bo‘lgan hududdan keltirilgan hayvonlar o‘ta sezgir hisoblanib, ularda mahsuldorlikni pasayishi, qisir qolish, kasallikkarga moyillikning ortishi, chiqimning ko‘payishi kuzatiladi. Ratsionning kimyoviy elementlar bo‘yicha takomillashmaganligi ushbu patologiya uchun xarakterli belgilarning paydo bo‘lishi bilan kechadi. Bunday belgilarga insonlar va hayvonlarda

buqoq paydo bo‘lishi (yod yetishmovchiligi), teri qoplamasining pigmentsizlanishi va kovshovchilarda endemik ataksiya kuzatilishi (mis yetishmovchiligi), endemik parakeratoz (rux yetishmovchiligi), odamlar bo‘yining past bo‘lishi, hayvonlarning o‘sishdan qolishi (stronsiy ortiqchaligi) kabilarni misol keltirish mumkin.

Biokimyoviy enzootiyalar paytida hayvonlar populyasiyasining strukturasi o‘zgaradi. Hayvonlar populyatsiyasi - biogeosenozning asosiy tarkibiy komponenti bo‘lib hisoblanadi. Biogeosenozni kichik hajmdagi biosfera deb qarash mumkin. Biogeosenoz ham xuddi biosferaga o‘xhash tirik va o‘lik komponentlar: materik qismlar, suv, atmosfera havosi, o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlardan iboratdir [102].

Biogeosenozlar tabiiy va antropogen turlariga bo‘linadi. Tabiiy biogeosenozlar uzoq evalyusion taraqqiyot davomida shakillanadi. Antropogen biogeosenozlar insonlar tamonidan yaratiladi yoki qayta o‘zgartiriladi. Madaniy o‘simliklar ekiladigan maydon - agrobiogeosenozlar, yaylovlar - yaylov biogeosenozlari, ferma, molxonalar va boshqa hayvonlar saqlanadigan joylar - ferma biogeosenozlari va antropogen biogeosenozlarga misol bo‘ladi.

Hayvonlar uchun ekologik jihatdan asoslangan tarzda oziqa yetishtirish, saqlash va qayta ishlash hayvonlarning kasalliklarini oldini olish, ularning mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Aksincha, insonlarning ekologik asoslanmagan holatda tabiiy oziqaviy zanjirga ta’siri hayvonlarning kasallanishi hamda makro- va mikroelementozlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Makro- va mikroelementozlar tuproq, suv va havoni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi, ratsionlarning kalsiy, fosfor, yod, kobalt, mis kabi mineral moddalar bo‘yicha takomillashmaganligi oqibatida kuzatilishi mumkin. Biogeokimyoviy trofik zanjirni har tomonlama, uning boshlanishidan oxirigacha baholash endemik kasalliklarning etiologiyasini o‘rganish va ularning oldini olish usullarini ishlab chiqishda asosiy omillar hisoblanadi.

Malliflarning ta’kidlashicha, kelib chiqishiga ko‘ra, biogeokimyoviy provinsiyalar: tabiiy, tabiiy-texnogen va texnogen turlarga ajratiladi. Texnogen biogeokimyoviy provinsiyalar yirik sanoat inshoatlari, shaharlar, aeroportlar va jadal shaklda ishlatilayotgan qishloq-xo‘jalik xududlarida kimyoviy elementlarning turg‘un ravishda assosiasiyasi oqibatida paydo bo‘lib, xududiy jihatdan regional, subregional, zonal va azonal turlari farqlanadi [102].

V. V. Kovalskiy Sobiq ittifoq territoriyasida to‘rtta biogeokimyoviy zona va undagi bir necha provinsiyalarni farqlashni tavsiya etadi:

1. Tayga-o'rmon noqoratuproqli zona - tuprog'i kislotaligining yuqoriligi, tuproq, suv va oziqalar tarkibida kalsiy, fosfor, kaliy, molibden, kobalt, mis, yod, bor va selenning yetishmovchiligi hamda stronsiyning ortiqchaligi bilan tavsiflanadi. Bu zonada hayvonlar orasida gipokobaltoz, endemik buqoq, endemik osteodistrofiya, gipokuproz, urov kasalligi, oq mushak va boshqa kasalliklar qayd etiladi;

2. O'rmon-cho'l va cho'l qoratuproqli zona - tuprog'i kuchsiz ishqoriy yoki neytral muhitga ega bo'lib, tarkibidagi elementlar miqdori va nisbatlari bo'yicha optimal ko'rsatkichlarga yaqin bo'ladi;

3. Quruq cho'l, cho'l va yarim cho'l zona - tuprog'i neytral yoki ishqoriy muhitga ega, tarkibida natriy, stonsiy, rux, sulfatlar, bor, molibden ortiqcha va yod, mis, kobalt, marganes yetishmaydi. Ayrim hollarda nitratlarningortiqchaligi kuzatiladi. Bu zonada bir-biridan farq qiladigan provinsiyalar mavjud bo'lib, mis yetishmaydigan, sulfatlar va molibden ortiqchaligi kuzatiladigan provinsiyalarda qo'zilar, ba'zan uloq va buzoqlar orasida enzootik ataksiya; bor otiqchaligi kuzatiladigan provinsiyalarda qo'ylar va tuyalarda endemik enterit; stonsiy va kalsiy ortiqchaligi kuzatiladigan provinsiyalarda hayvonlar orasida suyaklarning patologiyasi qayd etiladi.

4. Tog' zonasasi - klimatik-tuproq sharoitlarining turli xilligi bilan xarakterlanib, yod, kobalt yetishmovchiligi provinsiyalari kuzatiladi, hayvonlar orasida ushbu elementlarning yetishmovchiligi kasalliklarining kuzatilishi xarakterli bo'ladi.

Muallif O'zbekiston hududining biogeokimyoviy xususiyatlarini, tuproq, o'simlik va suvlarning kimyoviy xususiyatlarini hisobga olib, quruq cho'l, cho'l va yarim cho'l zonaga mansub degan xulosaga kelgan.


Hayvonlarda endemik kasalliklarni o'rganishga olimlardan Ya. M. Berzin, I. A. Kaarde, A. A. Kabishev, N. A. Sudakov, S. A. Ivanovskiy, A. P. Kudryavsev, O'zbekiston hududining biogeokimyoviy xususiyatlarini, tuproq, o'simliklar va suvlarning kimyoviy xususiyatlari, mikroelementlarning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi kuzatiladigan biogeokimyoviy provinsiyalarni M. A. Rish, R. A. Daminov, D. V. Abdullayev va Sh. N. Nazarovlar o'rganishgan.

M. A. Rish, R. A. Daminov, D. V. Abdullayevlarning [71] yozishlaricha, V. V. Kovalskiy O'zbekistonning (tog'li hududlardan tashqari) 280 mln. ga, 3200 km uzunlikdagi hududlarini sulfatlar, bor, rux va ko'p hollarda stronsiy miqdori juda yuqori, molibden ortiqcha, yod, mis va ba'zan kobalt yetishmovchiligi kuzatiladigan biokimyoviy provinsiyaga mansub, shuning uchun bu zonada hayvonlar orasida borli enterit va

pnevmoniya, endemik ataksiya va endemik buqoq kasalliklari ko‘p uchraydi - deb ta’riflaydi.

Mualliflar V. V. Kovalskiyning bu fikrlariga to‘lig‘icha qo‘shilishsalarda, O‘zbekistonda mis, rux yetishmaydigan subregionlar ham mavjudligini ma’lum qiladilar. Ayniqsa O‘zbekistonning ko‘pchilik hududlarida qishloq xo‘jalik hayvonlarida rux elementi biogeokimyosi alohida e’tibor talab etadi.

Mualliflar tabiiy-geografik holat, tuproq, suv, o‘simliklar kimyoviy tarkibi va ular bilan bog‘liq biologik reaksiyalarning xususiyatlarni hisobga olib, O‘zbekiston respublikasi hududini beshta, ya’ni noqulay geokimyoviy omillar oqibatida hayvonlarning kasalliklari kuzatiladigan subregionlarga ajratishgan. Bu subregionlar hayvonlar organizmida mis, yod va rux yetishmovchiligi va mis hamda litiy ortiqcha bo‘lgan ba’zi tog‘li provinsiyalardan iboratdir (1-rasm).



1-rasim: O‘zbekiston respublikasining biogeokimyoviy provinsiyalari kartogrammasi. **Gidromorf provinsiyalar:** I. Mis yetishmovchiligi kuzatiladigan subregion - 1, 2-Amudaryo uzanlari, 3-Mirzachul, 4-Zarafshon daryosi uzanlari, 5-Markaziy Farg‘ona, 6, 7-Qarshi chuli; II. Karbonatli-magniyli sho‘rlangan va yod yetishmovchiligi kuzatiladigan subregion - 4-Zarafshon daryosi uzanlari va quruq deltalari, 17-Zarafshon daryosi o‘rta oqimi. **Avtomorf provinsiyalar;** III. Mis-rux yetishmaydigan subregionlar: 8-12-Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘larining tog‘oldi zonalari; IV. O‘simliklarda litiy ortiqcha subregion: 18-Zarafshon tog‘ tizmasi tarmoqlari; V. Endemik

ikterogemoglobinuriya kuzatiladigan subregion: 13- Markaziy qizilqum, 14-15- G‘arbiy-janubiy qizilqum, 16-Qarshi chuli; **VI. Tuproqda litiy elementi ortiqchaligi kuzatiladigan subregion:** 19- Farbiy Nurota tog‘ tizmalar, 20- Zarafshon tog‘ tizmalarining Qoratepa qismi.

1). Mis yetishmovchiligi kuzatiladigan subregion qo‘zi, uloq va buzoqlarda endemik ataksiya va endemik gepatit kuzatilishi, junlarning depigmentasiyasi, mis saqlovchi fermentlar (seruloplazmin, sitoxromoksidazalar, sulfidoksidazalar) faolligining pasayishi, hayvonlarda keratinizasiya jarayonlarining va yodtironinlar sintezining susayishi, jigarda (< 20 mg/kg), qon zardobida (< 6 mg/kg) va jun tarkibidagi (< 6 mg/kg) mis miqdorining kamayishi bilan xarakterlanadi. Bu subregionga - Amudaryo, Zarafshon daryolari uzanlari, Mirzachul, markaziy Farg‘ona, Qarshi cho‘li mansubdir. Hayvonlarda mis yetishmovchiligi uning hayvonlar ratsionida yetishmovchiligi (2-5 mg/kg quruq moddada) va sulfatlar, kalsiy (9,2-22,3 g/kg) va molibden (2,4-5 mg/kg) kabi antagonistlarining ortiqchaligi tufayli kuzatiladi. Shuningdek, bu subregionda ruxning yetishmovchiligi, junlarning tushib ketishi, qo‘ylarda bachadonning yorilishi hollari qayd etiladi.

2). Karbonatli-magniyli sho‘rlangan, yod yetishmovchiligi va qisman mis yetishmovchiligi kuzatiladigan subregion - Zarafshon daryosi uzanlari, quruq deltalari va o‘rta oqimi shu subregionga mansub bo‘lib, yosh hayvonlar orasida endemik buqoq, sigirlarda qisir qolish va mahsuldorlikni kamayishi xarakterli bo‘ladi. Qoramollar ratsionidagi yodning miqdori - 0,03-0,16 mg/kg, sutda - 0,03 mg/l, qalqonsimon bezda - 0,1 mkg/g gacha kamayishi kuzatiladi;

3). Rux, ayrim joylarda mis yetishmaydigan subregion - qoramollarda parakeratoz kuzatilishi, hayvonlarda rux saqlovchi fermentlar (ishqoriy fosfatazalar, karbongidrazalar, laktatdegidrogenazalar) faolligining pasayishi, jun tarkibidagi rux miqdorining (< 90 mg/kg) kamayishi bilan xarakterlanib, bu subregionga Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘larining tog‘oldi zonalari mansubdir;

4). Gepatogen misdan zaharlanish (Endemik iktero-gemoglobinuriya) kuzatiladigan subregion - Markaziy qizilqum, G‘arbiy-janubiy qizilqum, Qarshi cho‘li;

5). Tuproq tarkibida litiy elementi ortiqchaligi kuzatiladigan subregion - Urgut tumani, Farbiy Nurota tog‘ tizmalar, Zarafshon tog‘ tizmalarining qoratepa qismi.

Mualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston respublikasining Amudaryo tumani birinchi subregionga mansub bo‘lib, tuprog‘i haydalma-shuxokli, sho‘rlangan, tarkibidagi temir - 3-4%, Mn -

400-600, Zn - 60-70, Cu - 25-40, Co - 6-10, Mo - 2-3, I - 05-12, B - 50-70, Sr - 45-50 mg/kg ni, o'simliklarning 1 kg quruq moddasida Mn - 40-90, Zn - 16-34, Cu - 2,3-5,8, Co - 0,16-0,30, Mo - 2,3 va I - 0,14-0,70 mg ni tashkil etadi. Xorazm viloyatining hududi ham shu subregionga mansubdir.

Zarafshon daryosining o'rta qismi va deltalar yod yetishmovchiligi va kuchsiz darajada mis yetishmovchiligi kuzatiladigan subregionga mansub bo'lib, tuprog'i tarkibida Fe - 2-3%, Mn - 230-300, Zn - 20-45, Cu - 12-32, Mo - 1,4-6,3, I - 0,4-0,6 mg/kg ni, o'simliklarda Mn - 67, Zn - 15,0, Cu - 6,3, Mo - 2,2, So - 0,40, I - 0,36 mg/kg ni tashkil etadi.

Samarqand viloyatining Jomboy tumani karbonatli-magniyli sho'rangan va yod yetishmovchiligi kuzatiladigan subregionga mansub bo'lib, Zarafshon daryosi o'rta oqimida joylashgan. Tuprog'i haydalma-botqoqli, gilli xususiyatli bo'lib, Fe - 0,95-1,4%, Mn - 800-1000, Cu - 12-18, Mo - 7-7,3, I - 4,3-4,8, Co - 7-8, Zn - 40-47 mg/kg ni, o'simliklarda o'rtacha Fe - 550, Mn - 264, Zn - 31, Cu - 4,5, Mo - 3,4, I - 0,4, Co - 0,47, mg/kg ni, hayvonlar ratsionida Cu - 5,7-7,0, Zn - 26,0 mg/kg ni tashkil etadi.

Buxoro viloyatining Fijdivon va Shofirkon tumanlari tuprog'i sarg'ich-qo'ng'ir, qumloq va taqir tuproqlar turkumiga mansub bo'lib, kuchli gipslangan. Qiziltepa qo'rg'oni atrofidan olingan tuproqlar tarkibida Fe - 1,4-2,6% ni, Mn - 470-570, Zn - 48-50, Cu - 26-24, Co - 11-17, Mo - 2,6-4,5, I - 2,0-2,2 mg/kg ni oziqalarda o'rtacha Mn - 85,1; Zn - 8,3; Cu - 3,8; So - 0,23; Mo - 1,4 va I - 0,38 mg/kg ni tashkil etgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, qoramollarda marganes ortiqchaligi kasalligi Surxondaryo, Amudaryo va Zarafshon daryolari deltalaridagi tekisliklarda (qamishzorlarda) o'tlatiladigan mollarda ko'p qayd etiladi, chunki qamish tarkibida marganesni ko'p saqlaydi [28].

Muallif [61]. O'zbekiston respublikasi hududidagi yod yetishmovchiligi kuzatiladigan zonalarni quyidagi guruhlarga ajratadi:

a) yod yetishmovchiligi juda kuchli darajada kuzatiladigan hududlar - Farg'ona vodiysi tumanlari;

b) yod yetishmovchiligi kuchli darajada kuzatiladigan hududlar - Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikasi tumanlari;

v) yod yetishmovchiligi sezilarli darajada kuzatiladigan hududlar - Toshkent, Buxoro viloyati tumanlari.

Muallif kobalt yetishmovchiligi Farg'ona vodiysi, Surxondaryo, Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida, marganes yetishmovchiligi Samarqand va Buxoro viloyatlari tumanlari, rux yetishmovchiligi Samarqand va

Surxondaryo viloyatlarining tog‘oldi va tog‘li tumanlarida kuzatilishini aniqlagan (1-jadval).

Mualliflar Samarqand shahri xududining ekologo-geokimyoviy holatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazib, qo‘rg‘oshin, simob, xrom, kumush, mis, rux ortiqcha bo‘lgan geokimyoviy anomaliyalarini aniqlaganlar [90].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy oziqlardagi mikroelementlarning o‘rtacha miqdori (mg/kg quriq moddada)

Viloyatlar	Temir	Mis	Kobalt	Marganes	Rux	Molibden
Farg‘ona, Andijon	122,6	3,09	0,27	32,2	5,69	1,44
Samarqand	75,5	3,75	0,35	19,1	6,64	1,63
Toshkent	81,8	2,23	0,28	27,7	1,77	1,43
Sirdaryo	110,8	2,74	0,20	27,2	3,74	1,79
Surxondaryo	152,9	2,11	0,26	22,0	7,64	1,16
Buxoro	82,0	1,73	0,13	18,0	6,73	1,94
Xorazm	137,8	2,80	0,24	21,7	4,66	2,06
Qoraqalpog‘iston	168,8	3,34	0,33	29,5	3,92	1,68
Qashqadaryo	106,8	3,59	0,21	27,9	8,48	1,92

Mualliflar [54]. hayvonlarning mikroelementlar bilan ta’minlanishi bo‘yicha Samarqand viloyati hududini shartli ravishda quyidagi to‘rt regionga ajratishni taklif etadi:

1. Zarafshon daryosining sharqiy qismi;
2. Zarafshon daryosining boshlanish qismi va tekisliklar;
3. Samarqand viloyatining periferiya qismi past tog‘liklari;
4. Viloyatning shimoliy, cho‘l zonasiga tutash qismi.

Birinchi region tuproqlari sug‘oriladigan haydalma va haydalma - botqoqli tuproqlardan iborat bo‘lib, bu regionda parvarishlanayotgan hayvonlar orasida mis, marganes, rux va yod mikroelementlarining yetishmovchiligi kuzatiladi. Oziqlarning mikroelement tarkibi o‘rganilganda mis elementi arpa donida - 2,6-4, makka donida - 2,7, somonda 3,0 mg/g ni tashkil etgan. Bu regionda tuproq tarkibidagi misning miqdori o‘rtacha $0,45\pm0,02$ mg/kg (me’yor $0,4\pm0,8$ mg/kg), marganes $96,0\pm6,7$ mg/kg (me’yor - 80-100 mg/kg) ni tashkil etsada, marganesning beda tarkibidagi miqdori 24-30 mg/kg. ni tashkil etgan. Bunga tuproqlar tarkibida uning antagonisti hisoblangan kalsiyning ortiqchaligi sabab bo‘lsa kerak. Chunki kalsiy tuproq tarkibidagi marganesni oziqlarga o‘tishini qiyinlashtiradi.

Ikkinchchi region tuprog‘i hosildorligining yuqori, kaliy, fosfor va mikroelementlarga boyligi bilan xarakterlansada, tuproqning ishqoriy muhitga ega ekanligi marganes va ruxning o‘simliklarga o‘tishini qiyinlashtiradi.

Uchinchi regionda (Urgut, Samarqand, Nurobod tumanlari) parvarishlanayotgan hayvonlar orasida mis, rux va marganes yetishmovchiligi kuzatiladi.

To‘rtinchchi region (Qarnabcho‘l) tuproqlari kalsiyning ortiqchaligi, fosfor, temir, marganes va ruxning tanqisligi bilan xarakterlanadi.

Mualliflar [28] ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning yaylovlarida o‘simliklar tarkibidagi mikroelementlar miqdori aniqlangan (2-jadval).

Mualliflar [90] Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryo irmoqlari o‘rtasida tuproqlarning o‘tloq va o‘tloq-botqoqli tuproqlardan iborat ekanligi, xududning janubiy qismida parvarishlanayotgan hayvonlarda mikroelementlar yetishmovchiligi kuzatilishini ma’lum qiladi.

2-jadval

O‘zbekistonning yaylovlarida o‘simliklar tarkibidagi mikroelementlar miqdori. (mg/kg quruq modda hisobida)

Yaylovlar	Mis	Kobalt	Yod	Rux	Marganes
Tog‘ etaklaridagi chala cho‘llar (Jom cho‘li)	5,7	0,38	0,53	16,5	94,0
Shuvoq-efimer o‘tli sahro (Qarnab, Qarshi, Konimex)	6,2	0,35	0,44	20,1	96,7
Qum sahrolari (Qoraqum, janubiy-g‘arbiy Qizilqum)	3,7	0,36	0,50	15,3	71,0
Efimer o‘tli chala sahrolar (Mirzacho‘l)	4,8	0,42	0,60	21,2	98,7
Daryo sohillaridagi yaylovlar (Zarafshon daryosining o‘rta oqimi)	4,5	0,47	0,40	31,0	64,0

Mualliflar tekshirilgan 10 ta xo‘jalikning to‘rttasida hayvonlar junida me’yorlarga nisbatan mis miqdorini 2 mg/kg.ga, sakkiztasida marganesni 1,5 mg/kg.ga va to‘rtta xo‘jalikda ruxni 26 mg/kg.ga kam ekanligini qayd etishgan. Bundan tashqari oziqalar tarkibidagi mikroelementlar miqdorining ham hayvonlarning ehtiyojlarini qondirmasligi aniqlangan, ya’ni arpa doni tarkibida mis 2,6-4 mg/kg, makka donida - 2-7 mg/kg va somon tarkibida - 3 mg/kg.ni, marganes paxta sheluxasida - 9-10 mg/kg, bug‘doy somonida - 1,5-1,7 mg/kg, senaj tarkibida - 4,8 mg/kg.ni tashkil etib, ratsionning asosiy komponentlari hisoblangan bu oziqalarda

mikroelementlarning me'yorlardan kam miqdorda bo'lishi hayvonlarda mikroelementzlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishini ta'kidlashadi.

Ruxning tuproq namunasidagi miqdori me'yordagi $1,5\text{-}2,5$ mg/kg o'rniga $0,66\pm0,03$ mg/kg ni, shuningdek, misning miqdori $0,45\pm0,02$ mg/kg (me'yor - $05\text{-}0,8$ mg/kg), marganes - $96\pm6,7$ mg/kg ni (me'yor - $80\text{-}100$ mg/kg) tashkil etgan.

Muallif [72] Ukrainaning shimoliy hududlarida atrof muhitning texnogen ifloslanishi oqibatida yangi tug'ilgan buzoqlarning yod yetishmovchiligi bilan kasallanishining $19,8\text{-}39,7$ foizgacha yetishini ma'lum qiladi. Kasallangan buzoqlarda taxikardiya, keyinchalik, ularning 2,4 oyligida bradikardiya, ko'pchilik buzoqlarda shilliq pardalarning anemiyasi va raxit kasalligiga xos klinik belgilar kuzatilgan. Muallif bunday holatni ularning homila davrida bo'g'oz hayvonlar ratsionida mis, kobalt, yod kabi mikroelementlarning yetishmovchiligi bilan izohlaydi.

Muallif, yangi tug'ilgan buzoqlarda klinik tekshirishlar o'tkazish bilan yod yetishmovchiligi biogeosenozining xarakterini aniqlash, profilaktik, davolash ishlarining rejasini tuzish mumkinligini ta'kidlaydi.

Mualliflar ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyoning sug'oriladigan yerlarida rux juda kam miqdorda bo'lib, ayniqsa sabzavot ekinlari, makkajuxori va mevali daraxtlar uchun rux yetishmaydi. Tuproqdagi mis miqdori o'rtacha 0,005 foizni tashkil etadi. O'rta Osiyoning to'q tusli haydalma tuproqlarida bo'z tuproqlarga nisbatan yodning miqdori ko'proq bo'lib, elementning o'rtacha miqdori 0,0005 foizni tashkil etadi. Tuproqda mis yetishmovchiligi kuzatilganda o'simliklarda oqsillar sintezi va hosildorlik ancha kamayadi. Tuproqlardagi misning miqdori o'rtacha 0,02 foizni tashkil etib, asosan tuproqning gumusli gorizontlarida organik-mineral shaklda bo'ladi. Neytral va ishqoriy tuproqlarda ko'pincha o'simliklar uchun mis yetarli miqdorda bo'lmaydi [71].

Mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, 1987 yilda aniqlangan yer kadastro ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududining sug'oriladigan yerlaridagi sho'rangan tuproqlar maydoni 1970,7 ming hektar, shu jumladan kam sho'rangan yerlar 1117,7 ming, o'rtacha sho'rangan yerlar - 611,2 ming va kuchli darajada sho'rangan yerlar 241,6 ming hektarni tashkil etadi. Sho'rangan tuproqlarda o'simliklar tomonidan kalsiy, fosfor, marganes, temir, mis, kobalt kabi mineral elementlar o'zlashtirilishining kamayishi va xlor, natriy, magniy kabilarning ko'p miqdorda o'zlashtirilishi kuzatiladi.

Bugungi kunda Orol dengizining 1 mln. hektarga yaqin maydonining qurib qolishi tufayli mintaqamizda cho'l-sahrolanish jarayonining ko'chayib borishi kuzatilmogda, Orol dengizi tubidagi tuz qatlamlarining

ochilib qolganligi va ularning keng maydonlarga tarqalishi tufayli uning atrofida unumsiz-cho'l, cho'l-taqir va sho'r tuproqli maydonlarning hosil bo'lishi kuzatilmoqda [95].

Mualliflarning ma'lum qilishicha, O'rta Osiyoning yuqori karbonatli tuproqlari sharoitida azotli o'g'itlar tez minerallashib, tuproqning pastki qatlamlariga tushadi va yer osti suvlariga qo'shilishi mumkin. Tuproqda nitratlarning ko'p miqdorda to'planishi o'simliklar tarkibida ham ular miqdorining ruxsat etiladigan miqdorlardan ortib ketishi va odamlar hamda hayvonlarning zaharlanishiga sabab bo'ladi.

Mualliflar [18]. ma'lumotlariga ko'ra, qoramollarning enzootik osteodistrofiya kasalligi hozirgi kunda alohida hududlarda organizmga radionukleidlarning majmuaviy ta'siri hamda makro- va mikroelementlarning yetishmovchiligi oqibatida kelib chiqadi. Shuning uchun davolash - profilaktik tadbirlarini rejalashtirishda hududning biogeokimyoviy xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda alohida hududlarda organizmga radionukleidlarning majmuaviy ta'siri hamda makro- va mikroelementlarning yetishmovchiligi oqibatida insonlar va hayvonlar orasida mikroelementozlar ko'p qayd etilmoqda. Bu holat hamma hududlarda bir xilda bo'lmasdan, tuproqlarning sho'rланish darajasi va uning xarakteri, mineral o'g'itlardan foydalanish, tuproq tarkibidagi mikroelementlar antoganistlarining miqdori, ularning o'simliklar va hayvonlar tomonidan o'zlashtirilish darajasi kabi bir qator omillarga bog'liq [17, 98, 60.].

Adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish bilan shunday xulosaga keldikki, O'zbekistonning 280 mln gektar, 3200 km uzunlikdagi hududlarida asosan sulfatlar, karbonatlar, bor, molibden, stronsiy, litiy, kalsiy elementlarining ortiqchaligi, yod, mis, kobalt, marganes, rux, temir, fosfor kabi mineral moddalarining turli darajada yetishmasligi kuzatiladi.

Bu holat hamma hududlarda bir xilda bo'lmasdan, tuproqlarning sho'rланish darajasi va uning xarakteri, mineral o'g'itlardan foydalanish, tuproq tarkibidagi mikroelementlar antoganistlarining miqdori, ularning o'simliklar va hayvonlar tomonidan o'zlashtirilish darajasi kabi omillarga bog'liq.

MIKROELEMENTLARNING ORGANIZMDAGI AHAMIYATI

Tadqiqotchilar XVIII - asrdayoq hayvonlar organizmida kobalt, mis, marganes va boshqa metallarni aniqlashgan va ular organizmga oziqlar

bilan tasodifiy tushib qolgan yot narsalar deb hisoblashgan. Lekin XIX - asrga kelib, insonlarda endemik buqoq kasalligining kelib chiqishiga tuproq, havo va suv tarkibida yod elementining yetishmovchiligi sabab bo'lishi, XX - asrning boshlarida endemik flyuoroz kasalligiga suv tarkibida fтор elementining ortiqchaligi sabab bo'lishi har tomonlama mukammal aniqlangan.

Mikroelementlarning o'simliklar va hayvonlar organizmi hayotfaoliyatidagi ahamiyatini o'rganish V. I. Vernadskiy tomonidan 1922 yilda geokimyoviy provinsiyalar to'g'risidagi va tirik organizmlar kimyoviy tarkibi bilan yer shari kimyoviy tarkibi o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik to'g'risidagi ta'limotlarning yaratilishidan keyin boshlandi. Bugungi kunda zamonoviy tekshirish usullari yordamida barcha ma'lum kimyoviy elementlar va ularning izotoplari insonlar va hayvonlar organizmida aniqlangan.

Organizmda hamma turdag'i modda almashinuvi jarayonlari kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalar tarzida kechadi. Bu reaksiyalar jarayonida oqsillar, yog'lar va uglevodlar sintezlanadi. Ularning ishtirokida esa organizmning rivojlanishi va o'sishi amalga oshadi. Modda almashinuvlari oqibatida oraliq va oxirgi almashinuv mahsulotlari hosil bo'lib, organizmdan tashqi muhitga chiqariladi.

Organizmdagi har bir hujayrada bir vaqtning o'zida 4000 ga yaqin biokimyoviy reaksiya amalga oshadi va bu reaksiyalar jarayonida oqsillar, yog'lar va uglevodlar sintezlanadi, yangilanadi, parchalanadi, energiya hosil bo'ladi va ishlatiladi. Bu jarayonlar biologik katalizatorlar, fermentlar hamda spesifik oqsillarning ta'siri tufayli bir vaqtida, o'zaro aloqadorlikda, ma'lum tezlikda kechadi.

Hayvonlar organizmi asosiy oziqaviy moddalar (protein, uglevodlar, karotin, kalsiy, fosfor) ya'ni ratsionlar ularning miqdori bilan nazorat qilinib turiladigan moddalardan tashqari biologik faol moddalarga ham ehtiyoj sezadi. Bu moddalar orasida mikro- va ultramikroelementlar katta ahamiyatga ega bo'lib, oziqalar tarkibida juda kam miqdorlarda uchraydi. Hozirgi kunda mikroelementlarning metallokomponentlar sifatida ko'pchilik vitaminlar, fermentlar va garmonlar tarkibini tashkil etishi, ularning ta'sirini kuchaytirishi yoki pasaytirishi va shu orqali ularning fiziologik funksiyalarini va moddalar almashinuvi jarayonlarini ta'minlashi fanga ma'lum.

Tabiatda uchraydigan 92 elementdan 81 tasi odam va hayvonlar organizmida aniqlangan. Bular orasida temir, yod, mis, rux, kobalt, nikel, xrom, vanadiy, selen, marganes, fтор, kremniy, litiy kabi mikroelementlar essensial, ya'ni hayotiy muhim elementlar hisoblanadi [45]. Ular

organizmdagi barcha to‘qimalarda bo‘lsada, asosiy depo a’zolar - jigar, taloq, suyaklar, buyraklar, teri, oshqozon osti bezi va boshqa a’zolar hisoblanadi [85].

Organizmdagi barcha fiziologik jarayonlar va uning funksiyalari, shuningdek, tashqi muhitning o‘zgarishlariga moslashishi hujayra, to‘qima va a’zolarning strukturaviy- kimyoviy tashkil topishiga bog‘liq bo‘lib, ma’lum miqdor va nisbatlarda oqsillar, lipidlar, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar, suv, fermentlar, garmonlar va boshqa biologik faol moddalardan iborat tabaqalashgan tuzilmalar tomonidan nafas, moddalarning sintezi va tashilishi amalga oshadi.

Biogen mikroelementlar fermentlar, garmonlar, nafas pigmentlari tarkibiga kiradi, hujayralar strukturası, sitoplazma, qon, limfa, to‘qima suyuqliklari va hujayra ichki muhitining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Hayvonlar organizmi uchun mikroelementlarning asosiy manbai o‘simlik va hayvonot dunyosidan olinadigan oziqalar hisoblanadi. Hayvonlarning mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarining 1-10 foizigina ichimlik suvi hisobiga qoplanishi mumkin xolos.

Ma’lumki, fermentlar oqsillarning murakkab strukturaviy tuzilishlari bo‘lib, ularning ko‘pchiligi oqsil xususiyatiga ega bo‘lmagan, lekin katalitik faollikkaga ega moddalar saqlaydi. Bu moddalarga fermentlarning prostetik guruhlari deb ataladi. Ularga vitaminlar (asosan B guruhi vitaminlari), temirning gemorganik birikmalari, ikki valentli metallar - mikroelementlarni misol keltirish mumkin. Masalan, ko‘pchilik oqsil va peptidlar molekulasiidagi peptid bog‘lamlarning parchalanishi ular molekulasi tarkibidagi kobalt, rux, marganes miqdoriga bog‘liq. Mis urinazalar va sitoxromoksidazalarning faollahishi uchun zarur hisoblanadi.

Ko‘pchilik fermentlar tarkibiga vitaminlar ham kiradi. Masalan, B guruhi vitaminlaridan tiamin (B_1), riboflavin (B_2), piridoksin (B_6), biotin (N), nikotin kislotasi (PP₁), pantoten kislotasi (U) va boshqalar digedrogenazalar, karboksilazalar, esterazalar va boshqa fermentlar sintezini ta’minlaydi. Organizmda vitaminlar yetishmovchiligi kuzatilganda fermentlar faolligi ham pasayadi. Bundan tashqari vitaminlar oqsillar, uglevodlar, yog‘lar, suv va mineral moddalar almashinushi va oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini boshqarishda qatnashadi.

Organizmda vitaminlarning faolligi ko‘p jihatdan mikroelementlarning biologik ta’siriga bog‘liq. Mikroelementlar vitaminlarni sintezi va organizmda to‘planishida qatnashadi. Ratsionda kobalt, mis, margayens kabi mikroelementlar yetishmovchiligi

kuzatilganda oshqozon - ichak tizimidagi simbiont floralar faolligi pasayadi va oqibatda vitaminlarning mikrobial sintezi kamayadi.

Ko‘pchilik vitaminlar (A, D, C, E va b.) organizmga asosan oziqlar bilan tushadi, lekin mikroelementlar yetishmovchiligi oqibatida mikrofloralar faolligining pasayishi natijasida tuyimli moddalar va shu jumladan vitaminlarning ham o‘zlashtirilishi yomonlashadi.

Ba’zi vitaminlar organizmda ularning provitaminlaridan masalan, A vitamini karotindan, D vitamini ergosterindan sintezlanadi. C vitamini esa hayvonlarning jigarida va to‘qimalarda sintezlanadi. Bu jarayonlarda mikroelementlardan mis va marganesning ishtiroki to‘g‘risida bir qancha ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, vitamin va mikroelementlarni moddalarning oraliq almashinuvida ham ishtiroki kuzatiladi.

Bu ma’lumotlar hayvonlar organizmining vitaminlar bilan ta’milanishi va ular biologik xususiyatlarining nomoyon bo‘lishida mikroelementlarning ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Barcha turdagи modda almashinushi jarayonlari va fermentlarning fallligini bashqarib turishda garmonlarning ahamiyati katta. Ularning ichki sekresiya bezlarida sintezlanishining buzilishlari organizmda modda almashinuvining izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Endokrin tizim faoliyatining me’yorida kechishi mikroelementlarning faol ishtirokida kechadi.

Gormonlarning asosiy tarkibiy qismini oqsillar (insulin, tireotrop garmon va b.) yoki polipeptidlar (kortikotropin-adrenokortikotrop garmon - AKTG, vazopressin, oksitosin va b.) tashkil etadi. Barcha oqsillar, polipeptidlar va shu jumladan gomonlarning sintezi faqatgina dezoksiribonuklein (DNK) va ribonuklein (RNK) kislotalarining ishtirokida kechadi. Bugungi kunda nuklein kislotalarining sintezida mikroelementlarning ishtiroki to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlar mavjud.

Mikroelementlar garmonlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada ham bo‘ladi. Masalan, yod saqlovchi tiroksin garmonining qalqonsimon bezida biosintezi organizmdagi yod elementining miqdoriga, insulin garmonining faolligi esa oshqozon osti bezidagi rux elementining miqdoriga bog‘liq. Shuningdek, ruxning gipofiz, jinsiy bezlar kabi ichki sekresiya bezlarida to‘planishi va elementning ishtirokida garmonlar, xususan, gipofiz bezining gonadotrop va reotrop garmonlari, buyrak o‘sti bezi pustloq qavatining kortikosteroid garmonlari sintezlanadi.

Ichki sekresiya bezlarining va shuningdek, garmonlar biosintezi va faolligining me’yorida bo‘lishi uchun organizmda “hayot metallari” deb ataladigan mis, rux, marganes, kobalt, yod kabi elementlarning optimal miqdorlarda bo‘lishi talab etiladi. Mikroelementlarning bevosita

ishtirokida fermentlar, vitaminlar va garmonlarning modda almashinuviga jarayonlarini boshqarishdagi ishtiroki ta'minlanib turiladi. Organizmda kechadigan barcha jarayonlar - o'sish va rivojlanish, ko'payish, mahsuldorlik va mahsulotlar sifati bu jarayonlarning qanday darajada kechishiga bog'liq bo'ladi [73].

Mualliflar [44] mikroelementlarning biologik ahamiyatini qo'yidagicha izohlashadi:

a) ular bir qator fermentlarning kofaktorlari (fermentlarning prostetik guruhlari tarkibiga kiradi) hisoblanadi yoki fiziologik faol moddalarning komponentlari (kobalt B₁₂ vitaminining, yod qalqonsimon bez garmonlarining tarkibiy qismi) hisoblanadi;

b) miroelementlar fermentlarning faolligi va spesifikligiga ta'sir ko'rsatadi. Mikroelementarning bunday ta'siri fermentlar tarkibidagi oqsillar strukturasini o'zgartirishi bilan izohlanadi, natijada ularning faolligi va spesifikligi o'zgaradi. Masalan, Rux-karboksipeptidaza fermenti tarkibidagi Zn²⁺ ionlari o'rnni Ca²⁺ yoki Mg²⁺ ionlari egallashi uning peptidaz faolligini, Mn²⁺ yoki Co²⁺ ionlari egallashi esa substratdagi spesifikligini yo'qotadi.

Mikroelementlar asosan ingichka bo'lim ichaklarida qonga so'rilib, metalloproteinli komplekslar holida tashiladi. Ovqat hazm qilish trakti orqali organizmga tushgan mikroelementlarning asosiy qismi tezak (60-90%) orqali va qisman siyidik bilan tashqariga chiqariladi.

Mis. [44] ta'kidlashicha, mis yenolazalar, oksidazalar, sitoxromoksidazalar va boshqa fermentlar prostetik guruhlari hosil bo'lishida qatnashadi, qon hosil bo'lishi va antitelalar biosintezini stimullaydi, uning oziqalar tarkibida yetishmovchiligi hayvonlarda lizuxa kuzatilishiga sabab bo'ladi. Hayvonlarning misga bo'lgan sutkalik ehtiyoji oziqaning 1 kg quruq moddasida 5-8 mg. ni tashkil etadi.

Mis organizmga asosan oziqalar orqali tushadi, u o'simliklarning vegetativ qismlarida ko'p bo'ladi. Ichaklarda 30 foizga yaqin mis erkin holga o'tadi va ingichka bo'lim ichaklarda so'rildi. Ingichka bo'lim ichaklarning shilliq pardasida metalloteoniyein oqsili bo'lib, u mis bilan birikma hosil qiladi va misning qonga so'rilihini boshqarib turadi. Qonga so'rigan mis aminokislotalar va albuminlar bilan kompleks birikmalar holida tashilib, jigar, orqa miya, suyak to'qimasi, teri qoplamasida va kam miqdorda boshqa a'zolarda to'planadi. Jigardagi mis seruloplazmin holida qonga o'tkazilib, to'qima va hujayralarga yetkaziladi [85].

Misning kavshovchi hayvonlar organizmida almashinuviga marganes, qurg'oshin, oltingugurt, molibden, sulfatlar va sulfidlar ta'sir ko'rsatadi. Oltingugurt va molibden misning eriydigan fraksiyalari

konsentrasiyasining kamayishiga sabab bo‘ladi, mis katta qorindagi mikrofloralar tomonidan hosil bo‘ladigan vodorod sulfid tarkibidagi oltingugurt bilan qiyin hazmlanadigan birikma hosil qiladi. Ratsionda kalsiy miqdorining ortiqcha bo‘lishi, shuningdek, katta qorin suyuqligida pH ning yuqori bo‘lishi ham misning o‘zlashtirilishi qiyinlashadi.

Muallifning [71] ta’kidlashicha, mis hayvonlar organizmida bir qancha biologik jarayonlarda qatnashadi. U temirni gemoglobin tarkibiga o‘tishi va eritrositlarning yetilishini ta’minkaydi. Organizmda misning yetishmovchiligi kuzatilganda tarkibidagi gemoglobin konsentrasiyasining o‘zgarmasligi bilan kechadigan eritrositlar sonining kamayishi, ya’ni mikrositar gipoxrom anemiya kuzatiladi.

Mis organizmda osteogenez, teri qoplamasining pigmentasiyasi va kreatinizasiyasi jarayonlarida qatnashadi. Seruloplazmin, sitoxrom-oksidazalar, tirozinazalar va boshqa fermentlar tarkibiga kiradi. Misning yetishmovchiligidagi temirning gemoglobin sintezi uchun ishlatilishi yomonlashadi, eritropoez izdan chiqib, uning faqatgina retikulositlar bosqichigacha davom etishi kuzatiladi. Shuningdek, oksidlanish - qaytarilish, pigmentasiya va kreatinizasiya jarayonlari yomonlashadi.

Misning yetishmovchiligidagi oshqozon oldi bo‘limlarida mikrofloralarning normal hayot-faoliyati izdan chiqadi. Misning oziqalarda va bo‘g‘oz sigirlar organizmida yetishmovchiligi yangi tug‘ilgan buzoqlar qon zardobida immun oqsillar miqdorining kamayishiga sabab bo‘ladi [45].

Muallifning [52] ma’lum qilishicha, mis insonlar va hayvonlar organizmi hamda o‘simliklar uchun muhim mikroelement hisoblanib, hujayralarda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, fotosintez va malekulyar azotning o‘zlashtirilishini boshqaruvchi metalloproteinlarning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Mis garmonlar tarkibiga kirishi bilan o‘sish, rivojlanish, ko‘payish xususiyatlari, modda almashinuvlari, gemoglobin hosil bo‘lishi va leykositlarning fagositoz faolligi jarayonlariga ta’sir etadi. Mis xuddi kobalt singari bir, ikki va ba’zan uch valentli holatda bo‘ladi. Mis birikmalari oksidlanish - qaytarilish jarayonlarida katalizator sifatida qatnashishi bo‘yicha temir birikmalaridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Tarkibida mis saqlovchi metallofermentlar va metalloproteinlar (sitoxrom-s-oksidaza, lizin-2-monooksidaza, tirozin-3-monooksigenaza, ferrooksidaza, peroksid-dismutaza) nafas fermentlari zanjirida lizinning oksidlanishi, terining pigmentasiyasi, temirni ishlatilishi va perekisli dismutasiya jarayonlarida alohida funksiyalarni bajaradi.

Mis askorbin kislotasi oksidlanishining katalizatori hisoblanadigan askorbinoksidazalarning komponentlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek,

mis bilan A, C, E vitaminlari, nikotin kislotasi miqdorlari o'rtasida korrelyativ aloqadorlik borligi aniqlangan. Mis yetishmaydigan xududlarda qishloq xo'jalik hayvonlari orasida anemiya, «lizuxa», enzootik ataksiya kabi kasalliliklar uchraydi [52].

Rux va kadmiyni ingichka bo'lim ichaklari shilliq pardasida metalloteoninning SH - guruhi bilan birikishi natijasida misning so'riliши qiyinlashadi. Shuningdek, ratsionda ruxning tanqisligi ham misning hazm kanalida so'riliшини kamaytiradi. Kavshovchilar ratsionida molibden va sulfatlar ortiqcha bo'lganda misning hazm kanalida absorbsiyasi keskin kamayadi. Porfirinli birikmalar va CuS₂ (mis sulfid) shaklidagi mis hayvonlar tomonidan hazmlanmaydi [120].

Muallifning [52] ma'lum qilishicha, misni ratsiondagи miqdorining ortishi uning hayvonlar tomonidan o'zlashtirilishining kamayishiga sabab bo'ladi. Mis sulfat holidagi misga nisbatan aminokislotalar, peptidlar va polipeptidlar kabi murakkab birikmalar holidagi misning hazm kanalidagi so'riliши nisbatan jadalroq kechadi, shuningdek, misning jigarda to'planishi ham yuqori bo'ladi. Og'iz orqali berilgan mis qisqa vaqt ichida qon plazmasiga o'tadi va ikki soatdan keyin maksimal konsentrasiyaga yetadi. 2-3 soatdan keyin esa qon plazmasidagi ⁶⁴Cu konsentrasiyasi pasayib boradi, keyinchalik, yana ko'payib borib, ikkinchi maksimal konsentrasiyaga 24 soatdan keyin yetadi. Bu vaqt davomida misning asosiy miqdori (90% va undan ko'prog'i) ferroksidaza fermenti bilan birikma holida bo'ladi. Ferroksidazalarning sintezi jigar mikrosomalari tomonidan amalga oshadi. Ichaklar orqali organizmga so'rigan misning asosiy qismi jigar, suyak iligi, taloq va oshqozon osti bezida, o'suvchi hayvonlarda esa suyaklar epifizida ham to'planadi. Organizmdagi jami misning 30 foizi jigarda va 50 foiziga yaqini muskullar va suyak to'qimasida bo'ladi.

Mis uchun jigar asosiy depo a'zo hisoblanadi. Asosiy qismini mis tashkil etadigan seruloplazmin ham jigarda sintezlanadi. Shuning uchun elementning jigardagi miqdori organizmning mis bilan ta'minlanishini va misning o'zlashtirilishini aniqlashda asosiy indikator hisoblanadi.

Mualliflar [32] ma'lumotlariga ko'ra, misning biroz yetishmovchiligi kuzatilganda ham organizmda sitoxromoksidazalar va suksinoksidazalar faolligi sezilarli darajada pasayadi, marganes to'qimalarda limon kislotasini oksidlovchi degidrogenazalarni faollashtiradi, kobalt betaoksimoy kislotasini oksidlovchi fermentlarni faollashtiradi, ishqoriy fosfataza magniy, marganes, kobalt va rux ta'sirida faollashadi.

Mualliflarning [71] ma'lumotlariga ko'ra, hayvonlar yoshining ortib borishi bilan organizmdagi misning miqdori kamayib boradi. Masalan,

tana vazni 30 kg bo‘lgan buzoq organizmida mis 2,0 mg/kg. ni tashkil etgan bo‘lsa, tana vazni 400 kg bo‘lgan sigir organizmida misning miqdori o‘rtacha 1,62 mg/kg ni tashkil etgan.

Muallif [58]. ma’lumotlariga ko‘ra, qo‘ylar vena qon tomiriga 10 mg/kg dozada sof holdagi gossipol alkoloidini yuborish bilan chaqirilgan gepatoz kasalligida o‘t suyuqligi tarkibidagi misni $0,34\pm0,03$ mkg/ml. gacha kamayishi qayd etilgan.

Muallif, bu holatni jigarning distrofik-nekrotik xarakterdagi jarohatlanishi oqibatida uning ekskretor funksiyasining izdan chiqishi va misni jigaarda to‘planib qolishi bilan izohlaydi. Qon zardobidagi misning miqdori esa dastlabki ko‘rsatkichlarga (o‘rtacha - $0,68\pm0,03$ mkg/ml) nisbatan ko‘payib, o‘rtacha - $0,77\pm0,04$ mkg/ml. gacha yetishi kuzatilgan.

Mualliflar [71] ma’lumotlariga ko‘ra, qoramolar qonidagi misning miqdori o‘rtacha $1,01\pm0,2$ mg/l. ni tashkil etib, uning 34 foizi ($0,35\pm0,04$ mg) eritrositlarda va 66 foizi ($0,66\pm0,1$ mg) qon plazmasida bo‘ladi. Organizmdagi endogen misning asosiy qismi o‘t suyuqligi orqali tashqariga chiqariladi. Sutkasiga 6 litr atrofida o‘t suyuqligi ajratadigan qoramol organizmidan o‘t suyuqligi bilan 3 mg.ga yaqin mis ajraladi.

Mualliflarning ta’kidlashicha, sut tarkibidagi misning miqdori laktasiyaning davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘viz suti yoki laktasiyaning birinchi haftasida sut tarkibidagi mis miqdori laktasiyaning oxiridagi sutga nisbatan 5 marotaba ko‘p bo‘ladi. Lekin shunga qaramasdan uviz suti yoki sut tarkibidagi misning miqdori yangi tug‘ilgan hayvonlarning misga va shuningdek, temir, kobalt va marganesga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Shuning uchun yosh hayvonlar faqat sut bilan boqilganda ularda turli gipomikroelementozlar ko‘p qayd etiladi.

Kobalt. Kimyoviy xususiyatlara ko‘ra misga o‘xshash bo‘lib, asosan oziqalar orqali (nuxat, lavlagi tarkibida ko‘p bo‘ladi) organizmga tushadi. Ingichka ichaklardan ion holida tushgan kobaltning 20-40 foizi organizm tomonidan o‘zlashtiriladi. Sianokobalamin holidagi kobalt mukoprotein bilan birikma hosil qilgach, qonga so‘riladi. Keyin u alfa- va beta-globulinlar bilan birikib, jigar, buyraklar, taloq va boshqa a’zolarga o‘tadi.

Kavshovchi hayvonlarda kobalt katta qorinda mikroorganizmlar tomonidan B₁₂ vitamini sintezi uchun ishlataladi. Cho‘chqa, ot, qo‘yon va parrandalarda B₁₂ vitamini yo‘g‘on bo‘lim ichaklari mikroflorasi tomonidan sintezlanadi [85].

Ma’lumotlarga ko‘ra, oziqalar tarkibida kobaltning yetishmovchiligi akobaltoz kasalligiga sabab bo‘ladi. Kobalt uglevodlarning parchalanishi jarayonlarini stimullaydi, fosfoglyukomutazalar, yenolazalar va

aginazalarni faollashtiradi, oqsillar almashinushi va suyaklar fosfotazasi faolligini oshirish orqali fosforni suyaklarda to‘planishini kuchaytiradi. Kobaltning yetishmovchiligi B_{12} biosintezining yomonlashishi, B_{12} avitaminoziga sabab bo‘ladi [44].

Muallifning ta’kidlashicha, kobaltning biologik ahamiyati uning gemopoezni boshqaradigan B_{12} vitamini molekulasi tarkibiga kirishi bilan izohlanadi. Kobaltning organizmga ehtiyojdan kam miqdorda tushishi B_{12} vitaminining hazm kanalida mikrobial sintezining yomonlashishiga sabab bo‘ladi. B_{12} vitamini faqatgina mikroorganizmlar tamanidan sintezlanadigan yagona vitamin hisoblanadi. B_{12} (siankobilamin) vitaminining yetishmovchiligi gemopoezning buzilishi, makrositar va megaloblastik gipoxrom anemiyalarga sabab bo‘ladi. B_{12} vitaminining tanqisligi folat kislotasini uning faol shakli hisoblangan tetragidrofolat kislotasiga aylanishini qiyinlashtiradi, natijada qon ishlab chiqaruvchi hujayralarda DNK sintezi izdan chiqadi. Eritroblast va normoblastlarning bulinishi va yetilishi kechikadi, to‘qima va a’zolarda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari izdan chiqadi [42].

Kobalt organizmda azot, nuklein, uglevod va minerallar almashinuviga ta’sir ko‘rsatadi, transmetillanish reaksiyalarida qatnashadi, arginaza, karbongidraza, aldolaza, ishqoriy fosfataza kabi fermentlarni faollashtiradi. U mikrobial oqsillar sintezi uchun zarur hisoblanadi. Shuning uchun kobaltning yetishmovchilida oziqalar tarkibidagi proteinning hazmlanishi yomonlashadi va oqibatda manfiy azot balansi rivojlanadi, organizmdagi zahira oqsillarning zo‘r berib ishlatilishi oqibatida kuchli ariqlash («suxotka») kuzatiladi. Kobalt osteogen mikroelement hisoblanadi, ya’ni suyaklarning rivojlanishida ishtirok etadi, shuning uchun kobaltning yetishmovchilida osteodistrofiya rivojlanadi [102].

Muallifning [52]. ta’kidlashicha, kobalt hayotiy muhim va fiziologik faol element hisoblanib, qon hosil bo‘lishi hamda modda almashinuvlarida qatnashadi. Kobalt B_{12} vitaminining endogen sirtezida asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning tarkibida Co^{3+} holida bo‘ladi. B_{12} vitamini gemoglobin sintezida qatnashadi.

Kobaltning tuproq tarkibidagi miqdori $2.10^{-6}\%$ ni tashkil etganda qoramol va qo‘ylar orasida kobalt yetishmovchiligi kuzatiladi. Kasallik endemik xarakterga ega bo‘lib, ratsionga qo‘srimcha ravishda kobalt tuzlari berilganda hayvonlarning sog‘ayishini ta’minlaydi. Kobaltning organizmga ta’siri nafaqat gemopoez, balki uglevod va yog‘lar almashinushi, organizmning ko‘payishi va o’sishiga ta’siri bilan izohlanadi.

Insonlarda kobaltning qondagi miqdori 43,3 dan 354 mkg/l⁻¹ gacha bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich yilning fasllari bilan bog‘liq bo‘lib, kobaltning qondagi miqdori meva-sabzavotlarni ko‘p iste’mol qilinishi tufayli yoz oylarida yuqori bo‘ladi [121].

Kobalt yetishmovchiligi oqibatida suyaklarning organik va mineral qismlarining sintezi jarayonlari izdan chiqadi va hayvonlarda osteodistrofiya rivojlanishiga sabab bo‘ladi [45].

Kobalt, rux, marganes, mis, molibden mikroelementlari moddalarning oraliq almashinuvida ishtirok etuvchi biologik faol moddalarning hosil bo‘lishida qatnashuvchi fermentlar tarkibini tashkil etadi, yod, kobalt, molibden, rux, nikel, mis elementlari esa qator gormonlar sintezi uchun zarur elementlar hisoblanadi [100, 119].

Qoramollarda kobalt elementining yetishmovchiligi avitaminozlar paytidagidek, modda almashinuvlarining buzilishi, ishtahaning pasayishi, ich qotishi yoki ich ketishi, anemiya rivojlanishi, mahsuldorlik va semizlik darajasining keskin kamayishi (suxotka), ona hayvonlardan nimjon va hayotchanligi past bola tug‘ilishi bilan xarakterlanib, kobaltning yetishmovchiligi asosan qishlov davrida yaqqol namoyon bo‘ladi [73].

Marganes. Mualliflarning [85] ma’lum qilishicha, marganes eritropoez va shuningdek, qon ishlab chiqarishning boshqa zvenolarini, gemoglobin sintezini stimullaydi, hayvonlarning o’sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, jinsiy a’zolar o’sishi va rivojlanishi hamda reproduktiv funksiyalarining me’yorida kechishini, sut berish va hayvonlar hayotiy tonusining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Ratsionda kalsiy va fosfor ortiqcha bo‘lganda hayvonlarning marganesga bo‘lgan ehtiyojlari ortadi. Shuningdek, ratsionda temirning ortiqcha bo‘lishi ham marganesning hazmlanishini qiyinlashtiradi.

Mualliflarning [44] ma’lumotlariga ko‘ra, marganes oksidlanishli-fosforillanish jarayonlarida aktivator vazifasini bajaradi va fosfoglyukomutazalar, yenolazalar, fosfofruktokinzalar kabi fermentlar tarkibiga kiradi. Marganesning yetishmovchiligiga ayniqsa parrandalar sezgir hisoblanib, ularda oyoq suyaklari va qanolarning deformasiyasi kuzatiladi. Hayvonlarning marganesga nisbatan sutkalik ehtiyoji oziganing 1 kg quruq moddasida 40-60 mg.ni tashkil etadi.

Marganes yetishmaganda yog‘lar, uglevodlar va oqsillarning oksidlanish jarayonlari yomonlashadi, organizmda to‘liq oksidlanmagan almashinuv mahsulotlari (keton tanachalari), pirouzum kislotasi to‘planib qoladi. Jigarning yog‘li distrofiyasi rivojlanadi, tuxumlarda follikulalarning yetilishi buziladi, ovulyasiya kechikadi, qochirishning samaradorligi pasayadi, bola tashlash hollari ko‘payadi. Erkak hayvonlarda

spermaning miqdori va spermatozoidlarning harakatchanligi kamayadi [102].

Marganes hayvonlar organizmi uchun muhim bo‘lgan bir qancha fermentativ jarayonlarni faollashtiradi, pruvatkarboksilaza va arginaza fermentlari tarkibiy qismini tashkil etib, biologik tizimlarda Mn^{2+} va Mn^{3+} ko‘rinishida ishtirok etadi. Mn^{2+} iorlari kofaktor sifatida peptidazalarni faollashtiradi. Marganes izolimon va olma kislotalarining degidrogenazalari va pirouzum kislotasi dekarboksilazalarining faollahishi, tog‘ay to‘qimasi glikozamin-glikanlarining sintezi, eritropoez va gemoglobin sirtezi uchun zarur hisoblanadi. Margayens xolesterin va yog‘ kislotalarining sintezini stimullash orqali lipotrop ta’sir ko‘rsatadi [52].

Marganes o‘simliklar fermentlari tarkibiga kiradi, fotosintez faoliyatini ko‘chaytiradi va oqsillar hosil bo‘lishida qatnashadi. Marganesning tuproqdagi o‘rtacha miqdori 0,085 foizni, O‘rta Osiyoning bo‘z tuproqlarida esa 0,06-0,07 foizni tashkil etadi. Ishqorli va karbonatli tuproqlarda marganges kam harakatchan shaklda bo‘lganligi sababli bunday tuproqlarda o‘simliklar uchun uning yetishmovchiligi uzatiladi [95].

Hayvonlarda marganes yetishmovchiligi oqibatida oshqozon osti bezi Langergans orolchalari sonining kamayishi, parrandalarda suyak hosil bo‘lishining buzilishi (peroz, xondrodistrofiya) qayd etiladi. Marganesning ortiqchaligida esa uning suyaklardagi konsentrasiyasining ortishi xuddi raxit paytidagidek, suyak to‘qimasining o‘zgarishlariga (marganesli raxit) sabab bo‘ladi. Marganesning suyak to‘qimasiga bunday ta’sirini uning ishqoriy fosfotaza fermentini faollashtirishi va suyaklar matrisasida kislotali glikozaminoglikanlar sintezining kuchayishi bilan izohlash mumkin. Marganesning anorganik birikmalari hazm kanali orqali qonga juda kam miqdorda so‘riladi [127].

Marganesning tanqisligi jigarda destruktiv o‘zgarishlarning kuzatilishi va a’zoda yog‘larning to‘planib qolishi bilan kechadi. Katta yoshdagи hayvonlarda E vitamini yetishmovchiligiga o‘xhash patologiya rivojlanadi, ya’ni ko‘payish xususiyatlari yomonlashadi, ovulyasiya kechikadi va kuyikish me’yorida kechmaydi. Shuning uchun ratsionda marganesning tanqisligi kuzatiladigan xo‘jaliklarda sigirlarning qisir qolishi, ulardan hayotchanligi past bola tug‘ilishi, mahsuldorlikning kamayishi ko‘p qayd etiladi [73].

Rux. Mualliflarning [44] ma’lumotlariga ko‘ra, rux kokarbaksilazalar, karboksipeptidazalar, alkogol-degidrogenazalar kabi kofermentlar tarkibiga kiradi, gipofiz bezi garmonlari va jinsiy garmonlar

faolligini oshiradi. Karbongidraza fermenti va insulin garmoni tarkibiga kiradi va shuning uchun uglevodlarning oraliq almashinuvida muhim ahamiyatga ega. Hayvonlarning ruxga nisbatan sutkalik ehtiyoji oziqaning 1 kg quruq moddasida 40-80 mg.ni tashkil etadi.

Rux organizmga asosan oziqalar oqsillari bilan birikmalar holida tushadi. Boshqoli, dukkakli ekinlar donlari va kepagi, quruq achitqilar, go'sht-suyak uni rux elementiga boy oziqalar hisoblanadi. Oziqalar bilan hazm kanaliga tushgan rux oziqalarning hazmlanishi jarayonlarida ajralib chiqadi va qabul qilingan ruxning 15 foizga yaqini asosan ingichka bo'lim ichaklarida qonga so'riladi. Tarkibida ko'p miqdorda fitin kislotasi saqlaganligi uchun ratsionda donli oziqalar ortiqcha bo'lganda, shuningdek, kalsiy ortiqcha va A, D, B₁, B₆ vitaminlari yetishmaganda ham ruxning so'rilishi qiyinlashadi. Qonga so'rilib o'tgan ruxning asosiy qismi jigar, taloq, oshqozon osti bezi, suyaklar va boshqa a'zolarga zahira holida to'planadi. Qondagi rux oqsillar bilan mustahkam va kuchsiz bog'langan holda hamda eritrositlarda (karboangidrazalar tarkibida) bo'ladi.

Rux to'qimalardagi 70 dan ortiq fermentlar tarkibiga kiradi va ularni faollashtiradi. Shuningdek, karboangidrazalar, pankreatinli karboksipeptidazalar, dipeptidazalar, proteazalar, dekarboksilazalar, digedrogenazalar, ishqoriy fosfotazalar, termolizin, DNK- va RNK-polemerazalar, arginazalar, endolazalar kabi fermentlarning tarkibiy qismi sifatida ularning me'yorida faoliyat ko'rsatishi uchun hisoblanadi [85].

Organizmda ruxning yetishmovchiligi oksidlanish jarayonlarining buzilishi, oqsillar sintezining, o'sish va rivojlanishning sekinlashishi, jinsiy yetilishning kechikishi, ya'ni urug'donlarning to'liq yetilmasligi, urug' hosil bo'lishning to'xtashi va kuyga kelishning kechikishiga sabab bo'ladi. Bo'g'oz ona hayvonlar ratsionida rux elementining tanqisligi ulardan nimjon bola tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ruxning yetishmovchiligidida suyaklarning rivojlanishi, epidermis hujayralarining shoxlanishi susayadi. Shoxsimon qavatda yadroli, lekin donadar qavati bo'limgan hujayralarning paydo bo'lishi (parakeratoz) xarakterli bo'ladi [102].

Qondagi ruxning 75 foizga yaqini eritrositlar tarkibida bo'lib, gemoglobinga karbonat angidritni birikishi va ajralishini boshqaruvchi ferment tarkibiga kiradi. Rux urug'donlar va qo'shimcha jinsiy bezlar sekretining asosiy komponenti hisoblanadi. Oshqozon oldi bo'limlari va yug'on bo'lim ichaklaridagi mikrofloralarning hayot-faoliyati oziqalar tarkibidagi ruxning miqdori bilan bog'liq. Organizmda ruxning yetishmovchiligi oksidlanish jarayonlarining va oqsillar sintezining izdan

chiqishi, rivojlanish va o'sishning yomonlashishi, jinsiy voyaga yetishning kechikishi, jinsiy bezlarning yaxshi rivojlanmasligi, o'rug' hujayralari yetilishining va kuykishning to'xtashiga sabab bo'ladi [45].

Ratsionda ruxning yetishmovchiligi hayvonlarda o'sishning to'xtashi, teri va teri qoplamasi va qonning shaklli elementlarining potologik o'zgarishlari va reproduktiv xususiyatlarning yomonlashishiga sabab bo'ladi. Rux fermentlar, gormonlar bilan aloqadorlikda organizmdagi qon hosil bo'lishi, ko'payish, organizmning rivojlanishi va o'sishi, uglevodlar, oqsillar va yog'lar almashinushi, oksidlanish - qayta tiklanish reaksiyalari, energiya almashinushi kabi hayotiy muhim jarayonlarda qatnashadi [99, 104, 122].

Mualliflarning [69,73] ta'kidlashicha, organizmda ruxning yetishmovchiligi hayvonlarning o'sishdan qolishi va kuchli ariqlashi bilan kechadi. Hayvonlar kuchli quzg'algan holatda bo'lib, tez charchaydi, teri qoplamasi dag'allashgan, rangsizlashgan, tananing ayrim qismlarida junlarning tushib ketishi, qozg'oq paydo bo'lishi, dermatitlarning kuzatilishi, epidermis qavatining qalinlashishi, teri va shilliq pardalarning shishi bilan xarakterlanadigan o'ziga xos o'zgarishlar (parakeratoz) rivojlanadi.

Muallifning ma'lumotlariga ko'ra, ratsionda ruxning so'rilihini qiyinlashtiradigan kalsiy elementining ortiqcha bo'lishi kasallikning og'ir kechishiga sabab bo'ladi.

Ruxning yetishmovchiligi hayvonlarning o'sishdan qolishi va kuchli ariqlashi bilan kechadi. Hayvonlar kuchli quzg'algan holatda bo'lib, tez charchaydi, teri qoplamasi dag'allashgan, rangsizlashgan, tanuning ayrim qismlarida junlarning tushib ketishi, qozg'oq paydo bo'lishi, dermatitlarning kuzatilishi, epidermis qavatining qalinlashishi, teri va shilliq pardalarning shishi bilan xarakterlanadigan o'ziga xos o'zgarishlar (parakeratoz) rivojlanadi [15, 39].

Mualliflarning [52] ma'lum qilishicha, ruxning biokimyoviy ahamiyati fermentativ jarayonlar bilan bog'liq, chunki u qator hayotiy muhim fermentlar (ishqoriy fosfataza, karbonat-degidrataza, fruktozadisfosfat-aldolaza va b.) tarkibiga kiradi. Rux nuklein kislotalar almashinushi va oqsillar sintezida qatnashadi.

Ratsionda ruxning yetishmovchiligi hayvonlarda o'sishning to'xtashi, teri va teri qoplamasi va qonning shaklli elementlarining potologik o'zgarishlari va reproduktiv xususiyatlarning yomonlashishiga sabab bo'ladi. Rux fermentlar, garmonlar bilan aloqadorlikda organizmdagi qon hosil bo'lishi, ko'payish, organizmning rivojlanishi va o'sishi, uglevodlar, oqsillar va yog'lar almashinushi, oksidlanish - qayta

tiklanish reaksiyalari, energiya almashinuvi kabi hayotiy muhim jarayonlarda qatnashadi.

Bo‘g‘oz hayvonlar ratsionida ruxning yetishmovchiligi homilaning rivojlanishiga salbiy ta’sir etib, nimjon bola tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Ruxning oziqalarda va bo‘g‘oz sigirlar organizmida yetishmovchiligi yangi tug‘ilgan buzoqlar qon zardobida immun oqsillar miqdorining kamayishi hamda ularning diareya kasalligiga moyilligining ortishiga sabab bo‘ladi [45].

Insonlarda rux yetishmovchiligi o‘sishning va jinsiy voyaga yetishning juda sekinlashishi, kamqonlik, jigar va taloq funksiyalarining yetishmovchiliklari bilan kechadi [57].

Og‘iz orqali ovqat hazm qilish traktiga tushgan ruxning so‘riladigan qismi qo‘ylarda 0,1-0,2, buqachalarda 0,03-0,1 foizga teng. Anemiya bilan kasallangan sichqonlarda hazm trakti orqali ruxning so‘riliishi me’yorga nisbatan 1,6 marta ko‘p bo‘ladi, ya’ni anemiya paytida temirning yetishmovchiligi ruxning organizmdan chiqarilishini emas, balki so‘riliishini kuchaytiradi [111].

Oshqozon osti bezi suyuqligi tarkibidagi ruxning miqdori uning qondagi miqdoridan o‘rtacha 35 marta ko‘p bo‘ladi. Bu holat rux ionlarining oshqozon osti bezidagi fermentativ jarayonlarda bevosita qatnashishidan dalolat beradi. Rux organizmdan asosan tezak bilan, juda kam miqdorda siydik bilan ajraladi. Rux ichakka asosan oshqozon osti bezi suyuqligi va qisman o‘t suyuqligi orqali tushadi. Rux xlorid holida ($^{65}\text{ZnCl}_2$) sigirlarga berilgan ruxning 13 foizi sut bilan bir hafta davomida ajraladi [122].

Bo‘g‘oz hayvonlar ratsionida ruxning yetishmovchiligi homilaning rivojlanishiga salbiy ta’sir etib, ulardan nimjon bola tug‘ilishi, yangi tug‘ilgan buzoqlar qon zardobida immun oqsillar miqdorining kamayishi hamda ularning diareya kasalligiga moyilligining ortishiga sabab bo‘ladi [113, 123].

Temir. Hayvonlar organizmining temirga bo‘lgan extiyoji asosan iste’mol qilinadigan oziqalar hisobiga qondiriladi. Ko‘pincha yosh hayvonlarda temir elementining yetishmasligi qayd etilishi mumkin, chunki sut bilan organizmga tushayotgan temir elementining miqdori jadal o‘sayotgan organizmning elementga bo‘lgan talabini qondira olmaydi. Shuning uchun kasallik cho‘chqa bolalarida «temir taqchilligi anemiyasi» deb ataladi.

Fermentlar murakkab tuzilishga ega oqsillar hisoblanib, ularning ko‘pchiligi tarkibida oqsil xususiyatiga ega bo‘lmagan moddalar saqlaydi, qaysiki ular fermentlarning “prostetik guruhlari” deb ataladi. Ular B guruhi

vitaminlari, temirning gemorganik birikmalari va ikki valentli metallar - mikroelementlardan iborat bo‘ladi.

Temir organizmda asosan gemoglobin tarkibida temir saqlovchi organik brikmalarning sintezlanishi uchun sarflanadi, uning yetishmovchiligidagi anemiya (kamqonlik) kasalligi yuzaga keladi.

Ko‘pchilik og‘ir metallar hayvonlar organizmida juda oz miqdorda bo‘lib, mikroelement sifatida uchraydi. Faqatgina temir bundan istisno bo‘lib, uning organizmdagi umumiy miqdori o‘rtacha 4-5 g ni tashkil etadi. Temirning asosiy qismi (70-75%) qonda, ya’ni gemoglobin tarkibida, qolgan qismi esa ferritin, transferin, gemosedrin kabi holatlarda zahira holida, hamda ayrim fermentlar (katalaza, sitoxromoksidaza) tarkibida bo‘ladi.

Temir nafas pigmentlari, shu jumladan gemoglobin tarkibiga kirib, to‘qimalarga kislородни yetkazib berilishi va ularga o‘tishi jarayonlarida qatnashadi; qon ishlab chiqaruvchi a’zolar funksiyasini stimullaydi; anemiya va boshqa patologik holatlarda davolovchi vosita sifatida ta’sir etadi.

Temirning asosiy manbai oziqalar hisoblanib, suvlar tarkibida juda kam miqdorda bo‘ladi. Oziq-ovqatlar tarkibida temir turli xil komplekslar shaklida bo‘ladi. O‘simliklar dunyosidan olingan mahsulotlarda organik kislotalar, uglevodlar, oqsillar bilan unchalik mustahkam bo‘lmagan kompleklar holida, hayvonlar organizmida qon gemoglobini, muskullar mioglobini, ferritin, jigar gemosiderini holida bo‘ladi.

Tuzlar holidagi temir ichaklarda oziq ovqatlar tarkibidagi organik birikmalar holidagi temirga nisbatan yengil so‘riladi. Ratsionda hayvonot olami oqsillari yetarli miqdorlarda bo‘lganda temirning so‘rilishi sezilarli darajada ko‘payadi.

Ta’kidlashicha, temir yetishmaganda birinchi navbatda qizil ilikda qon shaklli elementlarining hosil bo‘lishi jarayoni buziladi. gemoglobin sintezi susayadi va uning eritrositlar tarkibidagi konsentrasiyasi pasayadi. Eritropoezning susayishi oqibatida gipoxrom anemiya, oksidlanish va qaytarilish jarayonlarining chuqur buzilishlari kelib chiqadi. Kislород tanqisligi rivojlanadi. qonda to‘liq oksidlanmagan mahsulotlarning to‘planib qolishi oqibatida asab, yurak qon tomir va boshqa tizimlarning funksiyasi buziladi. Umumiy gipoksiya jarayonining kompensasiyalanishi sifatida pul’s tezlashadi, yurakning minutlik hajmi ortadi va yurak muskullarining gipertofiyasi rivojlanadi. To‘yimli moddalarning hazmlanishi buziladi [94].

Selen. Organizmga selen asosan oziqalar orqali tushadi. Uning oziqlardagi miqdori o‘rtacha 0,4-0,8 mg/kg ni tashkil etadi.

Kavshovchilarda oshqozon oldi bo‘limlaridagi hazmlanish jarayonlarida selenning qiyin eriydigan birikmalari hosil bo‘ladi. Bir qism selen katta qorindagi mikrofloralar ta’sirida selenosistin va selenometoninga aylanadi, ya’ni so‘riladigan shaklga o‘tadi. Selenning asosiy qismi ingichka bo‘lim ichaklarda so‘riladi.

Turli hayvonlarda qondagi selenning miqdori o‘rtacha 5-18 mkg% ni tashkil etib, uning 70 foizi eritrositlarda saqlanadi. Qon plazmasidagi selen albuminlar bilan birikkan holda bo‘ladi. Qonga so‘rilib o‘tgan selen jigar, taloq, oshqozon osti bezi, suyak to‘qimasi, muskullar va boshqa a’zolarda proteinlar tarkibiga birikkan holda to‘planadi va u yerlardan fiziologik jarayonlarning kechishi uchun sarflanadi [85].

Selen tarkibida oltingugurt saqlovchi birikmalar: glyutation, timin, biotin vitaminlari tarkibiga kiradi. Hujayralarda mitoxondriyalar, mikromiomalar va yadrovi tarkibida bo‘ladi. Selen E vitaminiga o‘xshash antioksidant xususiyatiga ega. Glyutationperoksidaza fermentining tarkibiy qismi hisoblanadi va uning tarkibida turib to‘qimalarda hosil bo‘ladigan perikslar kabi zaharli mahsulotlarni parchalaydi, yog‘ hujayralarini oksidlanishdan saqlaydi.

Selen asetillanish reaksiyalari jarayonida kislotali qoldiqlarning faollashishi va tashilishini ta’minlovchi A-kofermenti sintezida va kislotali qoldiqlarning boshqa bir qancha fermentativ almashinuvlarida qatnashadi. Bir necha hujayraviy nafas reaksiyalari, yog‘ kislotalarining biosintezi va oksidlanishi, oksidlanishli-fosforillanish jarayonlari selenning ishtirokida kechadi, u hujayralar va shuningdek, hujayraning ichki membranasi o‘tkazuvchanligini o‘zgartiradi [85].

Mualliflarning ta’kidlashicha, fiziologik miqdorlarda organizmga tushgan selen buzoq va qo‘zilarda muskullarning, cho‘chqalarda jigarning, parrandalarda markaziy asab tizimining strukturaviy-fiziologik to‘la qimmatliligini ta’minlaydi, shuningdek, yurak mushaklari, tomirlar devori, jinsiy a’zolar, jinsiy faoliyat, homila rivojlanishining to‘la qimmatliligini ta’minlaydi, eritrositlar rezistentligini oshiradi. Selen hayvonlarning o‘sishini stimullaydi. U ko‘zning to‘r pardasidagi fotokimyoiy jarayonlarda qatnashadi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, selen - antioksidant ta’sirga ega bo‘lib, geminlanmagan temirni oksidlanishdan saqlaydi va organizm immunobiologik faolligining ortishini ta’minlaydi. Ratsionda selenning yetishmovchiligi hayvonlarda “oq mushak” kasalligiga sabab bo‘ladi. Hayvonlarning selenga bo‘lgan sutkalik ehtiyoji oziqaning 1 kg quruq moddasida 0,1 mg.ni tashkil etadi [44].

Selenning yetishmovchiligidagi to‘qimalarda havo almashinuvni sekinlashadi, ayrim oksidlanish jarayonlarida qatnashuvchi fermentlar (suksinatdegidrogenaza) faolligi pasayadi, selenogemoglobin hosil bo‘ladi. Selen jigar, buyraklar, junlar, tuyeqning shox qavatida to‘planib qoladi va a’zolarning distrofiyasi, shoxning deformasiyasi va yumshab qolishiga sabab bo‘ladi [102].

Selen yetishmovchiligi kasalligining rivojlanishi selen elementi va E vitaminining yetishmovchiligi hamda organizmda perekislarning to‘planishi bilan bog‘liq. Chunki E vitamini ularning hosil bo‘lishini sekinlashtiradi, selen glyutationperoksidazalar tarkibida turib perekislarning parchalanishini ta’minlaydi. Selen va E vitamini yetishmovchiligidagi organizmda to‘liq oksidlanmagan almashinuv mahsulotlari to‘planib qoladi, lipidlarning erkin-radikalli oksidlanishi izdan chiqadi, hujayralar uchun zaharli hisoblangan vodorod peroksid va kislorod anionlari ortiqcha miqdorda to‘planib qoladi va oqibatda jigarning yog‘li infiltrasiyasi, gavda va yurak muskullarida destruktiv o‘zgarishlar rivojlanadi. Kasallik qon zardobida glutationiyeroksidazalar, amilazalar faolligining pasayishi va alaninaminotransferazalar va laktatdegidrogenazalar faolligining, alfa- va beta-globulinlar miqdorining ortishi bilan kichadi [45].

Yod. Ma’lum qilishicha, yodning organizmdagi ahamiyati bir qancha fiziologik jarayonlarni gumoral boshqarishda qatnashadigan terioid garmonlarning sintezi va almashinuv bilan bog‘liq. Bu garmonlar organizmdagi barcha tizimlar funksiyalarini boshqarishda, to‘qimalarning o‘sishi va tabaqalanishi, kislorodning o‘zlashtirilishi, markaziy va periferik asab tizimi holati, metabolizmning kechish jadalligi, issiqlik hosil bo‘lishi, yog‘lar, uglevodlar, oqsillar, vitaminlar, suv va bir qancha elektrolitlar almashinuvida faol ishtirok etadi [52].

Mualliflarning ta’kidlashicha, endemik bo‘qoqning etiologiyasida yod tanqisligi bilan birgalikda ikkilamchi biogeokimiyoviy omillar, ya’ni ayrim elementlarning tashqi muhitda va organizmda o‘zaro nisbatlarining buzilishi ham muhim ahamiyatga ega, kasallikning tarqalishi bilan tashqi muhitning fтор, brom, kalsiy, marganes, kobalt, stronsiy, rux, molibden, xrom, mis, simob kabi elementlar bilan ifloslanishi o‘rtasida o‘zaro korrelyativ bog‘liqlik mavjud [10, 19, 110].

Yod organizmgaga asosan oziqalar, suv va qisman nafas havosi orqali tushadi. O‘simliklarda yod juda kam miqdorlarda (yashil o‘tlarda - 400 mkg/kg, ildizmevalilarda -500, donlarda - 300 mkg/kg gacha), suv tarkibida o‘rtacha 0,2-2 mkg/l gacha bo‘ladi. Hayvonot olami oziqalari,

ayniqsa, baliq uni yodga boy hisoblanadi. Oziqalarni saqlashda tarkibidagi yodning 30-50 foizga yaqin qismi parchalanib ketadi.

Oziqalarning hazmlanishi jarayonlarida yodning organik birikmalari yoditlar holigacha qayta tiklanadi va shu ko‘rinishda asosan ingichka bo‘lim ichaklarida qonga so‘riladi. Ratsionda kalsiy, magniy, temir va stronsiy ortiqcha bo‘lganda yodning so‘rilishi qiyinlashadi. Yod qondan turli to‘qima va a’zolarga o‘tadi va uning asosiy qismi (17-60%) qalqonsimon bezda to‘planadi va u yerda yodidlar ko‘rinishidan yodidaza fermentlari ta’sirida molekulyar yod holatiga o‘tadi. Molekulyar yod qalqonsimon bezda tirozin aminokislotsasi bilan birikib, mono- va diyodtirozinlar hosil bo‘ladi, keyinchalik, ulardan qalqonsimon bezning garmonlari triyodtironin (T_3) va tetrayodtironin (T_4 -tiroksin) sintezlanadi. [85].

[82]. Terioid garmonlarning hujayraviy va subhujayraviy darajadagi modda almashinuvida qatnashishi ularning mitoxondriyalarda modda va energiya almashinuviga ta’siri bilan bevosita bog‘liq. Tiroksin elektronlarni mitoxondriyalar zanjiriga o‘tkazilishida ATP sintezini to‘xtatib qo‘yish xususiyatiga ega. Ya’ni gazlar almashinuvi va fosforillanuvchi-oksidlanish jarayonlarining mutanosibligini izdan chiqaradi [82].

Endemik bo‘qoqning kelib chiqishida biogeoximyaviy hududlarda yodning juda kam miqdorlarda uchrashi va shuningdek, elementning tuproqning juda chuqur qismida joylashishi, hamda kislotali va ohakli tog‘li hududlarning keng tarqaganligi, tog‘ relyefi, joyning sersuvligi, qattiq suvlardan foydalanish, tuproqda marganesning ortiqchaligi va kobalt hamda molibdenning yetishmasligi ham muhim rol o‘ynaydi [4].

Farg‘ona vodiysida 2010 yilga kelib aholining endemik buqoq bilan kasallanish darajasi 39,9% gacha kamaygan bo‘lsada, bu ko‘rsatkich dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha yuqoriligidcha qolmoqda [35].

I.P. Kondraxin va boshqalarning (1985) ta’kidlashicha, yodning yetishmovchiligi yosh hayvonlarning o‘sishdan qolishi va katta yoshdagil qoramollarda buqoq kasalligiga sabab bo‘ladi. Hayvonlarning yod elementiga bo‘lgan sutkalik o‘rtacha ehtiyoji oziqaning 1 kg quruq moddasida 0,4 mg.ni tashkil etadi. Yod ingichka bo‘lim ichaklarida yodidlar holida so‘riladi va asosan buyraklar orqali (80%) tashqariga ajraladi. Shuningdek, kam miqdorda ichaklar, teri, o‘pka va sut bezlari orqali ajratiladi.

ENDEMIK MIKROELEMENTOZLARNING ETIOPATOGENEZI

Hayvonlar uchun oziqalar yetishtiriladigan maydonlar kartogrammalarini o‘rganilmaganligi, tuproqlarning sho‘rlanishi va mineral o‘g‘itlardan stexiyali tarzda foydalanish endemik kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, oziqa ekinlari yetishtiriladigan maydonlarga fosforli o‘g‘itlarni ortiqcha ishlatilishi hayvonlar organizmi tomonidan rux elementining o‘zlashtirilishini yomonlashtiradi, azotli o‘g‘itlarning me’yordan ortiqcha ishlatilishi esa organizmda kalsiy, mis va magniy elementlari almashinuvining buzilishi va shuningdek, anemiya kasalligiga sabab bo‘ladi.

Ekologik jihatdan asoslangan tarzda oziqa yetishtirish, saqlash va qayta ishslash hayvonlarning kasalliklarini oldini olish, ularning mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Aksincha, «tabiiy oziqaviy zanjir»ga insonlarning ekologik jihatdan asoslanmagan tarzdagi ta’siri hayvonlarning makro- va mikroelementozlar bilan kasallanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Makro- va mikroelementozlar tuproq, suv va havoni turli xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi, ratsionlarning kalsiy, fosfor, yod, kobalt, mis va boshqa makro- va mikroelementlar bo‘yicha takomillashmaganligi oqibatida kuzatilishi mumkin. Biogeokimyoviy trofik zanjirni har tomonlama, uning boshlanishidan oxirigacha baholash endemik kasalliklarning etiologiyasini o‘rganish va ularning oldini olish usullarini ishlab chiqishda asosiy omillar hisoblanadi.

Hayvonlarda mikroelementozlarning etiologiyasi ko‘p jihatdan oziqlantirish tipi, ratsionlarning to‘yimli moddalar, biologik faol moddalar, mineral moddalar va ayniqsa mikroelementlar bilan ta’milanish darajasiga bog‘liq. Shuningdek, sug‘oriladigan yerlar kartogrammalarining yaxshi o‘rganilmaganligi va ularga rioya qilinmasligi hamda mineral o‘g‘itlarning keragidan ko‘p yoki kam miqdorda ishlatilishi asosiy omillar hisoblanadi. Masalan, tuproqlarda kalsiy ko‘p bo‘lganda marganes elementining o‘zlashtirilishi qiyinlashadi. Mineral o‘g‘itlar sifatida kalsiy va fosfor elementlarining ortiqcha ishlatilishi marganesning o‘zlashtirilishini qiyinlashtiradi. Fosforli o‘g‘itlar ortiqcha ishlatilganda rux kam o‘zlashtiriladi. Azotli o‘g‘itlarning ko‘p ishlatilishi mis yetishmasligiga olib keladi. Tarkibida yarimsulfidlar, sionogen va glyukozidlar saqlaydigan lavlagi, mosh, karam kabilarning hayvonlar ratsionida ortiqchamiqdorlarda bo‘lishi organizmda yod yetishmasligi, ya’ni bo‘qoq kasalligiga sabab bo‘ladi [101].

Hayvonlarni uzoq muddat bir joyda saqlash, qo'yosh nurlari va faol masionning yetishmasligi, ratsionlarning hayvonlar turi, fiziologik holati, mahsuldorligi bo'yicha takomillashmaganligi, ratsionda kislotali radikallar miqdorining ortiqcha miqdorlarda bo'lishi, qand-oqsil va mineral moddalar o'zaro nisbatlarining buzilishi kabi omillar ta'sirida moda almashinushi buzilishlari, shu jumladan, mikroelementzlarning polimorbid shaklda ya'ni, bir vaqtning o'zida bir necha mikroelementlarning yetishmasligi yoki ortiqchaligi (poligipomikroelementzlar) kuzatilishiga sabab bo'lmoqda [45].

Hayvonlar organizmining mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojlari asosan oziqalar va suv tarkibidagi mikroelementlar hisobidan qondiriladi. Mikroelementlarning oziqalar tarkibidagi miqdoriga qator omillar ta'sir ko'rsatadi, bu omillarga iqlim, yog'ingarchilik darajasi, mineral o'g'itlardan foydalanish hamda oziqa ekinlarining turlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, boshqoli ekinlarga nisbatan dukkakli oziqalar tarkibida mikroelementlar ko'proq bo'lishi aniqlangan.

Ma'lumotlariga ko'ra, qoramollarning enzootik osteodistrofiya kasalligi alohida hududlarda organizmga radionukleidlarning majmuaviy ta'siri hamda makro- va mikroelementlarning yetishmovchiligi oqibatida kelib chiqadi. Shuning uchun davolash-profilaktik tadbirlarini rejalashtirishda hududning biogeokimiyoviy xususiyatlarini hisobga olozim [18].

Ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston sharoitida ratsionning 1 kg quruq moddasidagi misning miqdori 3-4 mg.dan kam va molibden 1,5 mg.dan ortiqcha bo'lganda qoramollarning mis yetishmovchiligi bilan kasallanishi kuzatiladi [28].

Oziqalar [73] tarkibidagi mikroelementlarning eng kam va ortiqcha miqdorlari quyidagicha bo'ladi: (mg/kg, quruq moddada)

3-jadval

Kimyoviy elementlar	Yetishmovchiligi	Me'yoriy miqdori	Ortiqchaligi
Yod	0,07 gacha	0,08-1,2	0,8-2,0 va undan ko'p
Kobalt	0,1-0,25 gacha	0,25-1,0	1,1 va undan ko'p
Molibden	0,2 gacha	0,2-2,5	2,0-3,0 va undan ko'p
Mis	3,0-5,0 gacha	3,0-12,0	20-40 va undan ko'p
Rux	20-30 gacha	20-60	60-100 va undan ko'p
Marganes	20 gacha	25-60	60-70 va undan ko'p
Temir	25 gacha	25-30	-

Qoramollarda endemik osteodistrofiya ratsionda kalsiy va fosforning yetarli miqdorda bo‘lmasligi yoki ratsionda yetarli darajada bo‘lganda ham ularning hazm kanalidan so‘rilishining yomonlashishi oqibatida kelib chiqadi [36].

Ratsionda D va A vitaminlari, kobalt, yod, molibdin va rux yetishmaganda hamda stronsiy, bariy, nikel, ftor, titan, magniy, bor elementlari va organik kislotalar ortiqcha bo‘lganda kalsiy va fosforning buyrak orqali organizmdan tashqariga chiqib ketishi tezlashadi.

Ta’kidlashicha, gipokuproz organizmda misning yetishmovchiligi oqibatida kelib chiqadi va gemopoezning buzilishi, teri qoplamasi rangining o‘zgarishi hamda markaziy asab tizimida distrofik o‘zgarishlar kuzatilishi bilan xarakterlanadi. Kasallikning asosiy sababi to‘proq va o‘simliklar tarkibida misning harakatchan shakllarining yetishmovchiligi hamda molibden, oltingugurt, qo‘rg‘oshin, bor, kalsiy kabi misning hazmlanishini qiyinlashtiruvchi elementlarning ortiqcha miqdorda bo‘lishi hisoblanadi. To‘proqdagagi misning harakatchan shaklining optimal miqdori 2,5-4 mg/kg ni tashkil etib, 2,5 mg/kg gacha bo‘lganda yetishmaydi, 4 mg/kg dan ko‘p bo‘lganda esa ortiqcha - deb hisoblanadi [101].

Mualliflarning ta’kidlashicha, sanoat yaxshi rivojlangan hududlarda havoning gaz holidagi oltingugurt, kadmiy, molibden bilan yuqori darajada ifloslanishi, tarkibida ammiak va vodorod sulfidni ko‘p miqdorda saqllovchi azotli o‘g‘itlar va go‘nglarni ortiqcha miqdorda ishlatilishi oziqalar tarkibidagi mis miqdorining kamayishiga va oqibatda hayvonlarda mis yetishmovchiligi kasalligining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Oltingugurt, molibden, kadmiy, kalsiy, stronsiy va xromning ortiqcha miqdorda bo‘lishi qiyin eriydigan birikmalarining hosil bo‘lishi hisobiga misning so‘rilishini yomonlashtiradi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida yod elementining yetishmasligiga uning so‘rilishini qiyinlashtiradigan elementlardan kalsiy va magniyning tuproq, suv va o‘simliklar tarkibida ortiqcha bo‘lishi, kobalt, mis, marganes va ruxning yetishmasligi sabab bo‘ladi [68].

Ta’kidlashicha, hayvonlarning enzootik osteodistrofiya bilan kasallanishiga tuproq va oziqalar tarkibida marganes va kobalt elementlarining kam miqdorda bo‘lishi hamda nikel, magniy, stronsiy va bariyning ortiqchaligi sabab bo‘ladi. Ayrim hududlarda kasallikning sabablarida oziqalar va suv tarkibida yod, kobalt, rux, mis, marganes, molibdenning tanqisligi hamda xrom, nikel va vanadiyning ortiqcha bo‘lishi asosiy ahamiyatga ega [73].

Ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida qoramollarning gipokuproz bilan kasallanishi ratsionning 1 kg quruq moddasidagi misning

miqdori 3-4 mg.dan kam va molibden 1,5 mg.dan ortiqcha bo‘lganda kuzatiladi [28].

Mualliflarning ma’lum qilishicha, O‘zbekistonning yaylovlarida o‘simliklarning 1 kg quruq moddasida 0,4-0,5 mg.gacha kobalt mavjud bo‘lib, bu hayvonlarning ehtiyojlarini qondirsada, bo‘g‘oz sigirlar va yosh buzoqlar orasida gipokobaltoz rivojlanishi mumkin. O‘zbekistonning daryo uzanlari, Mirzacho‘l va Yozyovon cho‘li, Amudaryo deltasi va boshqa zonalaridagi yaylovlarning asosiy qismida molibden miqdori me’yorlardan ortiqcha bo‘lib, hayvonlarning sog‘ligiga yomon ta’sir qiladi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, enzootik buqoq surunkali kasalik bo‘lib, yod elementining yetishmovchiligi oqibatida qalqonsimon bezning giperplaziyasi yoki gipoplaziyasi, tireotrop garmonlar ishlab chiqarilishining kamayishi va moddalar almashinuvining izdan chiqishi bilan xarakterlanadi. Kasallik yodning miqdori to‘proq tarkibida 0,00001%, suv tarkibida 10 mkg/l.dan kam bo‘lgan hududlarda qayd etiladi. Kalsiy va fтор tuzlarining ortiqchaligi va hayvonlarga ko‘p miqdorda dukkakli soya, nuxat, oq beda, karam berilganda ham yod yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin [44].

Kuchli ohaklangan tuproqli hududlarda hayvonlar suti, juni tarkibida mis va yod elementlari to‘planishining kamayishi qayd etiladi. Bu hududlarda hayvonlarning yod yetishmovchiligi bilan kasallanishi 10-24 foizni tashkil etgan. [126].

Ma’lum qilishicha, Moskva oblastida buzoqlarning yod yetishmovchiligi bilan kasallanishi 30 foizga yetadi. Bunga tuproq va oziqalar tarkibida yod elementining yetishmovchiligi sabab bo‘ladi. Shuning uchun bo‘g‘oz sigirlar va yangi tug‘ilgan buzoqlarda yod saqlovchi preparatlarni qo‘llash bilan profilaktik tadbirlar o‘tkazilishi lozim [25].

Ta’kidlashicha, organizmning fiziologik ehtiyojlarining to‘liq qondirilishi uchun ratsionning 1 kg quruq moddasida 3-12 mg mis, 20-60 mg rux, 25-60 mg marganes, 0,06-1,2 mg yod, 0,3-1,0 mg kobalt va 0,5 mg selen bo‘lishi lozim [75].

Mualliflar, ratsionda mikroelementlar yetishmovchiligi kuzatilganda sog‘in sigirlar qonidagi misni 33-50, rux - 120-190, marganes - 12-17, kobalt - 0,5-3,0, yod - 3-5 mkg% ni, me’yorlashtirilgan ratsionlarda boqilgan klinik sog‘lom sigirlarda esa shunga mos ravishda 100, 350, 25,5 va 8 mkg% ni tashkil etganligini ma’lum qiladi.

Uzoq muddat mikroelementlarning yetishmasligi va organizmga ionlanuvchi radiasiyaning ta’siri birinchi navbatda mineral moddalar va A

vitamini almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatib, jigar, buyraklar va qalqonsimon bez funksional holatining yomonlashishi hamda immunokomponent hujayralar va a'zolar funksional faolligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Turli xil yoshdagi va fiziologik holatdagi qoramollarda oshqozon oldi bo'limlarining ikkilamchi distoniyalarning etiologiyasini o'rgangan.

Muallifning ma'lumotlariga ko'ra, ikkilamchi distoniyalarning etiologiyasida asosiy o'rinni hayvonlarda kuzatiladigan mikroelementozlar (38,8%), A va D gipovitaminozi (29,9%), gepatodistrofiya (11,7%) va kam darajada katta qorin asidozi (10,8) hamda ketoz (8,2%) egallaydi [85].

Ta'kidlashicha, qoramollar orasida endemik osteodistrofiya tuproqlarning fosfor kislotalari, kalsiy kobalt, marganes, yod elementlariga nisbatan kambag'al va stronsiy, bariy, nikel, ftor va bor ortiqcha bo'lgan regionlarda ko'p uchraydi. Shuningdek, endemik osteodistrofiya ultrabinafsha nurlar yetishmaganda qalqonoldi bezi funksiyalarining buzilishi, ratsion va suvning tarkibida yod, oqsillar, D, A, C va B guruhi vitaminlari yetishmaganda hamda magniy, sulfatlar, ftorli vodorod, kumir va boshqa kislotalar ortiqcha bo'lganda, natriy va kaliyni kalsiyga, kaliyni fosforga, fosforni magniyga, kobaltni nikelga, stronsiy va bariyni fosfor va kalsiyga nisbatlarining buzilishi oqibatida kelib chiqadi. [85].

Ma'lumotlariga ko'ra, enzootik osteodistrofiyaning kelib chiqishida tuproq va oziqalarda kobalt va marganesning yetishmasligi hamda nikel, magniy, stronsiy va bariyning ortiqchaligi asosiy etiologik omil hisoblanadi [36].

Oziqalar tarkibida marganes, yod, kobalt, rux, misning yetishmasligi oqibatida kalsiy va fosforning hazmlanishi va ularning siydik bilan ajralishi kuchayadi [42].

Ma'lum qilishicha, shimoliy-sharqiy Qozog'iston xududidagi ko'pchilik xo'jaliklarda qish-bahor fasllarida yangi tug'ilgan buzoqlarning dispepsiya bilan ommaviy tarzda (90% gacha) kasallanishi qayd etilib, ko'pchilik hollarda o'lim bilan tugaydi. Bunga bo'g'oz sigirlar organizmida mineral moddalar (kalsiy, fosfor, marganes, yod) almashinuvining buzilishi va oqibatda ulardan dispepsiya moyilligi yuqori bo'lgan buzoqlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi [47].

Yod yetishmaydigan biokimyoviy provinsiyalarda yuqori mahsuldor hayvonlarda moddalar almashinushi buzilishlari hamda organizm rezistentligining pasayishi ko'p qayd etilishini ta'kidlaydi [34].

Marganesning yetishmovchiligi qumloq, torfli, neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitli to'proqli biogeokimyoviy provinsiyalarda qayd etilib, oziqalar va suv tarkibida marganesning yetishmasligi kasallikka sabab

bo‘ladi. pH yuqori bo‘lganda to‘proqdagi marganesning o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilishi yomonlashadi. Marganesning yetishmovchiligi uzoq muddat bir xil turdagи oziqlantirishda ham kuzatiladi [101].

Ta’kidlashicha, qishlov davrida sigirlar ratsionida protein, kalsiy, karotin va mikroelementlarning (yod, kobalt, mis, rux va temir) yetishmasligi, qand-oqsil nisbatlarining past bo‘lishi (0,32-04:1) ularda yashirin holda kechuvchi oqsil, vitamin va mineral moddalar almashinushi buzilishi kasalliklariga sabab bo‘ladi [77].

Ta’kidlanishicha qoramolchilik fermer xo‘jaliklarida yuqori mahsuldor sigirlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvining buzilishi natijasidagi alimentar bepushtliklar 50-60 foizni tashkil etib, bepushtliklarning sababi ratsionda protein, qand, anorganik fosfor, karotinning yetishmasligi, qand oqsil nisbatining 0,44:1, fosfor kalsiy nisbatining - 0,49:2 gacha pasayishi va mosionning yo‘qligi bo‘lib hisoblanadi [124].

Endemik osteodistrofiya to‘proq va oziqalar tarkibida marganes va kobalt elementlarini yetishmasligi hamda nikel, stronsiy va bariy elementlarining ortiqchaligi oqibatida kelib chiqadigan kasallik bo‘lib, suyaklarda distrofik o‘zgarishlar (osteomalyasiya, osteoporoz, osteofibroz) kuzatilishi bilan xarakterlanadi [42].

Ma’lum qilishicha, hayvonlarga tarkibida gossipol moddasini ko‘p saqlovchi paxta shroti uzoq muddat davomida berilganda asosan gipoproteinemiya va gipoglikemiya bilan o‘tadigan modda almashinushi buzilishlari, shuningdek, hazm kanalida muhitning kislotali tomonga o‘zgarishi oqibatida makro- va mikroelementlar so‘rilishining yomonlashishiga sabab bo‘ladi. Bunda patalogik jarayonlar asosan jigarda o‘tadi [23].

Ma’lumotlariga ko‘ra, Tojikiston respublikasi sharoitida bo‘g‘oz sovliqlarda modda almashinushi buzilishi kasalliklari kuz va qish fasllarida asosan och qolish, ya’ni sovliqlar organizmining to‘yimli moddalar, vitaminlar (A, C), mikroelementlarga (kobalt, yod, marganes, mis, rux) bo‘lgan extiyojini to‘liq qondirilmamasligi oqibatida kelib chiqadi. Ratsionda qand-oqsil nisbatining pastligi va masionning yetishmasligi ikkilamchi etiologik omillar hisoblanadi [29].

Ta’kidlashicha, shimoliy Uralda enzootik osteodistrofiya bilan hayvonlarning kasallanishiga asosan tuproq va oziqalar tarkibida marganes va kobaltning yetishmasligi hamda nikel, magniy, stronsiy va bariy elementlarining ortiqchaligi sabab bo‘ladi. Boshqirdistonda kasallikning etiologiyasida tuproq, oziqalar va suv tarkibida yod, kobalt, rux, mis,

magniy va molibdenning tanqisligi va xrom, nikel, vannadiy elementlarining ortiqchaligi sabab bo‘ladi [36].

Yil qurg‘oqchilik kelganda kasallik kech qish paytlarida, ayniqsa bo‘g‘ozlikning ikkinchi yarmida avj oladi [5].

Ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston yaylovlarining asosiy qismida mis elementi miqdorining kamligi (o‘rtacha 3-5 mg/kg) tufayli bunday yaylovlarda boqiladigan kavshovchi hayvonlarda, ayniqsa o‘tlar qo‘rigan paytlarda mis yetishmovchiligi kuzatiladi. Hayvonlar achchiq va sho‘r suvlardan sug‘orilganda hamda tuproqda sulfatlar miqdori ortiqcha bo‘lganda kasallanish foizi yanada yuqori bo‘ladi [28].

Ma’lumotlariga ko‘ra, qo‘ylarda mis yetishmovchiligi (enzootik ataksiya) dunyoning ko‘pchilik davlatlarida (Avstraliya, Yangi Zellandiya, Peru, Islandiya, Britaniya, Shvesiya, Nederlandiya, Germaniya, Gresiya, Janubiy Afrika, Sobiq ittifoq davlatlari, Hindiston va AQSh) keng tarqalgan bo‘lib, ushbu davlatlar iqtisodiyotiga katta zarar yetkazadi. Kasallikning etiologiyasida tuproq va oziqalar tarkibida mis elementining yetishmovchiligi hamda molibden, sulfatlar, kadmiy, qurg‘oshin kabi antagonistlarining ortiqcha bo‘lishi asosiy o‘rinda turadi [114].

Bugungi kunda enzootik ataksiya sanoat yaxshi rivojlangan hududlarda tashqi muhitga har xil chiqindilarning ko‘plab chiqarilishi oqibatida atmosfera havosi va yaylovlarining ifloslanishi hisobiga tez-tez qayd etilmoqda.

Ta’kidlashicha, sigirlarda ketoz kasalligiga sabab bo‘ladigan omillar oqibatida ikkilamchi osteodistrofiya kelib chiqadi va ratsionda kalsiy, fosfor va boshqa mineral moddalar, protein hamda uglevodlarning yetarli bo‘lmasligiga bog‘liq emas. Hayvonlarning enzootik osteodistrofiya bilan kasallanishiga tuproq, oziqalar tarkibida marganes va kobalt elementlarining kam miqdorda bo‘lishi hamda nikel, magniy, stronsiy va bariyning ortiqchaligi sabab bo‘ladi. Ayrim hududlarda kasallikning sabablarida oziqalar va suv tarkibida yod, kobalt, rux, mis, marganes, molibdenning tanqisligi hamda xrom, nikel va vannadiyning ortiqcha bo‘lishi asosiy ahamiyatga ega [73].

Orolbuyi ekotizimida tuproq-iqlim sharoitlarining yomonlashishi Zarafshon vohasida parvarishlanayotgan qoramolar orasida endemik osteodistrofiya, gipokuproz, gipokobaltoz, alimentar anemiya, buqoq kabi endemik kasalliklarning ko‘p uchrashiga sabab bo‘lmoqda. Bu kasalliklar oqibatida oziqalar sarfining ortishi, mahsuldorlik va chorvachilik mahsulotlari oziqaviy qimmatining pasayishi, ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi, ulardan nimjon, hayotchanligi va nasliy

xususiyatlari past bola tug‘ilishi hamda ularning dispepsiya bilan kasallanishi hisobiga xo‘jaliklar katta iqtisodiy zarar ko‘rmoqda.

Respublikamizning yangicha tartibda va sharoitda ish yuritayotgan qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida bo‘g‘oz sigirlarning endemik xarakterdagi mikroelementozlarining (mis, kobolt, marganes, rux, yod kabi mikroelementlarning yetishmovchiligi) sabablari, kechish xususiyatlari, ularni ertachi aniqlash va oldini olish usullari hamda bo‘g‘oz sigirlardan tug‘iladigan buzoqlarning dispepsiya bilan kasallanishi orasidagi bog‘liqlik o‘rganilmagan.

Shuning uchun bo‘g‘oz sigirlar endemik mikroelementozlari-ning sabablarini, kechish xususiyatlari, diagnostikasi va differensial diagnostikasini o‘rganish, hayvonlarning endemik kasalliklarini o‘z vaqtida davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari chorvachilik fermer xo‘jaliklarida bo‘g‘oz sigirlarda dispanser tadqiqotlar o‘tkazilib, xo‘jaliklarning ekologo-biogeokimyoviy holati, oziqa ekinlari maydonlaridan olingan tuproq va oziqa na‘munalarining tarkibi va xususiyatlari o‘rganildi. Ratsionlar to‘yimligi va tarkibi bo‘yicha tahlil qilindi.

Ekologik holatning yomonlashishi, ekin maydonlari tuproqlarining sho‘rlanishi va tarkibining salbiy tomonga o‘zgarishi, hayvonlar uchun oziqalar yetishtiriladigan maydonlar kartogrammalarining o‘rganilmaganligi, mineral o‘g‘itlardan stexiyali tarzda foydalanish kabi texnogen va antropogen omillar Zarafshon vohasida parvarishlanayotgan hayvonlar orasida endemik xarakterdagi mikroelementozlarning ko‘p qayd etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Bo‘g‘oz sigirlarda endemik mikroelementozlarning sabablarini o‘rganish maqsadida Buxoro viloyati, Fijdivon tumanining «Zarafshon», Navoiy viloyati, Novbaxor tumanining M.Baxri va Samarqand viloyati, Pastdarg‘om tumanining «Jura» fermer xo‘jaliklarining ekologo-biogeokimyoviy holati o‘rganildi, oziqa ekinlari maydonlaridan olingan tuproq, suv, va oziqalar kimyoviy tarkibi va xususiyatlari o‘rganildi. Sigirlar ratsioni to‘yimliligi va tarkibi bo‘yicha zootexnikaviy tahlil qilindi.

Tuproq namunalarining kimyoviy tarkibini laborator tekshirish shuni ko‘rsatdiki, barcha xo‘jaliklardagi tuproqlarda sulfatlarining (SO_4^{2-}) ortiqchaligi kuzatilib, eng yuqori ko‘rsatkich 1-xo‘jalikda va eng past ko‘rsatkich 3-xo‘jalikda tashkil etdi. Tuproqdagi xlor ionlari ko‘stkichlarida ham xuddi shunday natijalar kuzatildi.

Tuproqlarni azot va fosforning harakatchan shakli bilan to‘yinish darajasi eng yuqori ko‘rsatkichni Samarqand viloyatida va eng past ko‘rsatkichni Buxoro viloyati xo‘jaliklarida tashkil etdi. Buxoro viloyati xo‘jaliklarining tuproqlarida kaliyning ortiqchaligi, Navoiy viloyatida o‘rtacha darajada va Samarqand viloyati xo‘jaliklari tuproqlarining esa kaliy bilan kam darajada ta‘minlanganligi qayd etildi.

Harakatchan natriyning miqdori Buxoro viloyati xo‘jaliklarining tuproqlarida eng yuqori ko‘rsatkichni (43333,3 mg/kg), Navoiy viloyatida o‘rtacha (31666,7 mg/kg), Samarqand viloyatida esa eng past ko‘rsatkichni (23256,2 mg/kg) tashkil etdi. Bu o‘z navbatida Buxoro va Navoiy viloyati xo‘jaliklarida tuproqlarning kuchli darajada, Samarqand viloyati xo‘jaliklarida esa kuchsiz darajada sho‘rlanishidan dalolat beradi.

Barcha xo‘jaliklarning tuproqlari tarkibidagi mis, kobalt, marganes, yod kabi mikroelementlar miqdorining o‘rtacha me’yoriy ko‘rsatkichlardan pastligi aniqlandi.

Oziqa namunalarini tekshirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha xo‘jaliklaridan keltirilgan oziqalarning namligi yuqori bo‘lib, Buxoro va Navoiy viloyatlaridan keltirilgan oziqalarda o‘rtacha 35,6 va 32,3 foizni, Samarqand viloyati xo‘jaliklarida - 19,2 foizni (me’yor - 14-16%), quruq modda shunga mos ravishda 64,4, 69,8 va 67,7 foizni tashkil etdi.

Oziqalar tarkibidagi natriyning miqdori Buxoro viloyatidan keltirilgan oziqalarda eng ko‘p ko‘rsatkichni (1,26%) va Samarqand viloyati xo‘jaliklaridan keltirilgan oziqalarda eng kam ko‘rsatkichni (1,10%) tashkil etdi.

Xo‘jaliklardan keltirilgan oziqalar tarkibida me’yorlarga nisbatan kalsiyni ortiqchaligi, fosfor va mis, margayens, kobalt, rux kabi mikroelementlarning me’yoriy ko‘rsatkichlardan ancha kamligi aniqlandi. Buxoro viloyatidan keltirilgan oziqalarda mis, kobalt, Navoiy viloyatida marganes, Samarqand viloyatida esa ruxning miqdori eng past ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Bo‘g‘oz sigirlar ratsionining mikroelementli tarkibi (Cu, Co, Mn, Zn) tahlil qilinganda, oziqlantirish me’yorlariga nisbatan Buxoro viloyatida sigirlar ratsionida misni - 34,0 mg, kobaltni - 2,7 mg, marganesni - 195,2 mg va ruxni - 227,4 mg. ga, Navoiy viloyatida misni - 35,2 mg, kobaltni - 1,3 mg, marganesni - 191,3 mg va ruxni - 221,4 mg. ga, Samarqand viloyatida misni - 43,0 mg, kobaltni - 3,2 mg, marganesni - 143,8 mg va ruxni - 130,0 mg. ga yetishmasligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, Zarafshon vohasida joylashgan Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarining fermer xo‘jaliklari sharoitida biogeokimiyoviy holat tuproqlarida sho‘rlanish jarayonlarining kuchayishi

va tarkibida mis, kobalt, margayens, rux kabi mikroelementlar miqdorining me'yoriy ko'rsatkichlar darajasidan pastligi, bo'g'oz sigirlar ratsioni kalsiyning ortiqchaligi, fosfor va mis, kobalt, marganes, rux kabi mikroelementlarning tanqisligi bilan xarakterlanib, bu hududda parvarishlanayotgan hayvonlarning mikroelementozlar bilan kasallanishida asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

Xo'jaliklarda bo'g'oz sigirlar organizmining to'yimli moddalar va shuningdek, makro- va mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilish darajasini o'rghanish maqsadida har bir xo'jalikda bo'g'oz sigirlar ratsioni tarkibi va to'yimligi bo'yicha zootexnikaviy tahlil qilindi.

Buxoro viloyatining Fijdivon tumani, "Zarafshon" sh/xo'jaligida bo'g'oz sigirlar ratsionining silos-senaj tipida ekanligi, oziqlantirish me'yorlariga nisbatan ratsion to'yimligining 2,3 oziqa birligiga kamligi, hazmlanuvchi proteinning 137,2 g, qandning - 434,7 g, karotinning - 164,8 g, fosforning - 7,4 grammga tanqisligi va kalsiyning - 15,2 g va kletchatkaning 1922 grammga ortiqchaligi aniqlandi. Bo'g'oz sigirlar organizmi ehtiyojlarining qondirilishi to'yimli moddalarga nisbatan 71,2 foizni, hazmlanuvchi protein - 83,6%, qand - 45,6%, karotin - 57,2%, kalsiy - 121,7%, fosfor - 81,5% va kletchatkaga nisbatan 167,7 foizni, ratsiondagi qand-oqsil nisbati 0,8-1,5:1 o'rniga 0,51 ni, fosforning kalsiyiga nisbati 0,38 ni (me'yor - 2,0:1) tashkil etdi.

Xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlar ratsionining mikroelementli tarkibi tahlil qilinganda, oziqlantirish me'yorlariga nisbatan 34 mg mis, 2,7 mg kobalt, 195,2 mg marganes va 227,4 mg ruxning yetishmasligi aniqlandi.

Navoiy viloyati, Navboxor tumanining "M. Baxri" fermer xo'jaligida ratsion to'yimligi 6,08 oziqa birligini tashkil etib, oziqlantirish me'yorlariga nisbatan 1,92 oz. birligiga kamligi, hayvonlar ehtiyojlarining qondirilishi 76 foizni, hazmlanuvchi protein 801,5 grammni, u bilan hayvonlarning ta'minlanishi 86,3 foizni, qand me'yordagi 680 g o'rniga 304,1 grammni, hayvonlar ehtiyojlarining qondirilishi 44,7 foizni tashkil etdi. Qand-oqsil nisbati 0,38 ni tashkil etdi.

Rarsionning mineral tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, undagi kalsiyning oziqlantirish me'yorlariga nisbatan 15,0 grammga ortiqchaligi va fosforning 6,12 grammga yetishmasligi ma'lum bo'ldi. Fosfor-kalsiy nisbati me'yordagi 1:1 - 1:1,3 o'rniga 0,49 ni tashkil etdi.

Ratsionning mikroelementlar bo'yicha tarkibi tahlil qilinganda misning miqdori me'yordagi 100 mg o'rniga 64,8 mg.ni, kobalt 13,0 mg o'rniga 11,7 mg.ni, marganes 400 mg o'rniga 208,7 mg.ni va rux 340 mg o'rniga 122,6 mg.ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar bo'g'oz sigirlar

organizmining asosiy mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarining qondirilishi yomon holatda ekanligini ko'rsatadi.

Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani «Jura» fermer xo'jaligiga qarashli bo'g'oz sigirlar ratsionida oziqlantirish me'yorlariga nisbatan 2,08 oziqa birligining yetishmasligi qayd etildi. Ratsiondag'i hazmlanuvchi protiyen 911,8 grammni, u bilan ta'minlanish esa 105,8 foizni tashkil etdi. Bo'g'oz sigirlar organizmining yengil hazmlanuvchi uglevodlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi 46,4 foizni tashkil etdi. Ya'ni ratsiondag'i qand miqdorining me'yorlardan 364,4 grammga kamligi aniqlandi. Qand-oqsil nisbati me'yordagi 0,8-1,2 o'rniga 0,34 ni tashkil etdi. Sigirlar ratsionidagi karotinning miqdori 168,8 mg.ni, u bilan ta'minlanish - 43,8 foizni, kletchatka me'yordagi 2850 g o'rniga 2726 grammni, sigirlar organizmining ta'minlanishi 95,6 foizni tashkil etdi.

Ratsion mineral tarkibining makroelementli qismi me'yorlarga nisbatan kalsiyning 5,49 grammga va fosforining 6,3 grammga yetishmasligi bilan xarakterlandi. Fosforining kalsiyga nisbati 0,52 ni tashkil etdi.

Ratsionda misning kuchli darajada yetishmasligi va kobalt, marganes va ruxning yetishmasligi aniqlandi. Ratsiondag'i misning miqdori 57 mg.ni, kobalt - 9,8 mg, marganes - 264,2 mg, rux - 210,0 mg. ni tashkil etdi. Bo'g'oz sigirlarning yil davomida bir joyda saqlanishi mikroelementlar yetishmovchiligining yanada kuchayishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlarda hayvonlarni uzoq muddat bir joyda saqlash, qo'yosh nurlari va faol masionning yetishmasligi, ratsionlarning hayvonlar turi, fiziologik holati, mahsuldarligi bo'yicha takomillashmaganligi, ratsionda kislotali radikallar miqdorining ortiqcha miqdorlarda bo'lishi, qand-oqsil va mineral moddalar o'zaro nisbatlarining buzilishi kabi omillar ta'sirida moda almashinushi buzilishlari, shu jumladan, mikroelementoz-larning polimorbid shaklda ya'ni, bir vaqtning o'zida bir necha mikroelementlarning yetishmasligi yoki ortiqchaligi (poligipo-mikroelementozlar) kuzatilishiga sabab bo'lishi ta'kidlangan [45].

Dispanser tadqiqotlar o'tkazish bilan shunday xulosaga keldikki, Zarafshon vohasida joylashgan Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari xo'jaliklariga qarashli bo'g'oz sigirlar ratsionlari tipi, tarkibi va to'yimliligi bo'yicha bo'g'oz sigirlar organizmi ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi.

Ratsionda oqsillar, uglevodlar va biologik faol moddalarning yetishmasligi, oziqalar tarkibidagi mikroelement-larning sigirlar organizmi ehtiyojlarini to'liq qondirmsligi bo'g'oz sigirlarda mikroelementozlar bilan kasallanishida asosiy etiologik omillar hisoblanadi, shuningdek,

homilaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, nimjon va hayotchanligi past hamda kasalliklarga tez beriluvchan buzoqlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

HAYVONLAR MIKROELEMENTOZLARINING DIAGNOSTIKASI

Ishlab chiqarish sharoitlarida mikroelementozlarining diagnostikasida bu kasalliklarning bir qancha xususiyatlariga ko'ra qiyinchiliklar tug'iladi:

a) mikroelementlarning yetishmovchiligi oqibatida kuzatiladigan modda almashinushi buzilishlari nospesifik belgilar bilan kechadi. Masalan, kobalt yetishmovchiligidagi kuzatiladigan "suxotka", mis yetishmovchiligidagi kuzatiladigan "lizuxa", rux yetishmovchiligidagi kuzatiladigan "qisir qolish" kabi belgilar boshqa kasalliklar paytida ham kuzatiladi;

b) qondagi kalsiy, fosfor, karotin, oqsil, qand, keton tanachalari, ishqoriy zahira miqdorlarini aniqlash bilan o'tkaziladigan biokimyoviy tekshirishlar organizmdagi moddalar almashinushi darajasi va organizmdagi o'zgarishlar darajasini aniq ko'rsatib bera olmaydi, shuningdek, bu ko'rsatkichlar mikroelementlar almashinushi buzilishlari uchun spesifik emas, vaholanki boshqa kasalliklarda ham o'zgarishi mumkin;

v) xo'jaliklar sharoitida bir vaqtning o'zida bir necha mikroelementlarning yetishmovchiligi kuzatiladi, shuning uchun turli klinik belgilar bilan namoyon bo'ladigan murakkab patologiya rivojlanadi;

g) mikroelementlarning diagnostika qilishning yana bir qiyinchilik tomoni shundan iboratki, organizmda mikroelementlarning turli miqdorlarda yetishmovchiligi (gipomikroelementozlar) kuzatiladi.

Shuning uchun mikroelementlarning diagnostikasi hududning geokimyoviy xususiyatlari, tuproq, oziqalar, suv tarkibidagi mikroelementlar miqdorini aniqlash va me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, hayvonlar organizmi ehtiyojlarining qondirilishi darajasini doimiy nazorat qilib turish kabi tadbirlarni o'z ichiga olishi lozim [73].

Biogeokimyoviy tekshirishlar xududning geokimyoviy va geologik holatini tekshirish, biomassani hisoblash va tashqi muhit ekstremal sharoitlariga organizmlarning biologik reaksiyalarini (endemik kasalliklar xususiyatlarini) aniqlashni o'z ichiga oladi. Sanoat chiqindilarining tashqi muhitga ko'plab chiqarilishi va ularning to'planib qolishi oqibatida texnogen biogeokimyoviy provinsiyalarining paydo bo'lishi, sut emizuvchilarda qon hosil bo'lishi, kalsiy-fosfor almashinuvlarining

buzilishi, funksional oqsillar sintezining yomonlashishi va organizm rezistentligining pasayishiga sabab bo‘layotganligiga e’tibor qaratilishi lozim. Bunda texnogen agentlarning (talliy, berilliyl, bariy, litiy, ittiriy, surma, vanadiy) tuproqda kumulyasiyalanishiga nisbatan o’simliklar bilan organizmga tushishi havfliroq hisoblanadi. Bu elementlarning ko‘pchiligi konserogen xususiyatiga va mutagen ta’sirga ega.

Endemik kasallikkarning diagnostikasida biogeosenotik diagnostikaning ahamiyati katta bo‘lib, biogeosenotik diagnostika - biogeosenozda bo‘ladigan noqo‘lay o‘zgarishlar oqibatida hayvonlar orasida kelib chiqadigan kasallikkarni aniqlash to‘g‘risidagi fandir. Endemik kasallikkarni biogeosenotik diagnostikasida: hayvonlar, to‘qima, hujayra va subhujayraviy tuzilmalar; b) populyasiyalar; v)biogosenozlar (ekosistema va landshaftlar) tahlil qilinishi lozim.

Yod tanqisligi diagnostikasida biogeokimyoviy hududning endemik xususiyatlarini (kasallikning endemik rivojlanishini) va qalqonsimon bezni paypaslash usulida tekshirish natijalari hamda hayvonlarning gavda tuzilishidagi o‘ziga xos o‘zgarishlarni e’tiborga olish lozim [43].

Endemik kasalliklar paytida anamnez ma’lumotlari hayvonlarni saqlash sharoitlarining talablar darajasida emasligi, ularda modda almashinuvi buzilishi belgilarining kuzatilishi hamda mahsuldorlikning kamayishi, rivojlanish va o‘sishning yomonlashishi, semizlik darajasining pasayishi, kabi o‘zgarishlar kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Mikroelementzlarga gumon qilingan hayvonlarni klinik tekshirishda semizlik darajasi va teri qoplamasining holatiga e’tibor beriladi. Gipokobaltoz va boshqa endemik mikroelementzlar paytida semizlik darajasi keskin pasayadi. Teri qoplamasini dag‘allashadi, sinuvchan bo‘ladi yoki tushib ketadi. Gavdaning katta qismlarida junlarning tushib ketishi (aloesiya) enzootik osteodistrofiya, yod, mis, kobalt va boshqa mikroelementlar yetishmovchiligidagi qayd etiladi [85].

Tibbiyot amaliyotida yod tanqisligining laborator diagnostikasi qondagi xolesterin va β -lipoproteidlar miqdori, qon zardobidagi qalqonsimon bez va gipofiz gormonlari (T_4 , T_3 va TTG), oqsilga birikkan yod, qalqonsimon bezning I^{131} ni sindirish qobiliyati, qondagi K va Na, umumiyl oqsil va oqsil fraksiyalari, qondagi bilirubin va kreatinin, glyukoza miqdori, antitireoidli antitelalar (Boyden reaksiyasi) va asosiy almashinuvni aniqlashga asoslangan klinik testlar sifatida qalqonsimon bezni UTT va EKG diagnostikasi tavsiya etiladi [41].

Yod yetishmovchiligi qoramollarda bosh va bo‘yinda junlar o‘sishining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Peshona va ensa yuzasida junlarning uzunligi 12-15 sm gacha yetishi oqibatida o‘ziga xos «kokillar»

va “yollar” hosil bo‘lishi mumkin. Mis yetishmovchiligi paytida junlarning rangsizlanishi (depigmentatsiyasi) kuzatiladi.

Endemik kasalliklar paytida ko‘pincha terining elastikligi pasayadi. Rux yetishmovchiligi terining quruqlashishi, burmalar hosil bo‘lishi va jarohatlanishi (parakeratoz), nikelning ortiqchaligi dermatitlarning rivojlanishi (nikeli dermatit) bilan kechadi.

Yurak qon-tomir tizimida funksional va morfologik o‘zgarishlarning kuzatilishi osteodistrofiya, gipokuproz, gipokobaltoz, endemik buqoq va boshqa endemik kasalliklar paytida kuzatiladi. Endemik bo‘qoq bilan kasallangan hayvonlar qonida triyodtironinn, tiroksin va tirotrop gormonining miqdorlari sog‘lom hayvonlardagiga nisbatan qariyib ikki marta yuqori bo‘lishi, kalsiyning pasayishi, fosforning esa ko‘payishi kuzatiladi [90, 118].

Moddalar almashinuvi jarayonlarining izdan chiqishi oqibatida miokardning distrofiyasi (miokardoz), “oq mushak” kasalligi paytida yurak mushaklarida nafaqat distrofik o‘zgarishlar, balki yallig‘lanish - nekrotik jarayonlarning rivojlanishi qayd etiladi. Yurakning distrofik o‘zgarishlari oqibatida birinchi va ikkinchi ton susayadi, uzayadi, ikkilanishi yoki bug‘iq eshitilishi xarakterli bo‘ladi. Elektrokardiogrammada tishlarning kichrayishi, ba’zan T tishning noaniq bo‘lishi, QRS kompleksining uzayishi va deformasiyasi, yurak muskullarida qon aylanishining buzilishi oqibatida ST segmentning yuqoriga yoki pastga siljishi kuzatiladi.

Mikroelementzlarga gumon qilingan hayvonlarda hazm tizimi a’zolarini tekshirishda ishtahaning o‘zgarishiga e’tibor beriladi. Enzootik osteodistrofiya, gipokuproz, gipokobaltoz kabi kasalliklar paytida ishtahaning pasayishi va o‘zgarishi (lizuxa) xarakterli bo‘ladi.

Ko‘pchilik gipomikroelementzlar (flyuoroz, kariyes, raxit, osteodistrofiya) paytida og‘izdan so‘lak oqishi, tishlar, lab, lunj, tanglay va tilda o‘zgarishlar (stomatitlar) kuzatilishi, oziqalarni chaynashning qiyinlashishi qayd etiladi. Enzootik osteodistrofiya va boshqa mikroelementzlar ko‘pincha jigarning patologik jarayonda qatnashishi bilan kechadi [85]. Jigarda distrofik o‘zgarishlar kuzatilishi oqibatida jigar bug‘iqligi sohasining kattalashishi va og‘riqli bo‘lishi, jigar hujayralarining yog‘li yoki oqsilli distrofiyasi (gepatositogrammada), qonda glyukoza, umumiy oqsil va albuminlar miqdorining kamayishi hamda umumiy bilirubin, siyidikda urobinin miqdorining ko‘payishi qayd etiladi.

Ko‘pchilik mikroelementzlar (kalsiy, fosfor, mis, marganes, kobalt almashinuvi buzilishlari) suyak to‘qimasida patologik o‘zgarishlar kuzatilishi bilan kechadi. Qovurg‘a suyaklari yumshab qoladi, oyoq suyaklari qiyyayadi, tishlarning qimirlashi, oxirgi dum umurtqalarining

so‘rilishi, hajmiga kichrayishi, ba’zan butunlay so‘rilib ketishi kuzatiladi. Oyoq bug‘inlarining jarohatlanishi marganes yetishmovchiligi uchun xosdir.

Qirg‘iziston respublikasining Farg‘ona vodiysida joylashgan qisimi yod yetishmovchiligi bo‘yicha dunyoga ma’lum region hisoblanadi. Aholining yod bilan ta’minlanishini o‘rganish bo‘yicha Bishkek va Qirg‘izistonning Issiq-Kul, O’sh, Norin va Jalolobod viloyatlarida tadqiqotlar o‘tkazib, 9-10 yoshdagi 4184 nafar bolalar tekshirishlardan o‘tkazilgan. Ultratovush tekshirish natijalariga ko‘ra, maktab bolalari orasida buqoqning uchrashi o‘rtacha 20 dan 28% gacha qayd etilgan bo‘lib, oziq-ovqatlarda sezilarni darajada yod yetishmasligidan dalolat beradi. Jalolobod viloyatida buqoqning tarqalishi UTT natijalariga ko‘ra 70 % gacha bo‘lib, kuchli darajada yod yetishmovchiligidan dalolat beradi. Paypaslash usulida tekshirilganda bu ko‘rsatkich yanada yuqori bo‘lgan (85%). Farg‘ona vodiysining shimoliy rayonlarida bu ko‘rsatkichlar yanada yuqori bo‘lgan. Maktab bolalari siydigidagi yodning konsentrasiyasi atigi 25 mkg/l ni tashkil etib, bu chet davlatlarda eng past kritik ko‘rsatkich hisoblanadi [81].

Ma’lumotlariga ko‘ra, hayvonlarda endemik mikroelementzlarning abortiv belgilaridan sigirlarda servis davrning uzayishi, reproduktiv xususiyatlarning pasayishi qayd etiladi [5].

Mualliflar mikroelementlarning hayvonlar qon zardobi va teri qoplamasidagi miqdori yilning fasllari bo‘yicha o‘zgarib turishini kuzatishgan. Masalan, qish-bahor faslida simmental zotli sigirlar qonidagi misning miqdori kamayib, magniy va ruxning miqdori me’yorlardan ko‘p bo‘lgan. Hayvonlarni yaylovida boqishga o‘tkazilishi bilan mis miqdorining ortishi va magniyning me’yorlar darajasigacha kamayishi kuzatilgan.

Sigir va buzoqlar qon zardobidagi mis, rux va temirning miqdori yoz-kuz fasllarida qish-bahor fasliga nisbatan shunga mos ravishda 64 va 108 %ga yuqori, magniy va fosfor o‘rtacha 26 %ga kam bo‘lgan. Sigir va buzoqlar qonida eritrositlar sonining kamayishi, leykositlarning esa me’yorning yuqorigi chegarasigacha ko‘payishi qayd etilgan. Organizmda yetishmaydigan mikroelementlarning o‘rnini to‘ldirish bilan hayvonlarning mahsuldorligini oshirishga erishilgan.

Ma’lumotlariga ko‘ra, organizmda bir vaqtning o‘zida barcha turdagи modda almashinuvlarining izdan chiqishi kuzatiladi [50].

Mualliflar ketoz bilan kasallangan yuqori mahsuldor sigirlarda hayotiy muxim mikroelementlardan mis, kobalt, rux, marganes, yod almashinuvi buzilishini kuzatishganlar. Kasal hayvonlar qonida misning 10

mkg %, ruxning - 40 mkg%, marganesning - 5, kobaltning - 0,1 va oqsilga birikkan yodning 2,5 mkg% gacha kamaytishi qayd etilgan.

Tadqiqotchining ma'lum qilishicha mikroelementlarning (yod, mis, kobalt, rux) yetishmovchiligidagi oshqozon oldi bo'limlarining 5 daqiqadagi qisqarishlar soni o'rtacha $7,0 \pm 0,4$ martagacha (sog'lom hayvonlarda $9,3 \pm 0,2$ marta), qisqarishlar amplitudasining $11,0 \pm 1,1$ mm gacha (me'yor $18,0 \pm 0,3$ mm) va faol matorikaning $20,8 \pm 0,5$ % gacha (sog'lom hayvonlarda $62,9 \pm 0,8$ %) kamayishi kuzatilgan, katta qorindagi pH ning - $6,30 \pm 0,09$ birligacha, infuzoriyalar sonining esa sog'lom hayvonlardagi nisbatan 295 ming/ml. gacha kamayishi kuzatilgan. Muallifning ma'lumotlariga sigirlar bo'g'ozligining 8-9 oyligida qondagi mikroelementlarni kamayishi kuzatilib, qon zardobidagi yod miqdori $6,76 \pm 2,03$ mkg/100 ml, temir- $151,2 \pm 43,9$ mg/100 ml, mis- $82,67 \pm 7,98$, rux- $170,3 \pm 25,89$ va kobalt $2,82 \pm 0,55$ mkg/100 ml. ni tashkil etgan [87, 109].

4-jadval

Hayvonlarda mikroelementlar yetishmovchiligi simptomlari

Simptomlar	Mikroelementlar yetishmovchiligi					
	Yod	Rux	Kobalt	Mis	Selen	Marganes
RivoJlanish va o'sishdan qolish	+	+	+	+	+	+
Tullahning kechikishi	±	±	±	±	-	±
Teri qoplamasи depigmentatsiyasi	-	-	-	+	-	-
Terining quruq va burmali bo'lishi	±	+	±	±	±	±
Miksedema	+	-	-	-	-	-
Buqoq	+	-	-	-	-	-
Ishtahaning o'zgarishi	±	±	±	±	+	±
Gipotoniya	±	±	±	±	±	+
Anemiya	±	-	±	±	-	-
Dermatit, parakeratoz	-	+	-	-	-	-
Mioskardiodistrofiya	+	+	+	+	+	+
Gepatodistrofiya	±	±	±	±	±	±

Eslatma: (+) - belgi kuzatiladi; (-) - kuzatilmaydi; (±) - kuzatilishi yoki kuzatilmasligi mumkin.

Ma'lumotlariga ko'ra, radiaktiv zararlangan hududlarda parvarishlanayotgan sigirlarda yod, kobalt, A va D vitaminlari yetishmovchiligi belgilardan 86,7% hayvonda terining quruqlashishi va parakeratozi, 26,7% hayvonda enoftalm, 90% hayvonda kon'yunktivaning oqarishi, 57,8% hayvonda bradikardiya, 3,35% hayvonda qalqonsimon

bezning kattalashishi va meksidema belgilarini aniqlagan. Shuningdek, 92,6 % sog'indan chiqarilgan bo'g'oz sigirlarda kamqonlik, 93,8-100% hayvonlarda gipokalsiyemiya, 50-92,6 foizida gipofosfatemiya, 90% hayvonlarda qon zardobidagi mis, kobalt va rux miqdorlarining kamayishi qayd etilgan [49].

Muallifning ta'kidlashicha, sigirlarda gipomikroelementozlar jigar funksional holatining yomonlashishi - gipoalbuminemiya, oqsil kolloidlarining chukishi sinamalarining (Formolli, mis sulfatli) musbat bo'lishi, aspartat- (69,4% hayvonda) va alaninaminotransferaza fermentlari faolligining (70% hayvonda) ortishi bilan xarakterlanadi.

I.P.Kondraxinning (1989) ta'kidlashicha, mis yetishmovchiligidagi kasallikning rivojlanishi bilan bosh miyada distrofik-degenerativ o'zgarishlar va keyinchalik, uning oq moddasi va o'tkazuvchi yo'llarining miyelinsizlanishi rivojlanib, ensefalomalyasiya va gidrosefaliya qayd etiladi. Qon zardobidagi misning miqdori qoramollarda 75 mkg% (0,75 mg/l) va qo'ylerda 20-50 mkg% (0,2-0,5 mg/l) dan kam bo'ladi.

5-jadval

Hayvonlarda mikroelementlar ortiqchaligi simptomlari

Simptomlar	Mikroelementlar ortiqchaligi						
	ftr	selen	qo'rg'oshin	nikel	stronsiy	molibden	bor
Rivojlanish va o'sishdan qolish	+	+	+	±	+	+	+
Ko'rishning yomonlashishi	-	+	-	+	-	-	-
Kuchli qo'zg'alish yoki holsizlanish	-	±	±	-	±	±	-
Gandiraklash	±	+	±	-	-	±	-
Shilliq pardalar sarg'ayishi	±	-	±	-	±	±	-
Dermatit, keratit	-	-	-	+	-	-	-
Osteomalyasiya, osteoporoz, osteolizis	+	-	-	-	±	-	-
Sulak oqishi yoki qayd qilish	-	-	±	-	-	±	±
Gipotoniya	±	-	+	-	±	+	+
gastroenterit	-	-	+	-	-	+	+
Miokardiostrofiya	±	-	±	-	±	+	±

Eslatma: (+) - belgi kuzatiladi; (-) - kuzatilmaydi; (\pm) - kuzatilishi yoki kuzatilmasligi mumkin.



2-rasm. Mikroelemenrozlar bilan kasallangan sigir.

Muallifning ta'kidlashicha, cho'chqa bolalari uch oy davomida 1 kg quruq oziqada 1,1 mg mis saqlaydigan ratsionda boqilganda ularning

gipokuproz bilan kasallanishi qayd etilib, qondagi seruloplazmin, ishqoriy fosfotazalar va katalazalar, gepatositlar va buyrak hujayralari mitoxondriyasidagi sitoxromoksidazalar va suksinatdegidrogenazalar faolligining pasayishi, qondagi gemoglobin, eritrositlar miqdorining va jigar va boshqa a'zolardagi mis miqdorining kamayishi kuzatilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, gipokuproz - surunkali tarzda kechadigan kasallik bo'lib, kamqonlik, ishtahaning o'zgarishi, qo'zilarda harakat muvozanatining buzilishi, falaj va yarim falaj kuzatilishi bilan tavsiflanadi. Mis qonda temirning gem- moddasi tarikibiga birikishi reaksiyasi uchun katalizator bo'lib hisoblanadi, eritrositlarning yetilishini ta'minlaydi, osteosintez jarayonlarida qatnashadi, seruloplazmin, sitoxromoksidazalar va boshqa bir qancha fermentlar tarkibiga kiradi [44].

Mualliflarning ta'kidlashicha, qon tarkibidagi mis, gemoglobin, seruloplazmin miqdori va eritrositlar sonini aniqlash gipokuproz kasalligiga diagnoz qo'yishda asosiy diagnostik testlar hisoblanadi. Mis yetishmovchiligidagi kamqonlik, mis va seruloplazmin miqdorlarining kamayishi, elementning ortiqchaligidagi esa uning qon, jigar va buyraklardagi konsentrasiyasining ortishi qayd etiladi.

Mualiflar shuningdek, mis yetishmovchiliginin diagnostika qilishda qondagi seruloplazmin miqdorini aniqlashning diagnostik ahamiyatini ta'kidlashadi, chunki organizmdagi 90% ga yaqin mis seruloplazmin tarkibiga kiradi.

Muallif ma'lumotiga ko'ra [124], mahsuldor sigirlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvni buzilishining klinik belgilari tana vaznining kamayishi, ishtahaning o'zgarishi, katta qorin devorining gipotoniyasi,

gipodinamiya, bo'yin va ko'z atrofida junlarning siyraklashuvi, teri qoplamasida yaltiroqlikning pasayishi bilan tavsiflanadi.

Muallif ma'lumotiga ko'ra, vitamin va mineral moddalar almashinuvining buzilishi sog'indan chiqarilgan sigirlarda va laktasiyaning boshlang'ich davrida rivojlanib, qon zardobidagi umumiyl kalsiyini o'rtacha - $2,33 \pm 0,03$ mmol/l, anorganik fosforni - $1,31 \pm 0,09$ mmol/l, kobaltni - $0,37 \pm 0,03$ mkmol/l, marganesni - $2,35 \pm 0,07$ mkmol/l va ruxni $-32,9 \pm 2,24$ mkmol/l gacha kamayishi bilan kechadi [124].

Gipokobaltoz paytida teri qoplamasini ho'rpaygan, shilliq pardalar oqargan, ishtaha o'zgaruvchan (lizuxa) bo'lib, oshqozon oldi bo'limlarining gipo- va atoniyasi, shirdon va ichaklarning kataral yallig'lanishi qayd etiladi. Qonda gemoglobin miqdori va eritrositlar sonining keskin kamayishi ($47-98$ g/l va $4-2,5 \cdot 10^{12}/\text{l}$ gacha) kuzatiladi. Qondagi kobaltning miqdori $0,43$ mkmol/l dan kam bo'ladi [112].

Ma'lum qilishicha, cho'chqalarda qalqonsimon bez funksional faolligining pasayishi qon zardobidagi umumiyl oqsil miqdorining ortishi, oqsil spektrida beta- va gamma-globulinlar miqdorining ko'payishi va albumin:globulin koeffisiyentining pasayishi bilan kechadi.

Leykoformulada sezilarli darajada eozinofiliya, neytrofillar yadrosining chapga siljishi va kuchli limfositoz qayd etiladi. Gipotireoz uchun leykositlar fagositar faolligining kuchli darajada pasayishi xarakterlidir [68].

Mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi ishtahaning o'zgarishi, shilliq pardalar anemiyasi, sog'in sigirlarning 70-80 foizida shilliq pardalarning oqarishi, lizuxa (ishtahaning o'zgarishi), 20-30 foizida oxirgi dum murtqalarining so'riliishi, ko'z atrofida, peshona va pastki jag'da junlarning rangsizlanishi, 40-50 foiz sigirlarda teri qoplamasini yaltiroqligi va elastikligining pasayishi, bo'yin, ko'z atroflarida junlarning to'kilishi, bo'yin sohasida terining burmali holatga kelganligi (giperkeratoz) bilan xarakterlanadi [103].

Ta'kidlashicha mikroelementlarning (yod, mis, rux, kobalt) yetishmovchiligi oqibatida kuzatiladigan oshqozon oldi bo'limlarining ikkilamchi distoniyalari katta qorin suyuqligida kislotalikning $6,30 \pm 0,09$ birlikgacha ortishi, uchuvchi yog' kislotalari (UYoK) summar konsentrasiyasining 47,3% ga kamayishi, infuzoriyalar sonining o'rtacha 300 ± 43 ming/ml gacha kamayishi bilan tavsiflanadi. [87].

Muallif shuningdek, tekshirilgan hayvonlarning qon zardobidagi umumiyl oqsil miqdorining 21-75%, ishqoriy zahirani 25-75%, umumiyl kalsiyini 50-83%, mikroelementlardan yod miqdorini 14-50%, misni 32-

60%, ruxni 25-33% va kobaltni 12% gacha hayvonlarda kamayishining guvohi bo‘lgan.

Ta’kidlashicha, enzootik osteodistrofiyaning boshlang‘ich bosqichida qondagi kalsiyning miqdori me’yorga nisbatan ko‘payadi, og‘ir bosqichlarida esa 4,4 mg% gacha, fosfor 1,78 mg% gacha kamayadi, magniy 8,38 mg% gacha ortadi. Ko‘pchilik kasal hayvonlarda kalsiyning fosforga nisbati kuchli o‘zgaradi, ya’ni 2,36:1 dan 10-10,5:1 ni tashkil etishi mumkin. Qondagi kobaltning miqdori 0,13 mkg% gacha, marganes - 45 mkg%, qon zardobidagi umumiyoqsi - 6,54% gacha kamayadi [36].

Yodning yetishmovchiligi belgilari yosh hayvonlarda xarakterli bo‘ladi, tug‘ilgandagi vazni kichiklashib, qo‘zilarda 0,7-1,5, buzoqlarda 12-15 kg gacha bo‘lishi, terida junsiz joylar yoki butunlay junsiz tug‘ilishi, qalqonsimon bezning kattalashib, qo‘zilarda 50-150, buzoqlarda 150-200 grammgacha yetishi kuzatiladi [101].

Ma’lumotlariga ko‘ra, qoramollarning zootik osteodistrofiya kasalligi paytida suyak to‘qimasi zichligining kamayishi, osteositlarning 20-25 foizgacha yemirilishi, suyak plastinkalarining bir-biriga birikishining buzilishi, ayrim trabekullalarning to‘lig‘icha lizisga uchrashi oqibatida yacheykalarning birikib ketishidan bo‘shliqlarning paydo bo‘lishi xarakterli bo‘ladi [18].

Rux elementining sigirlar ratsionidagi miqdorining ularda sut mahsuldorligi, gematologik ko‘rsatkichlari, oziqalarning hazmlanish darajasi hamda sutning mineral tarkibiga ta’sirini o‘rganib, ratsion quruq moddasidagi ruxning miqdori 50 mg/kg ga yetkazilganda sut tarkibidagi kalsiy miqdorining tajribalar boshidagi 85,5 mg% dan 94,7 mg% ga, fosforning 104,0 mg% dan 111,9 mg% ga, temirning 101,0 mg% dan 117,7 mg% ga ortishi kuzatilgan. Sut tarkibidagi magniy, mis va marganes miqdorlarida aytarlik o‘zgarishlar kuzatilmagan [79].

Ma’lumotlariga ko‘ra, qoramollarda kobalt yetishmovchiligi ko‘pincha bo‘g‘oz sigirlar va yosh hayvonlarda kuzatilib, ishtahaning pasayishi, kamqonlik, junlarning hurpayishi, tananing ba’zi joylarida junlarning to‘kilishi va mahsuldorlikning keskin kamayishi bilan kechadi. Bunday mollardan nimjon bola tug‘iladi va buzoqlarda ich ketish qayd etiladi [28].

Rux elementining sigirlar ratsionidagi miqdorining ular mahsuldorligi, qonning morfobiokimyoviy ko‘rsatkichlari, oziqalarning hazmlanish darajasi hamda sutning mineral tarkibiga ta’sirini o‘rganib, ratsion quruq moddasidagi ruxning miqdori 50 mg/kg ga yetkazilganda sut tarkibidagi kalsiy miqdorining tajribalar boshidagi 85,5 mg% dan 94,7 mg% ga, fosforning 104,0 mg% dan 111,9 mg% ga, temirning 101,0 mg%

dan 117,7 mg% ga ortishi kuzatilgan. Sut tarkibidagi magniy, mis va marganes miqdorlarida aytarlik o‘zgarishlar kuzatilmagan. [6].

Cho‘chqa bolalari morfofunksional rivojlanishiga mikroelementlar va vitaminlarning ta’sirini o‘rgangan. Bug‘oz cho‘chqalar ratsioniga qo‘sishma ravishda mikroelementlar (Co, Mn, Cu) va vitaminlar (A, D, E) priparatlari qo‘llanilgan guruhdagi cho‘chqa bolalarining tug‘ulgandagi tana vazni nazorat guruhdagi cho‘chqa bolalarinikiga qaraganda 23,39 % ga yuqori bo‘lgan. Shuningdek, jigar (11,95%), buyraklar (51,11%), o‘pka (11,52%) va taloqning (22,83%) og‘irligi ham nazorat gurihiga nisbatan ko‘p bo‘lgan [11].

Ma’lum qilishicha, cho‘chqalarda yod yetishmovchiligi harakatning chegaralanishi, uyqusirash holati, teri qoplamasining o‘sgan va dag‘al bo‘lishi, terida burmalarning hosil bo‘lishi, anemiya, ishtahaning pasayishi, hazm trakti faoliyatining susayishi, qonda eritrositlar soni, gemoglobin, ishqoriy zahira, mis va temir miqdorining kamayishi, xolinesterazalar faolligining pasayishi, qondagi diastazalar va lipazalar miqdorining, ishqoriy fosfataza fermenti faolligining ortishi hamda kalsiy va fosfor miqdorlarining sezilarli darajada kamayishi bilan xarakterlanadi [68].

Ta’kidlashicha, sog‘in sigirlarda oqsil, vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzilishlari sut mahsuldorligining pasayishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi, oxirgi dum umurtqalarining demineralizasiysi, qonda gemoglobin, umumiyoq oqsil karotin, kalsiy miqdorlarining va ishqoriy zahiraning kamayishi, sutni kislotaligining ortishi, siydiq solishtirma og‘irligining kamayishi bilan o‘tadi. Bunday sigirlardan nimjon va gipotrofik buzoqlar tug‘iladi [77].

Ma’lumotiga ko‘ra, qoramollarda qondagi misning miqdori 0,5-0,8 mg/l va undan kam bo‘lishi gipokuprozdan dalolat beradi [105].

Ma’lum qilishlaricha, organizmda mikroelementlarning tanqisligi paytida tarkibida mikroelementlar saqlovchi yoki mikroelementlar tomonidan faollashtiriladigan fermentlar va gormonlar faolligi pasyadi. Oqibatda barcha turdagи modda almashinuvlarining izdan chiqishi, a’zo va to‘qimalarning morfofunksional o‘zgarishlari, oziqalar tarkibidagi to‘yimli moddalar o‘zlashtirilishining 25 foizga kamayishi, reproduktiv a’zolarning jarohatlanishi oqibatida qisir qolish, embrionning so‘rilib ketishi, to‘liq rivojlanmagan, nimjon va kasalliklarga chidamsiz bola tug‘ilishi, ularni hayotining birinchi kunlarida kasallanishi va 30 foizgacha chiqimiga sabab bo‘ladi [77].

Enzootik osteodistrofiyani diagnostika qilishda ratsionlarni tahlil qilish, klinik belgilar, qon, siydiq va sutni laborator tekshirish natijalari,

patologoanatomik o‘zgarishlarni o‘rganish bilan birgalikda tuproq, suv va oziqalar tarkibidagi kobalt, fosfor, magniy, stronsiy, nikel va boshqa mineral moddalar miqdorini aniqlashni tavsiya etadi. Kasallikni ertachi aniqlash uchun ayrim hayvonlarda rentgenoskopiya, rentgenografiya va rentgeno-fotometriya o‘tkazish tavsiya etiladi [42].

Qator makro- va mikroelementlar (Ca, Fe, Cu, Zn, K, Na) yetishmaydigan va kalsiy-fosfor nisbati past ratsionlarda parvarishlanayotgan bo‘g‘oz sigirlar va ulardan tug‘ilgan buzoqlarda modda almashinuvi buzilishlarini hamda ularning oldini olish usullarini o‘rgangan [78].

Muallifning ma’lumotlariga ko‘ra, mikroelementozlar paytida bo‘g‘oz sigirlar qonida umumiy, jigardan o‘tgan va o‘tmagan bilirubin konsentrasiyasining ortishi, glyukoza, ishqoriy zahira, albuminlar, beta-globulinlar miqdori, albumin-globulin koeffisiyenti va pHning pasayishi kuzatiladi. Bo‘g‘oz sigirlar qoni yilning turli fasllarida spektral analiz qilinganda qish-bahor fasliga kelib, qondagi mis, temir, rux, magniy, kalsiy va fosfor miqdorlarining shunga mos ravishda 42,3; 36,3; 15,9; 53,0; 23,4; 17,9 va 20% ga kamayishi aniqlangan. Sigirlar ratsioni tahlil qilinganda ularning mis, rux, natriy, magniy, kalsiy va fosfor bilan ta’milanishi me’yorlarga nisbatan shunga mos ravishda 31,1; 27,3; 25,8; 87,1; 79,5 va 61,0 foizni tashkil etgan [101].

Ma’lumotiga ko‘ra, mikroelementlarning organizmga me’yorida ko‘p miqdorda tushganligini aniqlash uchun ularning organizmda to‘planadigan joylarini tekshirish zarur. Masalan, mis asosan jigarda, yod - qalqonsimon bezda, molibden - jigar, taloq va suyaklarda, ftor- tishlarda, stronsiy- tog‘ay to‘qimasida to‘planadi. Shu a’zolarning kimiyoziy analizi biogeoximiyaviy rayonlashtirishning zarur omildir. Kasalliklarning xarakterli belgilari ham katta ahamiyatga ega: buqoq kasalligi (yod yetishmasligi), junlarning rangsizlanishi, endemik ataksiya (mis yetishmasligi), hayvonlarning o‘sishdan qolishi (stronsiy ko‘pligi) [84].

Ma’lum qilishicha gipomikroelementozlar bilan kasallangan bo‘g‘oz sigirlarda oshqozon oldi bo‘limlarining distoniyalari kuzatilib, mikroelementlarning (yod, mis, kobalt, rux) yetishmovchiligidagi oshqozon oldi bo‘limlarining 5 daqiqadagi qisqarishlar soni o‘rtacha $7,0 \pm 0,4$ martagacha (klinik sog‘lom hayvonlarda $9,3 \pm 0,2$ marta), qisqarishlar amplitudasining $11,0 \pm 1,1$ mm gacha (me’yor $18,0 \pm 0,3$ mm) va faol matorikaning $20,8 \pm 0,5$ % gacha (klinik sog‘lom hayvonlarda $62,9 \pm 0,8$ %) kamayishi qayd etilgan, katta qorindagi pH ning - $6,30 \pm 0,09$ birlikgacha, infuzoriyalar sonining esa sog‘lom hayvonlardagiga nisbatan 295 ming/ml. gacha kamayishi kuzatilgan [87].

Muallifning ma'lumotlariga ko'ra, sigirlar qonidagi mikroelementlar miqdori turli fiziologik holatlarda o'rganilganda boshqa davrlarga nisbatan sigirlar bo'g'ozligining 8-9 oyligida ularning kamayishi kuzatilib, qon zardobidagi yod miqdori $6,76 \pm 2,03$ mkg/100 ml, temir- $151,2 \pm 43,9$ mg/100 ml, mis- $82,67 \pm 7,98$, rux- $170,3 \pm 25,89$ va kobalt $2,82 \pm 0,55$ mkg/100 ml. ni tashkil etgan.

Ma'lumotlariga ko'ra, Ukraina respublikasining Karpat zonasida tekshirilgan 54640 bosh qoramollar, shu jumladan 14772 bosh sigir va g'unojinlarda asosan yod, kobalt, rux va qisman mis va marganes yetishmovchiligi belgilari kuzatilib, yod yetishmovchiligi katta yoshdagi hayvonlarning past bo'yli bo'lishi, 81% hayvonda teri qoplamasini o'sishining yomonlashishi, alopesiya, buzoqlarning junlari siyrak va hatto junsiz holatda tug'ilishi, 43% hayvonda giperkeratoz, 50% hayvonda ekzoftalm, 50% hayvonda bradikardiya va 44% ga yaqin hayvonda yurak birinchi tonining uzayishi va ikkinchi tonining kuchsiz eshitilishi, elektrokardiogrammada R tishning pasayishi PQ intervalning uzayishi, QRS tishlar kompleksining pasayishi va T tishning kengayishi va pasayishi kabi belgilar bilan xarakterlangan. [80].

Yod elementi yetishmasligi oqibatida (gipotireogen xususiyatli) ham jigarning yog'li distrofiyasi hamda modda almashinushi buzilishlarining kuzatilishini ma'lum qiladi [116].

Sigirlarda asosan yod va rux yetishmovchiligi bilan kechadigan mikroelementozlar qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarining laktasiya davomida o'zgarib borishi, ya'ni, tekshirishlar davomida gemoglobinni o'rtacha 19,3 %, glyukozani - 14,9 %, ishqoriy zahirani - 9,0%, va ruxni - 13,92 % ga kamayishi bilan xarakterlandi [103].

Ma'lumotlariga ko'ra, yod yetishmovchiligi buzoqlarda organizm rezistentligining pasayishi oqibatida bronxopnevmoniya kabi kasalliklarga tez chalinuvchan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Kasallangan buzoqlarda gavda tuzilishi mutanosibligining buzilishi, o'sishdan qolish, bug'lnarning kattalashishi, oyoqlarning qiyshayishi, lordoz, teri qoplamasining hurpaygan va dag'al bo'lishi, muskullarning to'liq rivojlanmaganligi kuzatiladi. O'lган buzoqlar gavdasi yorib ko'rilmaga qalqonsimon bezning kattalashishi, bo'lakchalari simmetriyasining buzilishi, yuzasining notekis bo'lishi, kesib ko'rilmaga yopishqoq kolloid suyuqlik to'lgan 3-5 mm kattalikdagi kistalarning aniqlanishi, gistopreparatlarda follikulalarning kattalashganligi, bezli epiteliyning distrofiyasi va atrofiyasi kuzatiladi [6,25].

Mualliflarning ta'kidlashicha sog'lom buzoqlarda qalqonsimon bezining og'irligi $5,6 \pm 0,6$ - $6,2 \pm 0,7$ g/100 kg. ni, yod yetishmovchiligi bilan

kasallangan buzoqlarda esa bezning og'irligi $21,5 \pm 0,9$ - $29,6 \pm 0,16$ g/100 kg ni tashkil etgan.

Tomonidan Boshqirdiston respublikasining Ufa rayoniga Daniyadan keltirilgan zotdor qoramollarning mahalliy biogeokimyoviy sharoitga moslashishi o'rganilgan. Tekshirilgan hayvonlarning 70 foizida yod yetishmovchiligi belgilari, ayrim hayvonlarda oxirgi qovurg'alarining so'riliши, 10% hayvonda nafas chastotasining o'zgarishi va 30% ga yaqin hayvonda yurak faoliyatining susayishi, tonlarining kuchsiz eshitilishi, qonda eritrositlar sonining 3,5 mln/mkl, umumiy oqsil miqdorining 5,5-7,0 g % gacha kamayishi qayd etilgan [15].

Mualliflar shuning uchun ushbu biogeokimyoviy provinsiyaning xususiyatlarini hisobga olgan holda mikroelementlar tuzlarini profilaktik maqsadda qo'llashni tavsiya etadi.

Tatariston respublikasining shimoliy agrotuproq hududi yod, kobalt, mis va ruxning me'yorga nisbatan yetishmasligi, temir va marganesning ortiqchaligi bilan tavsiflanadi. Bu buzoqlarda endemik bo'qoqning juda og'ir utishiga olib keladi [14,20].

Ma'lumotlariga ko'ra, radiaktiv zararlangan hududlarda parvarishlanayotgan sigirlarda yod, kobalt, A va D vitaminlari yetishmovchiligi belgilaridan 86,7% hayvonda terining quruqlashishi, parakeratoz, 26,7% hayvonda enoftalm, 90% hayvonda kon'yunktivaning oqarishi, 57,8% hayvonda bradikardiya, 3,35% hayvonda qalqonsimon bezning kattalashishi va meksidema belgilarini aniqlagan. Shuningdek, 92,6% sog'indan chiqarilgan bo'g'oz sigirlarda kamqonlik, 93,8-100% hayvonlarda gipokalsiyemiya, 50-92,6 foizida gipofosfatemiya, 90% hayvonlarda qon zardobidagi mis, kobalt va rux miqdorlarining kamayishi qayd etilgan [49].

Muallifning ta'kidlashicha, sigirlarda gipomikroele-mentozlar jigar funksional holatining yomonlashishi - gipoalbuminemiya, oqsil kolloidlarining chukishi sinamalarining (Formolli, mis sulfatli) musbat bo'lishi, aspartat- (69,4% hayvonda) va alanin- va aminotransferaza fermentlari faolligining (70% hayvonda) ortishi bilan xarakterlanadi.

Ta'kidlashicha, organizmning fiziologik ehtiyojlarining to'liq qondirilishi uchun ratsionning har bir kg quruq moddasi hisobiga 3-12 mg mis, 20-60 mg rux, 25-60 mg marganes, 0,06-1,2 mg yod, 0,3-1,0 mg kobalt va 0,5 mg selen to'g'ri kelishi lozim. Ratsionda mikroelementlar yetishmovchiligi kuzatilganda sog'in sigirlar qonidagi mis miqdori 33-50; rux - 120-190; marganes - 12-17; kobalt - 0,5-3,0; yod - 3-5 mkg% ni, me'yorashtirilgan ratsionlarda boqilgan klinik sog'lom sigirlarda esa, shunga mos ravishda, 100; 350; 25; 5 va 8 mkg% ni tashkil etgan. Mis

yetishmovchiligi paytida esa, junlarning rangsizlanishi (depigmentasiyasi) kuzatiladi [61].

Mis va rux yetishmovchiligidagi hayvonlarning a'zolari va to'qimalarini tekshirish bilan jigar, muskullar, bosh va orqa miyada rux miqdorining fiziologik me'yordan 2-3 marta kamligi, kasal hayvonlarda jigaorigi mis zahirasining 3-20 martagacha kamayishini aniqlagan [41].

Muallifning ta'kidlashicha, ratsionda mis, rux va marganesning yetishmovchiligi oqibatida mineral moddalar almashinuvlarining izdan chiqishi bilan bir vaqtida hayvonlar organizmida qo'rg'oshinning toksik dozalarda to'planib qolishi oqibatida asab tizimi funksiyalarining buzilishi, qonning shaklli elementlari va qon tomirlarining jarohatlanishi kuzatilib, ishtahaning yaxshi bo'lishiga qaramasdan kasallangan hayvonlarning keskin ariqlashi, orqa oyoqlarning falajlanishi, bo'g'lnarning kattalashishi va harakat a'zolarining jarohatlanishi, sut mahsuldorligining kamayishi yoki butunlay yo'qolishi qayd etiladi.

Ma'lumotlariga ko'ra, qo'ylarda mis yetishmovchiligi paytida orqa miyadagi gistopatologik o'zgarishlar nerv hujayralari yadroining lizisi va nekrozi hamda gialinoz kuzatilishi bilan xarakterlanadi. Dorsalateral, dorsal, spinoserebral va kortikospinal bo'shliqlarda miyelinli suyuqlikning to'planishi oqibatida nerv to'qimasining distrofiyasi va atrofiyasi kuzatiladi [108].

Ma'lumotiga ko'ra, qo'ylarda mis yetishmovchiligi jigaorigi mis miqdorining me'yordagi 120-1000 mkg/kg o'rniga 10-25 mg/kg, qon zardobida 70-120 mkg/100 ml o'rniga 20-30 mkg/100 ml. gacha kamayishi kuzatiladi. Misning yetishmovchiligi qon ishlab chiqarilishi, osteogenez, junlar pigmentasiyasi va miyelinlanishining yomonlashishi, sitoxromoksidaza fermenti faolligining pasayishi, miyelin sintezining buzilishi, orqa miya nevronlarining nekrozi oqibatida harakatni boshqarish funksiyalarining buzilishi, orqa oyoqlar falaji bilan kechadi [114].

Gunojinlar bo'g'ozligining oxirgi 6-7-8-9 oylarida ularda mikroelementlar almashinuvining holatini o'rgangan. Qondagi rux, mis va marganes miqdorlari bo'g'ozlikning 6- oyi oxirida fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lsa, bo'g'ozlikning 8- va ayniqsa 9-oyi oxirlariga kelib mikroelementlarning qondagi ko'rsatkichlarining keskin darajada kamayishi qayd etilgan. Masalan, qondagi ruxning miqdori bo'g'ozlikning 6-7 oyida o'rtacha $31,40 \pm 1,36$ mkmol/lni tashkil etgan bo'lsa, bo'g'ozlikning 9- oyida uning $23,60 \pm 1,20$ mkmol/l gacha kamayishi qayd etilgan. Mualliflar bunday holatni sigirlarda bo'g'ozlikning ikkinchi yarmida homila suyaklarining zo'r berib o'sishi hisobiga sigirlar

organizmining mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarining ortishi bilan izohlaydi [22].

Ta'kidlashicha, yerlarga ko‘p miqdorda azotli, kalsiyli va boshqa mineral o‘g‘itlarni ortiqcha miqdorlarda ishlatalishi o‘simliklar tarkibida magniy, rux, mis kabi mikroelementlar miqdorining kamayishi va hayvonlar organizmida metabolistik jarayonlarning hamda tizim va a’zolar funksiyalarining izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Metabolizmning bunday buzilishlari ko‘pincha yashirin tarzda kechadi. Shuning uchun dispanser tekshirishlar rejasiga ekin maydonlari tuprog‘i, oziqalar va talab etilganda suvlarni tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori bo‘yicha tekshirish ham kiritilishi lozim [26].

Mualliflar, hayvonlarda mis yetishmovchiligidagi anemiya, junlar pigmentasiyasi va keratinizasiyasining buzilishi, suyaklar distrofiyasi, mahsuldorlik va reproduktiv xususiyatlarining pasayishi kuzatilishi xarakterli simptomlar ekanligini ta’kidlashadi.

Mahsuldor sigirlarda vitamin va minerallar almashinuvining buzilishlari natijasida kelib chiqadigan alimentar bepushtlik servis davrining uzayishi, anofrodiziya, jinsiy siklning buzilishi (jinsiy kuyikishning kuzatilmasligi) otalanish darajasining pastligi va bachardon subinvolyusiyasi bilan kechadi. Bepusht sigirlar to‘g’ri ichak orqali tekshirilganda tuxumdonlarning kichrayganligi va biroz qotganligi, follikulalarning yetilmaganligi, 30-35% holatda sariq tananing borligi aniqlandi [103].

Ma’lum qilishicha, O‘zbekiston hududida hayvonlar orasida ko‘pincha mis, rux, marganes, yod va ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, kobalt elementining yetishmovchiligi qayd etiladi.

Mualliflarning takidlashicha, hayvonlarning junini tekshirish bilan ularning mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilish darajasini aniqlash mumkin. Junning mikroelement tarkibi uning rangiga ham bog‘liq, ularning pigmentasiyasiga ko‘ra junlarni mikroelement tarkibi bo‘yicha quyidagicha joylashtirish mumkin: oq < qizil < to‘q qizil < qora. [54].

Sog‘in sigirlarda energiya almashinushi buzilishlarining kechish xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazib, qishlov davrida sigirlarning qonida lipidlar, mochevina, glyukoza, kalsiy miqdorlarining, ishqoriy fosfataza faolligining kamayishi va alanin- hamda aspartataminotransferazalar (AlAT, AsAT) faolligining ortishini, qondagi mis miqdorining 47, ruxni - 50, marganesni - 34 va oqsilga birikkan yodni 12 foizga kamayganligining guvohi bo‘lishgan. Ya’ni sigirlarda surunkali gipomikroelementozlar kuzatilgan [74].

Ma'lum qilishicha, xozirgi kungacha neytrofil gronulositlarda to'rt xildagi: miyeloperoksidaza, lizosim, loaktoferrin va noferment kationli oqsillar shaklidagi bakterisid tizimlar aniqlangan. Bulardan miyeloperoksidazaning (leykositar peroksidaza) bakterisid faolligi faqatgina galogenlar (yod, xlor, brom) va vodorod peroksid mavjud bo'lgan muhitdagina amalga oshadi [34].

Muallif shuning uchun yod va boshqa mikroelementlar yetishmovchiliklarining diagnostikasida miyeloperoksidazlar faolligini aniqlashning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Yod va boshqa mikroelementlar qo'llanilganda qondagi neytrofillar miyeloperoksidaz faolligining ortishini ijobiy prognostik test deb hisoblash mumkin.

Muallifning ma'lum qilishicha, yod, kobalt, rux, va fosfor yetishmaydigan hamda mis, marganes va molibden qisman yetishmaydigan biogeokimyoviy provinsiyalarda hayvonlarda gipotireoz, o'sishdan qolish, alopesiya, giperkeratoz, yolg'on yollarining hosil bo'lishi kabi belgilardan tashqari jigar bug'iqligi sohasining kattalashuvi, jigarning og'riqli bo'lishi, qondagi bilirubin konsentrasiyasining 4 mg% gacha ko'payishi, kolloidli-cho'kma reaksiyasining musbat bo'lishi, eritrositlar sonining 3,62-4,1 mln/mkl, gemoglobin konsentrasiyasining 6,6 - 9,9 g% gacha kamayishi qayd etilgan.

Ma'lumotlariga ko'ra, mis yetishmovchiligi bilan kasallangan hayvonlarda kamqonlik, junlarning rangsizlanishi kuzatiladi, buzoqlarda ko'z atrofida junlarning tushib ketishi yaqqol namoyon bo'ladi, sigirlar qisir qoladi. Qondagi mis miqdorining me'yordagi 1 mg/l o'rniغا 0,53 mg/l gacha, jigar to'qimasida 30-70 mg/kg o'rniغا 4 mg/kg gacha kamayishi kuzatiladi. [28].

Ma'lumotlariga ko'ra, qo'ylar vena qon tomiriga 10 mg/kg dozada sof holdagi gossipol alkloidini yuborish bilan chaqirilgan gepatoz kasalligida o't suyuqligi tarkibidagi mis elementining miqdorini $0,34 \pm 0,03$, ruxni - $4,53 \pm 0,3$, temirni - $15,0 \pm 1,6$ mkg/ml. gacha kamayishi qayd etilgan. Qo'ylardan olingan qon zardobida esa misning miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga (o'rtacha - $0,68 \pm 0,03$ mkg/ml) nisbatan ko'payib, o'rtacha - $0,77 \pm 0,04$ mkg/ml. gacha yetishi kuzatilgan [99].

Muallif bu holatni jigarning distrofik-nekrotik xarakterdagi jarohatlanishi oqibatida a'zoning ekskretor funksiyasining izdan chiqishi va misning jigarda to'planib qolishi bilan izohlaydi.

Moddalar almashinuvi buzilishlarining diagnostikasi dispanserlash asosida hayvonlar oziqasi, suv va ekin maydonlari tuprog'i tarkibidagi mikroelementlar miqdorini aniqlash, hayvonlarni klinik, gemotologik tekshirishdan iborat bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [33].

Mualliflar mineral moddalar almashinushi buzilishlarida klinik belgilar turlicha va nospesifik bo‘lishini kuzatishgan, kasallangan hayvonlarda ishtahaning pasayishi va o‘zgarishi, lizuxa, 12-38% hayvonda oshqozon oldi bo‘limlarining gipotoniysi, teri qoplamasining dag‘al, tushuvchan bo‘lishi, terida burmalar hosil bo‘lishi (30-32% hayvonda) qayd etilgan. Shuningdek, qovurg‘alar oxirining qalinlashishi, bug‘inlarning kattalashishi va og‘riqli bo‘lishi kuzatilgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, kobalt yetishmovchiligining diagnostikasi biogeokimiyoviy provinsiyaning xususiyatlarini e’tiborga olish, klinik belgilar va kimyoviy tekshirishlar natijalariga asoslanadi. Kobalt yetishmovchiligidagi ishtahaning o‘zgarishi, tana vaznining keskin kamayishi, jigardagi kobalt miqdorining 0,15 mkg%, qon zardobidagi B₁₂ vitaminini miqdorining 1,0 mkg/l dan kam bo‘lishi xarakterli bo‘ladi [125].

Ta’kidlashicha, kobalt yetishmovchiliga diagnoz qo‘yishda laborator tekshirishlarning juda murakkabligi tufayli kobalt yetishmovchiliga gumon qilingan mollarga kobalt tuzlarini berish yoki B₁₂ vitaminini organizmga yuborish bilan tajribalar o‘tkazib ko‘rish yaxshi natijalar beradi [28].

Ma’lumotlariga ko‘ra, mikroelementlarni jigar va boshqa a’zolardagi miqdori organizmning mikrelementlar bilan ta’milanish darajasini ko‘rsatadi (mikroelementli status) [105].

Mualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, jigar quruq moddasidagi misning miqdori 33 mg/kg ni tashkil etib, uning organizmdagi miqdorini aniqlashni tashqi muhitning ifloslanish darajasini ko‘rsatadigan indikator deb qarash mumkin. Chunki, hayvonlar organizmida mis miqdorining kamayishi hududdagi yaylovlarning og‘ir metallar birikmalari, oltingugurt birikmalari kabi chiqindilar bilan ifloslanishidan dalolat beradi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, yod yetishmovchiliga diagnoz qo‘yishda qondagi, qalqonsimon bez, sut hamda tuproq, oziqalar va suv tarkibidagi yod miqdorini aniqlash asosiy diagnostik testlar hisoblanadi. Kasallangan hayvonlar qonida oqsilga birikkan yod (OBY) miqdorining 3 mkg%, qalqonsimon bezda - 0,3-0,7 mg%, sutda - 2-2,5 mkg/l gacha kamayishi qayd etiladi. Bundan tashqari qalqonsimon bezning gipofunksiyasi paytida qondagi kalsiy miqdorining kamayishi va anorganik fosfor miqdorining esa biroz ko‘payishi kuzatiladi [44].

Mualliflarning ta’kidlashicha, gipokobaltoz uchun qondagi kobalt, gemoglobin, umumiyoqsil, B₁₂ vitaminini miqdorlari va eritrositlar sonini aniqlash diagnostik testlar hisoblanadi. Gipokobaltoz paytida qondagi gemoglobin miqdorining 9-5 g%, eritrositlarning - 5-4 mln/mkl, kobaltni -

2,5-2 mkg% va qon zardobida umumiyoq oqsil miqdorini 7-6,5 g% gacha kamayishi kuzatiladi.

Ma'lumotiga ko'ra, texnogen zonalarda jigar va boshqa a'zolardagi mis elementi qiyin eriydigan sulfidlar ko'rinishida bo'lib, uning jigardagi miqdori organizmning mis bilan ta'minlanish darajasini ko'rsatmaydi. Bunday holat molibden va sulfatlar ortiqcha bo'lganda ham kuzatiladi [127].

Muallifning ta'kidlashicha, yangi tug'ilgan qo'zilarda mis yetishmovchiligi jigarda kuchli qon tomir reaksiyasi, jigar parenximasining distrofik o'zgarishlari (oqsilli va yog'li distrofiya, gepatositlarning yemirilishi va nekrozi) bilan kechadi [71].

Endemik mikroelementzlarning kechish xususiyatlari va klinikasini o'rganish maqsadida Buxoro viloyati, Fijdivon tumani "Zarafshon", Navoiy viloyati, Novbaxor tumani, M.Baxri va Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, «Jura» fermer xo'jaliklarida bo'g'oz sigirlarda dispanser tadqiqotlar o'tkazish davomida poda sindromatikasi tahlil qilindi.

Buxoro viloyati, Fijdivon tumani, "Zarafshon" sh/xo'jaligida bo'g'oz sigirlarning asosan bir joyda bog'lab saqlanishi va qisman haydar boqilishi, semizlik darajasi o'rtacha va o'rtadan past ekanligi, sigirlar orasida yo'ldoshning ushlanib qolishi, endometrit, mastit, servis davrining uzayishi va qisir qolish kabi yuqumsiz kasalliklarning, buzoqlarda hazm va nafas tizimi kasalliklari, kuchli darajada o'sish va rivojlanishdan qolish qayd etiladi.

Navoiy viloyati, Navboxor tumanining M. Baxri fermer xo'jaligida poda sindromatikasi hayvonlar semizligining o'rtachadan pastligi, qisir qolish, sut mahsuldorligining pastligi, buzoqlarning juda kichik vaznda tug'ilishi, ular orasida dispepsiya, raxit, bronxopnevmoniya kabi yuqumsiz tabiatdagi kasalliklarning kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanining "Jura" fermer xo'jaligida sigirlar yilning barcha fasllarida asosan bir joyda bog'lab boqiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, sigirlar orasida yuqumsiz xarakterdagi kasalliklardan ketoz, osteodistrofiya, yo'ldoshning ushlanib qolishi, tug'ruq parezi, endometrit, buzoqlar orasida dispepsiya, gastroenterit, raxit, bronxopnevmoniya kabi kasalliklar tez-tez qayd etiladi. Sigirlarning yillik sut mahsuldorligi o'rtacha 2200 kg.ni, 100 bosh sigirdan buzoq olish 60-62 tani tashkil etadi.

Xo'jaliklarda poda sindromatikasini tahlil qilish sigirlarning saqlash sharoitlari talablar darajasida emasligi va mahsuldorlik ko'rsatkichlarining juda pastligi, yuqumsiz xarakterdagi kasalliklarning tez-tez qayd etilishi,

ularda modda almashinuvi, shu jumladan, mikroelementlar almashinuvi darajasi qoniqarsiz darajada ekanligini ko'rsatadi.

Hayvonlarni saqlash sharoitlarining talablar darajasida emasligi, ular uchun masionning yetishmasligi, ratsionlarning to'yimli moddalar, vitaminlar va mineral moddalar bo'yicha takomillashmaganligi ularning klinik-fiziologik holatiga, modda almashinuvi darajasi hamda mahsuldarligiga yomon ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir.

Bo'g'oz sigirlarda endemik mikroelementzlarning klinik belgilarini o'rganish maqsadida umumiyligida qabul qilingan klinik tekshirish usullari yordamida ularda ishtaha, tana harorati, puls va nafas chastotasi, oshqozon oldi bo'limlarining holatini aniqlash bilan bir qatorda gipomikroelementzlarga xos klinik belgilarning ham bor-yo'qligiga e'tibor berildi. Masalan, mis yetishmovchiligi belgilari: ishtahaning o'zgarishi, yurak tonlarining bug'iqlashishi, shilliq pardalar rangining oqarishi, ko'z atrofida, pastki jag' va peshonada junlarning pigmentsizlanishi; rux yetishmovchiligi: junlar o'sishining sekinlashishi va ko'z, lablar atrofida tushib ketishi (alopesiya), buyin va sonning ichki yuzasida terining qalinlashishi va jarohatlanishi (parakeratoz), oyoqlarni tez-tez almashtirib turish; kobalt yetishmovchiligi: ishtahaning o'zgarishi, shilliq pardalar anemiyasi, tez ariqlash; marganes yetishmovchiligi: bo'g'inalarning kattalashishi va deformasiyasi; yod yetishmovchiligi belgisi: miksedema, buqoq, "yolg'on yollar"ning hosil bo'lishi; kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishi belgilari: ishtahaning o'zgarishi (lizuxa), oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniysi, oxirgi dum umurtqalarining so'riliishi, umurtqa pog'onasining deformasiyasi (lordoz, kifoz) kabilariga e'tibor berildi.

Tekshirishlar davomida bo'g'oz sigirlarning tana harorati va nafas chastotasi fiziologik me'yorlar chegarasida bo'ldi, bir daqiqadagi yurak urishi sonining 1- xo'jalikdagi hayvonlarda fiziologik me'yorlarning yuqorigi chegarasida va 3- xo'jalikda me'yorlardan ko'p bo'lishi (me'yor - 1 daqiqada 60-80 marta) qayd etildi. Oshqozon oldi bo'limlarining 5 daqiqadagi qisqarishlari soni eng kam ko'rsatkichni 3- xo'jalikda tashkil etib, o'rtacha - 4,1 martani (me'yor 5 daqiqada 8-12 marta) tashkil etdi. Bu xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarda gipotoniya kuzatilishini masionning umuman yo'qligi, bir tomonlama silos-konsentrat tipida oziqlantirish hamda ratsionda mis, kobalt, marganes, rux, yod kabi mikroelementlarning yetishmasligi oqibatida katta qorindagi mikrofloralar faolligining pasayishi bilan izohlash mumkin. Adabiyotlarda gipomikroelementzlar bilan kasallangan bo'g'oz sigirlarda oshqozon oldi bo'limlarining 5

daqiqadagi qisqarishlari sonining $7,0 \pm 0,5$ martagacha kamayishi ma'lum qilinadi [87].

Tekshirilgan barcha xo'jaliklardagi bo'g'oz sigirlarda ($\text{o}'rtacha - 46,05\%$ hayvonda) makroelementlar (Ca, P) va mikroelementlar (Cu, Co, Mn, Zn, I) almashinuvi buzilishlariga xos klinik belgilar kuzatildi.

Birinchi va ikkinchi xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarning 66,6 foizida kalsiy, fosfor almashinuvi buzilishi belgilardan oxirgi dum umurtqalarining so'riliishi kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich uchinchi xo'jalikda 83,3 foizni tashkil etdi. Tullashning kechikishi birinchi xo'jalikdagi sigirlarning 50 foizida, ikkinchi va uchinchi xo'jalikda shunga mos ravishda 16,6 va 33,3 foiz hayvonlarda kuzatildi.

Organizmda rux yetishmovchiliga xos belgi sifatida kuzatiladigan ko'z, lablar atrofida va tanada junlarning tushib ketishi (alopesiya), $\text{o}'rtacha } 16,6-50\%$ hayvonda buyin terisining qalinlashishi (parakeratoz) birinchi xo'jalikda (16,6% hayvonda) va uchinchi xo'jalikda (33,3% hayvonda) qayd etilib, ikkinchi xo'jalikdagi hayvonlarda bu belgilar kuzatilmadi. Uchinchi xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarning ko'pchiligidagi oyoqlarni tez-tez almashtirib turish qayd etildi.

Marganes yetishmovchiligi belgilari (bo'g'inlarning kattalashishi va og'riqli bo'lishi, tuyoqlarning deformasiyasi va noto'g'ri o'sishi) uchinchi xo'jalikda kuchli darajada ($\text{o}'rtacha - 50,0-66,6\%$ sigirlarda), birinchi xo'jalikda $\text{o}'rtacha$ ($\text{o}'rtacha - 33,3\%$ hayvonda) va kuchsiz darajada ikkinchi xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarda ($\text{o}'rtacha 16,6\%$ hayvonda) qayd etildi.

Hayvonlar organizmida makroelementlar (Ca, P) va mikroelementlar (Cu, Zn, Mg) almashinuvi buzilishi belgilari tekshirilgan bo'g'oz sigirlarning $\text{o}'rtacha } 16,6-33,3$ foizida kuzatilib, yurak mushaklarida distrofik - degenerativ o'zgarishlar kuzatilishi oqibatida yurak tonlarining bo'g'iqlashishi, pulsning kuchsiz, yaxshi to'lishmagan bo'lishi, ya'ni miokardoz belgilari bilan xarakterlandi.

Mis va kobolt yetishmovchiligi uchun potognomonik belgilardan hisoblanadigan anemiya (shilliq pardalarning oqarishi) birinchi xo'jalikdagi tekshirilgan sigirlarning 66,6 foizida, ikkinchi va uchinchi xo'jalikda esa 83,3 foiz hayvonlarda kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar bo'g'oz sigirlarda gemopoezning yomon holatda ekanligi ya'ni alimentar - endemik kamqonlik kuzatilishidan dalolat beradi. Shuningdek, ko'z atrofida, peshona va pastki jag'da junlarning depigmentasiyasi ko'pchilik hayvonlarda kuzatilib, ayniqsa uchinchi xo'jalikdagi sigirlarda (50-66,6% hayvonlarda) yaqqol namoyon bo'ldi.

Barcha turdag'i mikroelementozlar uchun xarakterli hisoblangan ishtahaning o'zgarishi (lizuxa) birinchi xo'jalikda tekshirilgan bo'g'oz sigirlarning 66,6 foizida, ikkinchi xo'jalikda 50% va uchinchi xo'jalikda 83,3% hayvonlarda qayd etildi. Bo'g'oz sigirlarda lizuxa kuzatilishi ularning organizmida bir vaqtning o'zida bir necha mikroelementlar almashinuvi buzilishlaridan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo'g'oz sigirlarda makro- va mikroelementlar almashinuvi buzilishlari aralash patologiya tarzida kuzatilib, shilliq pardalarning anemiyasi, ishtahaning o'zgarishi, ariqlash, hazm trakti va yurak qon-tomir tizimi faoliyatining buzilishi, ko'z atrofida, pastki jag' va peshonada junlarning pigmentsizlanishi va o'sishining sekinlashishi, ko'z, lablar atrofida tushib ketishi (aloesiya), «yolg'on yollar»ning hosil bo'lishi, buyin terisida va sonning ichki yuzasi terisida burmalarning hosil bo'lishi, qalinlashishi va elastikligining pasayishi (parakeratoz), oyoqlarni tez-tez almashtirib turish, bo'g'inalarning kattalashishi va deformasiyasi, lordoz, kifoz, oxirgi dum umurtqalarining so'riliishi, kabi belgilar bilan kechadi.

6-jadval
Bo'g'oz sigirlarda mikroelementozlarning simptomlari

Xo'jalik	Makro- va mikroelementozlarga xos belgilar, (% hayvonda)									
	Lizux	Depigmentatsiya	Aloesiya	Parakeratoz	Bo'g'inlar kattalashishi	Yolg'on yollar	Tuyoqlar deformasiyasi	Tullahning kechikishi	Lordoz	Miokardoz
Zarafshon f/x	66,6	33,3	16,6	16,6	33,3	16,6	33,3	50,0	16,6	33,3
M. Baxri f/x	50,0	16,6	16,6	0	16,6	16,6	16,6	16,6	0	16,6
«Jura» f/x	83,3	66,6	50,0	33,3	50,0	33,3	66,6	16,6	33,3	33,3
O'rtacha	66,4	38,3	27,7	16,6	33,3	22,1	38,8	27,7	16,6	27,7

G‘unojinlarda bo‘g‘ozligining oxirgi 6-9- oylarida mikroelementlar almashinuvining holatini o‘rgangan. Qondagi rux, mis va marganes miqdorlari bo‘g‘ozlikning 6- oyi oxirida fiziologik me’yorlar chegarasida bo‘lgan bo‘lsa, bo‘g‘ozlikning 8- va ayniqsa 9-oyi oxirlariga kelib qondagi mikroelementlar miqdorining keskin darajada kamayishi qayd etilgan. Masalan, qondagi rux bo‘g‘ozlikning 6-7 oyida o‘rtacha $31,40 \pm 1,36$ mkmol/l ni tashkil etgan bo‘lsa, bo‘g‘ozlikning 9- oyida uning $23,60 \pm 1,20$ mkmol/l gacha kamayishi qayd etilgan. Mualliflar bunday holatni bo‘g‘ozlikning ikkinchi yarmida homila suyaklarining zo‘r berib o‘sishi hisobiga bo‘g‘oz sigirlar organizmining mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarining ortishi bilan izohlaydi [22].

Bo‘g‘oz sigirlarda mikroelementozlar qondagi umumiy, jigardan o‘tgan va o‘tmagan bilirubin konsentrasiyasining ortishi, glyukoza, ishqoriy zahira, albuminlar, beta-globulinlar miqdori, albumin-globulin koeffisiyenti va pHning pasayishi bilan kechishini kuzatgan. Bo‘g‘oz sigirlar qoni yilning turli fasllarida spektral analiz qilinganda qish-bahor fasliga kelib, qondagi mis, temir, rux, magniy, kalsiy va fosfor miqdorlarining shunga mos ravishda 42,3; 36,3; 15,9; 53,0; 23,4; 17,9 va 20% ga kamayishi aniqlangan. Sigirlar ratsioni tahlil qilinganda ularning mis, rux, natriy, magniy, kalsiy va fosfor bilan ta’minlanishi me’yorlarga nisbatan shunga mos ravishda 31,1; 27,3; 25,8; 87,1; 79,5 va 61,0 foizni tashkil etgan [78].

Mikroelementlarning hayvonlar qon zardobi va teri qoplamasidagi miqdori yilning fasllari bo‘yicha o‘zgarib turishini kuzatishgan. Masalan, sigir va buzoqlar qon zardobidagi mis, rux va temirning miqdori yoz-kuz fasllarida qish-bahor fasllariga nisbatan shunga mos ravishda 64 va 108 foizga yuqori, magniy va fosfor 26 foizga kam bo‘lgan [5].

Sigirlarda mikroelementzlarni laborator diagnostika qilish, moddalar almashinuvi darajasi va jigarning funksional holatini o‘rganish maqsadida qondagi eritrositlar soni (Goryayev sanoq to‘rida), gemoglobin (Gemoglobin-sianidli usul), glyukoza (Orto-toluidin bilan rangli reaksiya), qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usul), ishqoriy zahira (I.P. Kondraxin usuli), umumiy kalsiy (V.P. Vichev, L.V. Karakashov usuli), anorganik fosfor (Puls bo‘yicha V.F. Koromislov va L.A. Kudryavseva usuli), kobalt, mis, yod, marganes, rux miqdorlari (Atomli adsorbsion usul), umumiy bilirubin miqdori, (Iyendrashik, Kleggorn va Grof usuli), alaninaminotransferaza (AlAT), aspartataminotransferaza (AsAT) fermentlarining faolligi (Raytman, Frenkel bo‘yicha dinitrofenilgidrozinli usul) aniqlanadi.

Bo‘g‘oz sigirlarning mikroelementozlarida qondagi morfobiokimyoviy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida har xo‘jalikda 5 bosh bo‘g‘oz sigirlardan qon olinib, morfologik va biokimyoviy tekshirishlar o‘tkazildi.

Qondagi eritrositlar soni birinchi xo‘jalikda tekshirishlar boshida, ya’ni sigirlar bo‘g‘ozligining 7-oyida, o‘rtacha $5,08\pm0,60$ mln/mkl ni (me’yor $5,0-7,5$ mln/mkl) tashkil etgan bo‘lsa, tekshirishlarning ya’ni bo‘g‘ozlikning oxiriga kelib o‘rtacha - $4,74\pm1,3$ mln/mkl gacha, gemoglobin konsentrasiyasini tekshirishlarning boshidagi $92,5\pm1,17$ g/l dan $84,2\pm2,10$ g/l gacha kamayishi (me’yor - $99-129$ g/l) kuzatildi. Tekshirishlar davomida o‘rtacha ko‘rsatkich 4,85 g/l ni tashkil etdi.

Ikkinchi xo‘jalikdagi bo‘g‘oz sigirlarda eritrositlar sonining tekshirishlar davomida fiziologik me’yorlardan ancha kamligi qayd etilib, o‘rtacha- $4,86\pm0,7$ - $4,94\pm1,0$ mln/mkl. ni tashkil etdi, gemoglobinning $94,8\pm2,13$ g/l dan $74,8\pm1,48$ g/l gacha kamayishi kuzatildi. Tekshirishlar davomidagi gemoglobinning o‘rtacha ko‘rsatkichi 83,3 g/l ni tashkil etdi.

Uchinchi xo‘jalikdagi bo‘g‘oz sigirlarda tajribalarning boshidagi ko‘rsatkichlarga nisbatan tekshirishlarning oxiriga kelib, eritrositlar sonining o‘rtacha 0,66 mln/mkl, gemoglobinning 2,1 g/l. ga kamayishi kuzatildi. Tekshirishlar davomida eritrositlar soni o‘rtacha 4,92 mln/mkl, gemoglobinning konsentrasiyasi esa 76,6 g/l ni tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkichlar birinchi va ikkinchi xo‘jalikdagi sigirlarda bir vaqtning o‘zida ham eritrositlar sonining, ham gemoglobin konsentrasiyasining kamayishi bilan kechadigan, uchinchi guruhdagi sigirlarda esa asosan gemoglobin konsentrasiyasining va shuningdek, eritrositlar sonining ham kamayishi bilan kechadigan anemiya kuzatilishidan dalolat beradi. Adabiyotlarda mikroelementozlarning (Cu, Co, I yetishmovchiligi) eritrositlar sonining kamayishi hamda gemoglobin sintezining buzilishi bilan kechishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan [15].

Qondagi glyukozaning konsentrasiyasi har uchala xo‘jalikdagi bo‘g‘oz sigirlarda tekshirishlarning boshida fiziologik me’yorlardan ancha kam bo‘lib, tekshirishlar davomida ham bu ko‘rsatkichning bo‘g‘ozlikning oxirigacha kamayib borishi qayd etildi. Sigirlar qonidagi glyukozaning konsentrasiyasi tekshirishlar davomida birinchi xo‘jalikda o‘rtacha 2,31 mmol/l, ikkinchi va uchinchi xo‘jalikda - 2,14 va 2,08 mmol/l. ni (me’yor- 2,22-3,33 mmol/l) tashkil etdi. Tekshirishlar davomida qondagi glyukoza miqdorining kamayib borishini sigirlar bo‘g‘ozligining oxirgi bosqichlariga kelib ularning energiyaga bo‘lgan ehtiyojlarining ortib borishi bilan izohlash mumkin.

Sigirlarda gemotologik ko'rsatkichlar me'yorlari

Ko'rsatkichlar	O'rtacha miqdori
Qon zardobida	
Umumiy oqsil, g/l	72-86
Umumiy kalsiy, mmol/l	2,5-3,13
Anorganik fosfor, mmol/l	1,45-1,94
Anorganik magniy, mmol/l	0,82-1,23
Karotin, mg%: yaylovda boqilganda	0,9-2,8
qishlov davrida	0,4-1,0
Retinol mkmol/l: yaylovda boqilganda	1,4-5,3
qishlov davrida	24-80
Ishqoriy zahira, hajm%CO ₂	46-66
AsAT faolligi, mkmol.s/l	0,6-0,64
AlAT faolligi, mkmol.s/l	0,2-0,42
Natriy mmol/l	139-148
Kaliy, mmol/l	4,10-4,86
Yod (OB), mkmol/l	4,0-5,0
Qonda	
Gemoglobin, g/l	99-129
Glyukoza, mmol/l	2,22-3,33
Keton tanachalari, g/l	0,01-0,06
Mis, mkmol/l	14,1-17,3
Rux, mkmol/l	46,2-77,0
Kobalt, mkmol/l	0,51-0,85
Marganes, mkmol/l	2,73-4,55

Birinchi xo'jalikdagi sigirlar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirishlarning boshida, ya'ni bo'g'ozlikning 7- oyida fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lib, o'rtacha $73,4 \pm 2,1$ g/l ni tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib $63,5 \pm 2,1$ g/l gacha kamayishi, ikkinchi xo'jalikda esa sigirlar bo'g'ozligining oxirgi ikki oyi davomida fiziologik me'yordan ancha kam bo'lishi qayd etildi, ya'ni o'rtacha 66,2 g/l ni (me'yor- 72-86 g/l) tashkil etdi.

Uchinchi guruhdagi bo'g'oz sigirlarda qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirishlarning boshlanishida fiziologik me'yorlar chegarasida (o'rtacha 71,6 g/l) bo'lishi, bo'g'ozlikning oxiriga kelib, dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha - 4,6 g/l ga ko'payganligi ma'lum bo'ldi. Bu holatni sigirlar bo'g'ozligining oxirgi oylarida ratsionlarning oqsil - konsentrat tipida ekanligi, konsentrat oziqalarning asosiy qismini tarkibida 54 foizgacha protein saqlovchi paxta shroti tashkil etishi bilan

izohlash mumkin. Birinchi va ikkinchi guruhlardagi sigirlar ratsionida esa oqsilli xususiyatli oziqalarning tanqisligi qayd etildi.

Tekshirishlar davomida qondagi ishqoriy zahira miqdori birinchi xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarda o'rtacha 44,5; ikkinchi xo'jalikda - 45,7 va uchinchi xo'jalikda - 41,6 hajm%CO₂ ni tashkil etdi, ya'ni barcha xo'jaliklardagi bo'g'oz sigirlar qondagi ishqoriy zahira miqdorining fiziologik me'yordan ancha kamligi (me'yor- 46-66 hajm%CO₂) qayd etildi. Qondagi ishqoriy moddalar zahirasining kamayishi muhitning kislotalik tomonga o'zgarishi va organizmda asidoz holati kuzatilishidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkichlar mikroelementozlar paytida nafaqat qon, harakat a'zolari, muskullar, teri va teri qoplamasida, balki jigar va boshqa parenximatoz a'zolarda ham o'zgarishlar kuzatilishi, ya'ni butun organizmni qamrab oluvchi murakkab potoliya ekanligidan dalolat beradi.

Organizmda mineral moddalar almashinushi holatini o'rghanish maqsadida bo'g'oz sigirlar qonidagi umumiy kalsiy, anorganik fosfor, mis, kobalt, marganes va rux miqdorlari aniqlandi.

Makroelementlar almashinushi barcha xo'jaliklardagi sigirlar qonidagi umumiy kalsiy va anorganik fosfor miqdorlarining sigirlar bo'g'ozligining oxirgi davrlarigacha kamayib borishi bilan xarakterlanib, umumiy kalsiyning miqdori birinchi xo'jalikda o'rtacha - 2,38 mmol/l, ikkinchi xo'jalikda - 2,47 va uchinchi xo'jalikda - 2,22 mmol/l. ni (me'yor- 2,50-3,13 mmol/l), anorganik fosfor birinchi xo'jalikda o'rtacha- 1,32, ikkinchi xo'jalikda - 1,22 va uchinchi xo'jalikda - 1,40 mmol/l. ni (me'yor- 1,45-1,94 mmol/l) tashkil etdi.

Fiziologik me'yorlarga nisbatan umumiy kalsiy miqdorini kamayishi asosan uchinchi xo'jalikda (o'rtacha 0,47 mmol/l ga) va ikkinchi xo'jalikda (0,34 mmol/l. ga) kuzatilgan bo'lsa, anorganik fosfor miqdorining kamayishi birinchi va ikkinchi xo'jaliklarda (o'rtacha 0,37 va 0,47 mmol/l. ga) kuzatildi. Bunday holatni birinchi va uchinchi xo'jaliklardagi sigirlar ratsionida kalsiyning ortiqcha bo'lishiga qaramasdan uning so'rilihining yomonlashishi hamda ikkinchi xo'jalikdagi sigirlar ratsionida anorganik fosforning, shuningdek, ayrim mikroelementlarning yetishmovchiligi bilan izohlash mumkin.

Bo'g'oz sigirlar qon zardobidagi misning miqdori tekshirishlar davomida birinchi xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarda fiziologik me'yordan ancha kam bo'lib, o'rtacha $75,2 \pm 1,73$ - $68,3 \pm 0,76$ mkg% ni tashkil etdi (me'yor - 90-110 mkg%). Ikkinci xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarda qon zardobidagi misning miqdori birinchi va uchinchi xo'jalikdagi sigirlar qoni zardobidagi ko'rsatkichlardan biroz yuqori bo'lsada, fiziologik

me'yorlarga nisbatan o'rtacha - 10 mkg% ga kamligi qayd etildi. Bu xo'jalikda tekshirishlar davomidagi o'rtacha ko'rsatkich - 78,9 mkg% ni tashkil etdi.

Uchinchi xo'jalik, ya'ni bo'g'oz sigirlar yil davomida bog'lab boqiladigan «Jura» fermer xo'jaligida sigirlar qon zardobidagi misning miqdori tekshirishlarning boshida o'rtacha $76,3 \pm 0,19$ mkg% ni tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib o'rtacha - $65,7 \pm 1,14$ mkg% gacha kamayishi qayd etildi. Hudud bo'yicha misning bo'g'oz sigirlar qon zardobidagi o'rtacha miqdori- 75,3 mkg% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar Zarafshon vohasida parvarishlanayotgan bo'g'oz sigirlarda mis yetishmovchiligi kuzatilishidan dalolat beradi.

Qondagi kobalt miqdori birinchi xo'jalikdagi sigirlarda o'rtacha $2,20 \pm 0,42$ - $2,53 \pm 0,86$ mkg% ni, ikkinchi guruhda - $2,56 \pm 2,11$ - $2,80 \pm 1,60$ va uchinchi guruhda - $2,03 \pm 1,27$ - $2,26 \pm 0,71$ mkg% ni (me'yor - 3,0-5,0 mkg%) tashkil etdi. Ya'ni barcha guruhlardagi sigirlarda qondagi kobalt miqdorining tekshirishlar davomida kamayib borishi kuzatildi. Bunday holatni homiladorlikning oxirlashib borishi bilan bir vaqtida sigirlar organizmidagi kobalt elementi zahiralarining ham kamayib borishi bilan izohlash mumkin.

Birinchi xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlar qonidagi marganesning miqdori tekshirishlar davomida fiziologik me'yorlardan ancha kam bo'lib, (me'yor-15-25 mkg%) $9,70 \pm 0,43$ - $16,3 \pm 0,31$ mkg% (o'rtacha- 12,8 mkg%), ikkinchi xo'jalikdagi sigirlarda - $14,5 \pm 0,22$ - $20,8 \pm 0,47$ mkg% (o'rtacha- 18,4 mkg%) va uchinchi xo'jalikdagi bo'g'oz sigirlarda - $6,63 \pm 0,21$ - $14,8 \pm 0,11$ mkg% ni (o'rtacha- 11,07 mkg%) tashkil etdi. Ya'ni qondagi marganesning miqdori boshqa xo'jaliklarga nisbatan eng kam ko'rsatkichni uchinchi xo'jalikda tashkil etdi. Marganesning ikkinchi xo'jalikdagi sigirlar qonidagi miqdori fiziologik me'yorlarning pastki chegarasida bo'ldi.

Dastlab, qondagi ruxning miqdori birinchi xo'jalikdagi sigirlarda o'rtacha- $174,1 \pm 7,3$ mkg% ni tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib $165,3 \pm 3,1$ mkg% gacha, ikkinchi xo'jalikdagi sigirlarda $206,5 \pm 4,6$ mkg% dan $165,3 \pm 1,6$ mkg% gacha kamayishi va uchinchi xo'jalikdagi sigirlarda $168,0 \pm 3,2$ - $164,3 \pm 2,3$ mkg% atrofida bo'lishi aniqlandi. Elementning qondagi miqdori birinchi xo'jalikdagi sigirlarda o'rtacha - 169,5, ikkinchi xo'jalikda- 180,3 va uchinchi xo'jalikda 162,3 mkg% ni tashkil etdi, (me'yor-300-500 mkg%) ya'ni tekshirishlar davomida barcha xo'jaliklardagi sigirlarda qondagi rux miqdorining fiziologik me'yorlardan kamligi xarakterli bo'ldi.

Sigirlar bo‘g‘ozligining oxirgi 2 oyi davomida qondagi mikroelementlar (Cu, Co, Mn, Zn) miqdorini aniqlash bilan shunday xulosaga keldikki, sigirlar bo‘g‘ozligining oxirlashib borishi bilan homila tana vaznining jadal ortishi tufayli ularda mikroelementlar yetishmovchiligi va shuningdek, modda almashunuvi buzilishlari chuqurlashib boradi.

8-jadval

Bo‘g‘oz sigirlar qonidagi ayrim mikroelementlar miqdori

Tekshirishlar joyi		Mis, mkg%	Kobalt, mkg%	Marganes, mkg%	Rux, mkg%
Fijdivon tumani “Zarafshon” sh/x	A	76,3	2,53	16,3	174,1
	B	67,0	2,20	9,70	169,3
	V	65,7	2,42	12,6	165,3
	O‘rt.	69,6	2,38	12,8	169,5
Navbaxor tumani M. Baxri f/x	A	82,4	2,80	20,8	206,5
	B	77,6	2,28	19,9	169,3
	V	76,7	2,56	14,5	165,3
	O‘rt.	78,9	2,54	18,4	180,3
Pastdarg‘om tumani “Jura” f/x	A	75,2	2,26	14,8	168,0
	B	79,4	2,13	11,8	154,2
	V	68,3	2,03	6,63	164,9
	O‘rt.	74,3	2,14	11,07	162,3
Hudud bo‘yicha	O‘rt.	75,3	2,35	14,1	170,7

Eslatma: A- tekshirishlar boshida; B- tekshirishlar o‘rtasida; V- tekshirishlar oxirida.

MIKROELEMENTOZLARNI DAVOLASH VA PROFILAKTIKASI

Hayvonlarda mikroelementzlarning profilaktikasi hududning biogeokimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuproqlar meliorativ holatini yaxshilash, mineral o‘g‘itlardan oqilona foydalanish, tuproqlarning mineral tarkibini tahlil qilish va tarkibida yetishmaydigan elementlarni mikroo‘g‘itlar sifatida qo‘llash, organizmida yetishmaydigan mikroelement-larning preparatlarini hayvonlar oziqalariga qo‘sishimcha ravishda berish (o‘rin to‘ldirish usuli) kabi tadbirlar majmuasidan iborat bo‘lishi lozim [85].

Marganes yetishmovchiligin davolash va oldini olish uchun ratsionga o‘t uni, bug‘doy va boshqa donlar kepagini kiritish va marganes sulfat, marganes xlorid kabi qo‘sishchalarni qo‘llashni tavsiya etadi.

Hayvonlarning marganesga bo‘lgan sutkalik ehtiyoji ratsionning 1 kg quruq moddasiga nisbatan qoramollarda 20 mg, cho‘chqalarda 40 mg. ni tashkil etadi. Ratsionda kalsiyning miqdori ortiqcha bo‘lganda marganesning miqdori ham ko‘paytiriladi [85].

Sigirlarda yashirin kechadigan oqsil, mineral va vitamin moddalar almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilish uchun ratsionga beda senaji, monokalsiyfosfat, tuxum po‘chog‘i uni, mikroelementlar va vitaminlarni kiritish lozimligini ta’kidlaydi[77].

Qo‘ylarda mis yetishmovchiliginı oldini olish uchun mis sulfat preparatidan 1000 bosh qo‘yga 225 g hisobida omixta yemlarga aralashtirib berish, mis glisinat preparatidan bir boshga 150 mg hisobida muskul orasiga yuborish hamda yaylovlarni har 5-6 yilda bir marta gektariga 11 kg hisobida mis sulfat bilan o‘g‘itlashni tavsiya etadi [115].

Qo‘ylarda kobalt yetishmovchiliginı profilaktika qilishda kobamid va kobilamid preparatlarini qo‘llashning katta qorin suyuqligi ko‘rsatkichlari va qon zardobi morfobiokimyoviy ko‘rsatkichlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [112].

Ma’lum qilishicha, qoramollarda ikkilamchi distoniyalarni oldini olishda optikar (tarkibi: quruq misella 100 g, mikrogranullangan A vitamini - 100 ming XB, D₃ 3-10 ming XB, stabillashtirilgan yod- 5,0 mg, kobalt xlorid - 30,0 mg, mis sulfat - 220,0 mg, rux sulfat - 2 g, to‘ldiruvchi vosita - 1 kg.gacha) preparatini qo‘llash yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, oshqozon oldi bo‘limlari qisqarishlarining va infuzoriyalar sonining ko‘payishi, umumiy oqsil, kalsiy, fosfor, yod, mis, kobalt, va rux bo‘yicha qon zardobi ko‘rsatkichlarining optimallashuvini ta’minlaydi. Optikar preparatini qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi 1 so‘m xarajat uchun 3,16 so‘mni tashkil etadi [87].

Rossiyaning markaziy noqoratuproq zonasida qoramollarda mikroelementzlarning oldini olish uchun mikroelementlarning tuzlarini quyidagi dozalarda qo‘llashni tavsiya etadi: (1 boshga 1 sutkada mg) mis sulfat - katta yoshdagi qoramollar - 50-100, yosh hayvonlar - 25-30 mg, kobalt xlorid shunga mos ravishda 6-15, 3-8; kaliy yodid - 1,5-2,5, 0,75-1,0; marganes sulfat - 35-250, 10-30; rux sulfat - 35, 3-6. Yuqori mahsuldor bo‘g‘oz hayvonlarga va sigirlarning sut berish davrida bu miqdorni 50-100 % ga ko‘paytirish mumkin [73].

Qoramollarda enzootik osteodistrofiyani profilaktika qilish uchun ratsionga qo‘sishimcha ravishda hayvonning 100 kg tana vazniga 30 mg kobalt va 45 mg marganesni 30-60 kun davomida omixta yemlar bilan qo‘llashni tavsiya etadi. [85].

Ratsionga qo'shimcha ravishda kobalt, marganes, rux elementlari shunga mos ravishda 2,5, 50,0, 350 mkg/100 ml konsentrasiyada alohida-alohida holda qo'shilganda kalsiyning ingichka bo'lim ichaklarining oldingi qismida rezorbsiyasining jadal kechishini kuzatilgan.

Sigirlarda enzootik osteodistrofiyani profilaktika qilish uchun ratsionga qo'shimcha bir sutkada bir boshga 671 mg marganes sulfat va 125 mg kobalt xlorid berishni va A hamda D vitaminlarini talab etiladigan dozalarda qo'llashni tavsiya etadi. Batenov A.I. (1987) tarkibi: diammoniyfosfat (80 g), kaliy yodit (9 g), kalsiy xlorid (12,6 g), mis sulfat (93 mg) dan iborat mineral qo'shimchani qo'llash hamda tetravit preparatidan har oyda bir marta 15 ml muskul orasiga inyeksiya qilishning suyaklar demineralizasiyasini kamaytirishi va qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarining me'yorlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ma'lum qiladi. [65].

Ratsioniga qo'shimcha 11,2 g kalsiy, 14,5 g fosfor, 325 mg temir, 62,3 g mis, 153,6 g rux va 72,8 mg karotin qabul qilgan sigirlardan tug'ilgan buzoqlarning nazorat guruhidagi sigirlardan tug'ilgan buzoqlarga nisbatan dispepsiya bilan kasallanishining 42 foizga kamayishi, qon tarkibidagi globulinlarni 7,5%, ishqoriy zahirani - 5-7%, kalsiyni - 6%, kaliyni - 10% va natriy miqdonini 1,5% ga yuqori bo'lganligini ma'lum qiladi. Shuningdek, tajriba guruhidagi sigirlarning kuya kelishi tuqqandan keyingi 38 kunda kuzatilib, ularning to'lig'icha otalanishi kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhidagi sigirlarning kuya kelishi tuqqandan keyingi 69- kunda va undan keyin kuzatilgan [48].

Enzootik osteodistrofiyani profilaktika qilish uchun ratsionga 30 mg kobalt va 45 mg marganes (100 kg tana vazni hisobida) qo'shishni tavsiya etadi [11].

Kobalt va marganes tuzlari hayvonlarga 30-60 kun davomida beriladi.

Boshqirdistonning Ural oldi subregionida enzootik osteodistrofiyani davolash va oldini olishda tarkibiga yod, marganes, rux, mis va marganes tuzlari qushilgan polisollardan foydalanishni tavsiya etishgan, hamda mis, kobalt, yod, kazein kislotali kompleks preparatini qo'llash ham yaxshi natija berishini ta'kidlaydilar [84].

Mikroelementzlarning oldini olishda mikroelementlarning preparatlarini alohida-alohida holda qo'llash samara bermasligini takidlashadi [50].

Mualliflarning ma'lum qilishicha, yillik sut mahsuldorligi o'rtacha 3-6 ming kg bo'lgan sigirlar uchun ratsionning 1 kg quruq moddasida 10 mg mis, 40 mg rux, 60 mg marganes, 1 mg kobalt, 0,5 mg yod bo'lishi eng

optimal miqdorlar hisoblanadi. Mikroelementozlar asosan qishda, hayvonlarni bir joyda saqlash sharoitlarida ko‘p qayd etiladi. Shuning uchun bu davrda guruhli profilaktik vositalarni yillik sut mahsuldorligi 4-6 ming kg bo‘lgan sigirlar uchun quyidagi miqdorlarda aralashma holida qo‘llashni tavsiya etadi (bir boshga bir sutkada): osh tuzi - 10 g, diammoniy (monokalsiy) fosfat - 40 g, kobalt xlorid - 50 mg, mis sulfat - 110 mg, rux sulfat - 800 mg, kaliy yodid (amiloyodin holida) - 5 mg. Bu miqdorlar hududning geokimyoviy holatiga ko‘ra o‘zgartirilishi mumkin.

Enzootik osteodistrofiyani davolash uchun sog‘in sigirlarga davolovchi aralashma sifatida tarkibi: mis sulfat, marganes sulfat va kobalt xlorid preparatlaridan iborat aralashmadan 1g, kaliy yodiddan 100 mkg kuniga bir marta 10 kun davomida qo‘llashni tavsiya etadi [63].

Sog‘in sigirlar ratsioniga qo‘sishimcha ravishda tarkibi: 100 g mochevina, 75 g suyak uni, 40 mg mis sulfat, 27,5 mg marganes sulfat, 16,5 g rux sulfat va 5 mg kaliy yodiddan iborat aralashmani qo‘llash va har kuni teri ostiga 5 ml trivitamin ineksiya qilish enzootik osteodistrofiyani davolashda yuqori terapevtik samara berishi aniqlangan.

Sigirlar ratsionida yetishmaydigan mikroelementlarning o‘rnini qoplash uchun quyidagi tarkibdagi polisollar va briketlardan foydalanishni tavsiya etadi: osh tuzi - 75,6%, monokalsiyfosfat - 22,7%, oltingugurt - 1%, rux sulfat - 0,15%, mis sulfat - 0,1%, marganes sulfat - 0,23%, temir sulfat - 0,1% va kobalt xlorid - 0,03% [91].

Yod yetishmovchilagini oldini olish uchun ratsionning 1 kg quruq moddasida nasllik buqalar va sigirlar uchun 0,3-0,6 mg, 6 oydan katta qoramollar uchun 0,3-0,4, 6 oygacha bo‘lgan buzoqlar uchun - 0,3-0,6, katta yoshdagi qo‘ylar - 0,2-0,6, 6 oygacha va katta bo‘lgan qo‘zilar uchun 0,2-0,4 mg yod bo‘lishini ta’minlash lozim.

Agar oziqalar tarkibida yodning so‘rilishiga to‘sinqlik qiluvchi moddalar mavjud bo‘lsa uning miqdori 2 martaga ko‘paytiriladi. Yodning tuzlari natriy gidrokarbonat, natriy tiosulfat va boshqa stabillovchi vositalar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Yod saqlovchi preparatlarning dozasini oshirib yuborish embrionning yoki homilaning o‘lishi, nimjon bola tug‘ilishi va mahsuldorlikning kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin [101].

Sigirlarning ratsioniga yod saqlovchi preparatlar (kayod, yod DAR va mikroelement polisollari) ni kiritish hayvonlar qon zardobidagi tiroksin, umumiy oqsil, ishqoriy zahira kalsiy va fosfor konsentrasiyasini mo‘tadillashtiradi. Ushbu preparatlar har kuni omuxta yemga aralashtirilgan holda beriladi. Preparatlarning miqdorini belgilashda

ratsionda yodning tanqislik darjasini e'tiborga olinadi. Bunda eng kuchli ta'sir samarasini yod DAR preparati namoyon etgan [2].

Yod yetishmovchiligining oldini olish maqsadida hayvonlar ratsioniga 0,5% hisobida yodlangan osh tuzi qo'shiladi (1 tonna osh tuzida 25 g kaliy yodid bo'ladi). 100 kg osh tuzini yodlash uchun 2,5 g kaliy yodid 200 ml sigir sutida eritilib, unga 100 g ichimlik sodasi aralashtiriladi. Aralashma 2 kg osh tuziga aralashtirilgach, 98 kg tuzga aralashtirish kerak. Yodlangan osh tuzi hayvonlarga erkin holda berilishi mumkin [89].

Sigirlarda ikkilamchi osteodistrofiya kasalligini oldini olish maqsadida ratsiondagagi gossipol saqllovchi shrotning o'rniga 2 kg o'stirilgan bug'doy maysasi qo'shib berilgan. O'stirilgan bug'doy maysasining tarkibi laborator tahlil qilinganda uning 1 kg masssasi tarkibida: 15,12% glyukoza, 100 mg gacha karotin, 16,5% protein, 3,47% kletchatka, 2,5 mg kalsiy, 0,9 mg fosfor, 10,5 mg rux, 4,6 mg mis, 0,07 mg kobalt va 24,5 mg marganes borligi aniqlangan.

Muallif xulosalariga ko'ra, sigirlarda ikkilamchi osteodistrofiyanı oldini olish uchun 60 kun 50 g monokalsiyfosfat, 60 g magniy sulfat, 3 g temir sulfat, 0,2 g kaliy yodid, 0,2 g mis sulfat, 0,03 g kobalt xlorid, 0,06 g rux sulfat omixta yemlarga aralashtirib va 3 kg o'stirilgan bug'doy maysasidan bir boshga kuniga bir marta oziqa ratsioniga qo'shib berish ularda klinik, gematologik va katta qorin suyuqligi ko'rsatkichlarining me'yorlar chegarasigacha yaxshilanganligini guvohi bo'lishgan. Bu profilaktik vositalar berilgan tajriba guruhida qondagi umumiy kalsiy miqdorini o'rtacha (9,0%) ga, anorganik fosforni - 0,38 mmol/l (32,0%), misni - 40,08 mkmol/l (39,1 %), kobaltni - 0,15 mkmol/l (40,5 %), marganesni - 0,36 mkmol/l (19,1%) va ruxni - 9,2 mkmol/l (27,2%) va ga ko'payishi aniqlangan [98].

Yod yetishmaydigan biokimyoviy provinsiyalarda parvarishlanayotgan yuqori mahsuldor hayvonlarda yod yetishmovchilгини davolash maqsadida tarkibi kraxmal va kaliy yodiddan iborat amiloidin preparatini qo'llash yaxshi samara berishi, hayvonlarda nospesifik rezistentlikning ko'tarilishi va qon zardobidagi umumiy oqsil, beta- va gamma-globulinlar miqdorining ortishini ta'minlashini ta'kidlaydi [16].

Sog'in sigirlarda energiya almashinushi buzilishlari va mikroelementlar yetishmovchiliginini profilaktika qilish maqsadida 1 tonna aralashma tarkibiga 100 g E vitamini, 80 mln. XB D vitamini, 350 mln XB A-vitamini, 1524 g mis, 1100 g rux, 1000 g marganes, 1200 g temir, 24 g kobalt va 115 g yod aralashtirilgan premiksdan bir boshga bir kunda 100 g, ikki oy davomida berish bilan tajribalar o'tkazgan [74].

Mualliflarning ma'lum qilishlaricha, tajribalarning oxiriga kelib sigirlar qonidagi mis va rux miqdorining fiziologik me'yorning pastki chegarasigacha, marganens va temirning me'yorlar chegarasida ko'payishi, shuningdek, qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarining optimallashuvi: AsAT, AlAT faolligining pasayishi, uglevodlar va lipidlar oraliq almashinuvi mahsulotlari (laktat, piruvat) miqdorlarining kamayishi, ya'ni oqsillar, uglevodlar va lipidlar biosintezi jarayonlarining ma'romlashishi kuzatilgan.

G'unojinlarda subklinik kechadigan oqsil, mineral va krotin almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilish uchun tarkibi oziqabop achitqi, oziqabop fosfat, premiks, kayod va trivitdan iborat profilaktik majmuani tavsiya etadi [31].

Mikroelementlar va vitaminlarning cho'chqa bolalari morfofunksional rivojlanishiga ta'siri o'rgangan. Bo'g'oz cho'chqalar ratsioniga qo'shimcha ravishda mikroelementlar (Co, Mn, Cu) va vitaminlar (A, D, E) priparatlari qo'llanilgan guruhdagi cho'chqa bolalarining tug'ulgandagi tana vazni nazorat guruhdagi cho'chqa bolalariniga qaraganda 23,39 % ga yuqori bo'lgan. Shuningdek, jigar (11,95%), buyraklar (51,11%), o'pka (11,52%) va taloqning (22,83%) og'irligi ham nazorat gurihiga nisbatan ko'p bo'lgan [11].

Ta'kidlashicha, sigir va g'unojinlarga faol masion berilishi qon zardobidagi ishqoriy zahirani 13,6 hajm%CO₂ va umumiyoq oqsil miqdorini 0,99 g/l ga ortishini ta'minlaydi. Tajriba guruhidagi birinchi marta tuqqan sigirlarda servis davrni 49 kunga qisqarishi, sutni yog'liliginining esa 16 foizga ortishi kuzatilgan [66].

Ta'kidlashlariga ko'ra, respublikamizning turli hududlarida bentonitlar holidagi mineral madanlar zahirasi juda ko'm miqdorda bo'lib, ulardan hayvonlarning mahsuldorligini, tana vazni ortishini ko'paytirish va kasalliklarini oldini olishda keng foydalanish mumkin. Bentonit - tarkibi asosan minerallarning montmorillonit yoki beydelit guruhlaridan iborat kichik dispersli karbonatsiz tuproq turi bo'lib, yuqori almashinuv sig'imi, adsorbentlik va biriktirib olish xususiyatiga ega. Bentonit tarkibida mis, kobalt, marganes kabi qator mikroelementlar borligi tufayli hayvonlarning o'sishi va rivojlanishini stimullovchi vosita sifatida qo'llaniladi [13].

Ma'lumotlariga ko'ra, bo'rdoqiga boqilayotgan buqachalar oziqasiga 2% hisobida bentonit qo'shilganda ularning kunlik semirishi 20,5 foizga oshadi, tana vaznining 1 kg ortishi uchun sarflanadigan oziqa esa 12,2 foizgacha kamayadi [8].

Tabiiy gilmoyalar faqatgina oziqabop emas, balki «dorivor» moddalar hamdir. Ular tibbiyot va veterinariya farmosevtikasida ko‘pgina dorilarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Ma’lumotiga ko‘ra, Azkamar gilmoyasining kimyoviy formulasi quyidagicha: $N_{0.48} K_{0.10} Ca_{0.07} (Mg_{0.35} Fe_{0.17} Al_{1.31} Al_{0.15} Si_{3.85}) O_{10} (OH_{12}) H_2O$. Kimyoviy formuladan ko‘rinib turibdiki, kation almashinushi bo‘yicha gilmoya tarkibida natriy elementining ko‘p bo‘lishi ayni muddaodir, chunki O‘zbekiston hududidagi tuproq va oziqalar uning antoganisti hisoblangan kalsiy elementiga boy. Kalsiy faollik qatoriga ko‘ra natriydan ancha pastda turadi va kalsiyning gilmoyada sorbsiya bo‘lishi oqibatida natriy ionlarining ko‘payishiga olib keladi va bu esa organizmda minerallar almashinuvini yaxshilaydi [23].

Muallifning ta’kidlashicha, gilmoya tarkibida mrganes, kobalt, mis va boshqa organizm uchun zarur elementlarning bo‘lishi aniqlangan. Shu bilan birga margumush va qurg‘oshining bentonit tarkibida minimal miqdorda bo‘lishi esa uning oziqa tarkibiga bemalol qo‘shish imkoniyatini beradi. Azkamar gilmoyasining moylilik sig‘imi - 18,1%, tarkibidagi karbonatlar - 3,6%, tuzlar - 0,28%, modda almashinuv sig‘imi 1 soatda - 58,8 mg/ekv.ga teng.

Bugungi kunda 40 ga yaqin minerallar fanga ma’lum bo‘lib, ular bir-biridan rangi, qattiqligi va fiziko-kimyoviy xususiyatlari bilan farq qiladi. Ularning tarkibi 40 ga yaqin mineral moddalardan iborat bo‘lib, asosan kremniy oksidi, alyuminiy, magniy, natriy, kaliy, fosfor, mikroelementlardan hayvonlar organizmi uchun muhim hisoblanadigan temir, mis, rux, marganes, kobalt, selen, molibden kabilardan iborat.

Minerallarning ta’siri birinchi navbatda hayvonlarning oshqozonichak tizimiga kuzatilib, bu ta’sir ularning buferlik, ionlar almashinushi va sorbsion xususiyatlaridan iborat bo‘ladi. Ular katta faol yuzaga ega bo‘lganligi uchun ammiak, vodorod sulfid, metan, karbonat angidrit, fenollar, ekzo- va endotoksinlar, og‘ir metallar, radionuklidlar va ba’zi mikroorganizmlarni o‘ziga sorbsiya qiladi [56, 64, 88].

Siolitlar biologik jihatdan ham juda faol hisoblanib, modda almashinuvlariga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, jigar va muskullarda glikoliz va glikogenoliz jarayonlari va shuningdek, glikogen va umumiylipidlarning to‘planishi, oksidlanish-qaytarilish jarayonlari jadallahadi, gemopoezni stimullaydi, organizmning spesifik va nospesifik rezistentligi, turli xil noqulay stress ta’sirotlarga nisbatan chidamligi va qonning buferlik sig‘imi ortadi.

Sog‘indan chiqarilgan bo‘g‘oz sigirlarda modda almashinuvlarining buzilishi va buzoqlar diareyasi orasidagi bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Bu

kasalliklaring umumiyligi profilaktikasi bo‘g‘oz hayvonlarni to‘la qiymatli va fiziologik jihatdan asoslangan ratsionda boqishdan iborat bo‘ladi [27].

Muallifning ta’kidlashicha, bo‘g‘oz sigir va g‘unoinlar uchun dukkakli o‘tlar va har xil o‘tlar pichanlari eng yaxshi oziqa hisoblanib, bo‘g‘ozlikning oxirgi ikki oyi davomida silos va senaj berishni 5-6 kg.gacha kamaytirilishi lozim.

Buzoqlarda mikroelementzlarni profilaktika qilishda mikroelementlarning kompleksonatlaridan foydalanishni iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini ma’lum qilishadi [76].

Mualliflar temir kompleksonat va mis kompleksonatlarni (kupasetat) alohida holda va birgalikda qullash bilan tajribalar o‘tkazishgan. Tajribalarning oxiriga kelib mikroelementlarning preparatlari qo‘llanilgan guruhga nisbatan ularning kompleksonatlari qo‘llanilgan guruhda qon zardobidagi umumiyligi oqsil miqdorining 0,29 g%, kalsiyni - 0,57 mg%, fosforni - 0,5 mg%, glyukozani - 5,0 mg%, ishqoriy zahirani - 9,0 hajm%CO₂ va A vitaminini miqdorini 8,7 mkg% ga ortishi qayd etilgan.

Ma’lumotlariga ko‘ra, chorva mollarining mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyoji hududdagi geokimyoviy sharoitlarga, shuningdek, mollarning turi, yoshi, mahsuldarligi va fiziologik holatiga (bo‘g‘ozlik, sut berish davri) hamda yem-xashaklardagi mikroelementlardan foydalanish darajasiga bog‘liqdir [28].

Mualliflar chorva mollarida mikroelementlarning yetishmasligi yoxud ortiqchaligini aniqlash uchun yem-xashaklarni, mollarning oziqlantirilishini tekshirish, mollarning klinik holatini e’tiborga olish, kasalliklarga xos klinik belgilarni aniqlash va maxsus tajribalar o‘tkazish natijalariga asoslanish lozimligini ta’kidlaydilar.

Ma’lumotlariga ko‘ra, qoramollarda mis yetishmovchiligining oldini olish uchun bir bosh sigirga bir sutkada 50-100 mg, buzoqlarga 25-50 mg mis kuporosi berish kerak [28].

Mualliflar kobalt yetishmovchiligining oldini olish uchun qoramollarga bir sutkada 10-15 mg, buzoqlarga 3-8 mg, quylarga 2-3 mg va qo‘zilarga 1-2 mg kobalt xloridni omixta yemlarga aralashtirib berishni tavsiya etadi.

Qoramollarda enzootik osteodistrofiyani davolash va oldini olish uchun qo‘yidagi tadbirlarni o‘tkazishni tavsiya etadi:

1. Ratsionni tahlil qilib, undagi yetishmovchilikni tugatish, oziqalarni hazmlanishini yaxshilovchi preparatlarni qo‘llash;

2. Mineral aralashmalarni qo‘llash bilan ratsiondagagi kalsiy - fosfor nisbatini balanslashtirish, enedimik osteodistrofiya-ning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan mikroelementlarning tuzlarini ratsionga kiritish;

3. Katta qorin mikroflorasining faolligini oshirish uchun og‘iz oraqali qand, oziqbop achitqilar, B guruhi vitaminlarini qo‘llash;

4. Qon zardobidagi karotin miqdorining kamayishi kuzatilganda muskul orasiga A vitamini preparatlaridan 200 ming XB miqdorda yuborish.

5. Tuproq sharoitini yaxshi o‘rganib, yetishmaydigan elementni mineral o‘g‘itlar sifatida ishlatish maqsadga muvofiq yoki omixta yemlarni mikroelementlar bilan boyitish lozim [84].

Bashqirdiston Uraloldi subregionida enzootik osteodistrofiyani davolash va oldini olishda tarkibiga yod, marganes, rux, mis va marganes tuzlari qushilgan polisollardan foydalanishni tavsiya etishgan, hamda mis, kobalt, yod, kazein kislotali kompleks preparatini qo‘llash ham yaxshi natija berishini ta’kidlaydilar [86].

Mualliflar malumotlariga ko‘ra, bo‘g‘oz g‘unojinlarda modda almashinuvi buzilishlarini oldini olish va ekologik gomeostazni ma’romlashtirish maqsadida tarkibi seolit saqlovchi mineral qo‘srimcha aybesit, mikroelementlar tuzlari (bir boshga mg hisobida: mis sulfat- 110,0-25,0; rux sulfat- 1043,0-1100,0; kobalt xlorid 6,81-7,1; kaliy yodid- 2,5-2,8; natriy tiosulfat- 0,02-0,03) va trivitamindan iborat majmuani 60 kun davomida qo‘llash ularda bug‘ozlikning me’yorida kechishini, buzoqlarning tug‘ilgandagi tana vaznining 3,8-12,3 % ga yuqori bo‘lishini va hayotining birinchi 10 kunligida kasallanishining 16,7 % ga kamayishini ta’minlaydi [97].

Mualliflar shuningdek, qoramollarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarini guruh usulida profilaktika qilishda tarkibi osh tuzi, monokalsiyfosfat, kobalt xlorid, mis sulfat, rux sulfat, kaliy yodid va natriy gidrokarbonatdan iborat tuzli-mineralli aralashma (briketni) qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini ma’lum qiladi.

Mualliflar tajriba guruhidagi hayvonlarda nazorat guruhiga nisbatan klinik statusning, qonning asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlari, tana vazni ortishi, ona xayvonlarda reproduktiv xususiyatlar va homilaning fiziologik ko‘rsatkichlarining hamda sut mahsuldarligi va uning yog‘liliginin yuqori bo‘lishini kuzatishgan.

Trivit preparatining organizmda makro- va mikroelementlar almashinuviga ijobiy ta’sir etishini ta’kidlaydi. Muallif trivit preparati qo‘llanilgandan keyin osteodistrofiya bilan kasallangan sigirlar tush suyagidan olingan biooptant tarkibida kalsiy, fosfor, temir, mis, rux va marganes miqdorining ishonarli darajada Mualliflar tajriba guruhidagi hayvonlarda nazorat guruhiga nisbatan klinik statusning, qonning asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlari, tana vazni ortishi, ona xayvonlarda

reproduktiv xususiyatlar va homilaning fiziologik ko'rsatkichlarining hamda sut mahsuldorligi va uning yog'liligining yuqori bo'lishini kuzatishgan.

Trivit preparatining organizmda makro- va mikroelementlar almashinuviga ijobiy ta'sir etishini ta'kidlaydi. Muallif trivit preparati qo'llanilgandan keyin osteodistrofiya bilan kasallangan sigirlar tush suyagidan olingan biooptant tarkibida kalsiy, fosfor, temir, mis, rux va marganes miqdorining ishonarli darajada ortishini, qon zardobida esa kalsiy va rux miqdorini biroz kamayishini kuzatgan. Muallif qonda ayrim minerallar konsentrasiyasining tajribalar boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan kamayishini ularning suyaklarga so'riliشining kuchayishi bilan izohlaydi [18].

Muallifning ma'lum qilishicha ona cho'chqalar ratsioniga qo'shimcha ravishda 1 kg oziqaga 6-8 mg yod elementini qo'shib berish ularning pushtdorligini 24-50%ga, cho'chqa bolalari tug'ilgandagi tana vaznining 16,9 %ga ortishini ta'minlaydi. Yangi tug'ilgan cho'chqa bolalarining kasallanishi va o'limi keskin kamayadi [68].

Bug'oz sigirlar ratsioniga qo'shimcha ravishda kuniga 1 kg tana vazniga 0,1 mg hisobida kaly yodid, 0,2 mg 1 mg dozada kaly permanganat (1:2000 nisbatli eritma holida) preparatidan 4 oy davomida berish ularda moddalar almashinuvini maromlashtirishi, tug'iladigan buzoqlarning dispepsiya bilan kasallanishining oldini olishi va ularning tug'ilgandagi tana vaznining o'rtacha 2,5-3 kg.ga ko'p bo'lishini ta'kidlaydi [47].

Qoramollarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarini guruh usulida profilaktika qilishda tarkibi osh tuzi, monokalsiyfosfat, kobalt xlorid, mis sulfat, rux sulfat, kaly yodid va natriy gidrokarbonatdan iborat tuzli-mineralli aralashmani qo'llashning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini ma'lum qiladi [33].

Mualliflar tajriba guruhidagi hayvonlarda nazorat guruxiga nisbatan klinik statusning, qonni asosiy biokimyoiy ko'rsatkichlari, tana vazni ortishi, ona hayvonlarda reproduktiv xususiyatlar va homilaning fiziologik ko'rsatkichlarining hamda sigirlarda sut mahsuldorligi va uning yog'liligi yuqori bo'lishini kuzatishgan.

Hayvonlarni bir joyda boqishda mikroelementlar yetishmovchiliginini profilaktika qilish uchun mis sulfat (tarkibi: 25%- mis, 12% - oltingugurt), kobalt xlorid (24% gacha kobalt saqlaydi), rux sulfat (tarkibi: 22%-rux, 11% oltingugurt), marganes sulfat (20% gacha marganes saqlaydi), kaly yodid (kayod) preparatlarini osh tuzi bilan aralashma (yalama-briket) holida qo'llashni tavsiya etadi [26].

Bentonitni hayvonlarning mahsuldorligiga va jigarning funksional holatiga ijobiy ta'siri to'g'risida ma'lum qiladilar. Bentonit kuchli sorbsion xususiyatga ega bo'lib, uning tarkibida hayvonlar organizmi uchun kerakli bo'lgan marganes, kobalt, mis, rux kabi mikroelementlar bor. Bentonit hayvonlarning o'sishini stimullaydi [13].

Tavsiya etishicha, osteodistrofiya kasalligini davolash va oldini olishda terapevtik va profilaktik alost (tarkibi: diammoniyfosfat, kalsiy fosfat, magniy sulfat, natriy gidrokarbonat, kobalt, mis, rux, marganes va yod tuzlari, melasa yoki qand, A, D, E vitaminlari va to'ldiruvchi vosita) aralashmalari yaxshi natija beradi [42].

Sog'indan chiqarilgan sigirlar ratsioniga 0,84% monokalsiyfosfat va 0,042% Introvit A+WS qo'shib tayyorlangan boyitilgan granula shaklidagi omuxta yemni 1 kg/100 kg tana vazni hisobida 90 kun davomida berilishi, organizmda vitamin va minerallar almashinuvini me'yorlashtiradi, tug'ilgan buzoqlar vaznini nazorat guruhiga nisbatan 27,1% gacha, kunlik sut sog'imini 5-5,5 litrga ko'paytiradi hamda alimentar bepushtliklarning oldini oladi [124].

Ma'lumotlariga ko'ra, qo'ylarda alimentar osteodistrofiyaning oldini olish uchun oziqa bilan birgalikda tarkibida 10 g monokarbomid-monokalsiy-fosfat, 10 mg mis sulfat, 2 mg kobalt xlorid, 0,3 mg kayod preparatlarini saqlovchi kompleks aralashmadan 60 kun davomida omixta yemlarga qo'shimcha ravishda beriladi. Ushbu aralashma ta'sirida katta qorin devorining harakati va oshqozon oldi bo'limlarida hazmlanish jarayonlari tiklanadi, qondagi eritrositlar soni 32,4% ga, gemoglobin 27%, umumiyoq - 41,3, umumiyoq kalsiy - 23,5, anorganik fosfor - 19,6% ga ko'payadi, ishqoriy fosfataza faolligi esa pasayadi [31].

Sog'indan chiqarilgan bo'g'oz sigirlarning ratsioniga qo'shimcha tarkibi: osh tuzi, monokalsiyfosfat, natriy gidrokarbonat, natriy, magniy, marganes, mis sulfatlar, kobalt xlorid, kaliy yodid va natriy selenitlardan iborat P60-1 aralashmasini sigirlarning sutfdan siqarilgan davri mobaynida qo'llash bilan tajribalar o'tkazishgan. Tajribalarning oxiriga kelib, tajriba guruhidagi sigirlardan tug'ilgan buzoqlarning nazorat guruhiga nisbatan rivojlanganligi va organizm rezistentligining yuqori bo'lishi, tug'ilgandagi tana vaznining 5-8 foizga ko'p yuqori va buzoqlarning dispepsiya bilan kasallanish darajasi ancha past bo'lgan, kasallangan buzoqlarning ham to'liq sog'ayishi kuzatilgan [55].

Ma'lum qilishicha, yod yetishmaydigan biokimyoviy provinsiyalarda yuqori mahsuldor hayvonlarda moddalar almashinuvi buzilishlari hamda organizm rezistentligining pasayishi kuzatiladi [16].

Mualliflarning ta'kidlashicha, yod yetishmovchiligin davolash maqsadida amiloidin preparatini qo'llash nospesifik rezistentlikni ko'tarilishi va qon zardobidagi umumi oqsil, beta- va gamma-globulinlar miqdorining ortishini ta'minlaydi.

Ma'lum qilishicha, sigirlar bo'g'ozligining 6-7 oyligidan boshlab va tuqqandan keyin ham 1-2 oy davomida ratsionga qo'shimcha ravishda bir boshga o'rtacha 3,06 mg kaliy yodid, 2,02 mg mis sulfat, 1,73 mg marganes xlorid preparatlarini qo'llash ularda ko'payish xususiyatlarini yaxshilaydi va yangi tug'ilgan buzoqlarda oshqozon ichak kasalliklarining kamayishini ta'minlaydi [7].

Bo'g'oz sigirlarda mikroelementlarni oldini olish uchun vitamin-mineral-aminokislotali «vitamin-somplex+oligo» preparatini ikki marta qo'llashni tavsiya etadi. Preparat ta'sirida sigirlarda eritropoez, gemoglobin sintezi va eritrositlarning tuyinish darajasining yaxshilanishi, qon zardobidagi umumi oqsil va albuminlar, umumi kalsiy va anorganik fosfor hamda A vitamini miqdorlarining ortishi qayd etilgan [49].

Mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligin oldini olish uchun kuniga bir boshga bir marta 100 mg kaliy yodid, 150 mg rux sulfat, 100 mg marganes sulfat va 20 mg kobalt xlorid qo'shib tayyorlangan granulali omuxta yem kuniga bir boshga o'rtacha 6 kg dan berilishi ularda moddalar almashinuvini yaxshilaydi, kuyikishni tezlashtiradi, jinsiy sikni me'yorida kechishi, servis davrini nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 60-70 kunga qisqarishini ta'minlaydi [103].

Qator makro- va mikroelementlar (Ca, Fe, Cu, Zn, K, Na) yetishmaydigan ratsionlarda parvarishlanayotgan bo'g'oz sigirlar va ulardan tug'ilgan buzoqlarda gipomikroelemen-tozlarni oldini olishda makro- va mikroelementlardan iborat «Profstimkor» kompleks preparatini qo'llashni tavsiya etadi. Preparat sigirlarning tug'ishiga 45 kun qolgandan boshlab qo'llanilganda qondagi makro- va mikroelementlar miqdorining me'yorlar chegarasida bo'lishi, eritrositlar, leykositlar va gemoglobin miqdorining shunga mos ravishda 12, 15 va 22,2 foizga ortishi kuzatilgan [78].

Hududning biogeokimyoviy xususiyatlari, tuproq, oziqalar va suvni kimyoviy ko'rsatkichlarni bo'yicha tekshirish natijalariga asoslangan holda hayvonlarda endemik mikroelementzlarning sabablari, kechish xususiyatlari, klinikasi va qondagi kuzatiladigan morfobiokimyoviy o'zgarishlarni tahlil qilish asosida hamda bo'g'oz sigirlarda mikroelementlar yetishmovchiligi kasalliklarini guruh usulida davolash hamda profilaktika qilish vositalarini tanlash, ularning terapeutik va

iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy - xo'jalik tajribalari o'tkazildi.

Respublikamiz fermer xo'jaliklari sharoitida hududning biogeokimyoviy xususiyatlari o'rganish, hayvonlarda endemik mikroelementozlarning kechish xususiyatlari, klinikasi va qondagi kuzatiladigan morfobiokimyoviy o'zgarishlarni tahlil qilish asosida bo'g'oz sigirlarda mikroelementlar yetishmovchiligi kasalliklarini guruh usulida profilaktika qilish vositalarini tanlash, ularning terapevtik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy - xo'jalik tajribalari o'tkazildi.

Tajribalar uchun «o'xshash juftliklar» tamoyili asosida har birida 5 boshdan 7 oylik bo'g'oz sigirlar bo'lgan ikkita guruh tashkil etilib, birinchi (tajriba) guruhdagi bo'g'oz sigirlar ratsioniga qo'shimcha ravishda tarkibi: 50 g bentonit, 150 mg kaliy yodid, 200 mg mis sulfat, 40 mg kobalt xlorid, 200 mg marganes sulfat, 250 mg rux sulfat, A vitaminini 240 ming XB, D₃ 160 ming XB, 100 mg E vitaminidan iborat «Mikrovit» aralashmasidan bir boshga 50 g, bir kunda bir marta 60 kun davomida omixta yemlarga aralashtirib berildi. Ikkinci (nazorat) guruhdagi bo'g'oz sigirlar esa faqat xo'jalikda joriy etilgan ratsionda (XR) boqildi.

Tajribalarni boshlashdan oldin tajriba va nazorat guruhidagi bo'g'oz sigirlarda umumiy holsizlanish, ishtahaning o'zgarishi, oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniysi, shilliq pardalarning anemiysi, oxirgi dum umurtqalarining turli darajada so'riliishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi, teri qoplamasи, shox va tuyuqlar yaltiroqligining pasayishi, ko'z, og'iz atrofida junlarning tushib ketishi kabi vitaminlar, makro- va mikroelementlar almashinushi buzilishlariga xos klinik belgilar qayd etilgan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib, tajriba guruhidagi bo'g'oz sigirlarda mikroelementlar almashinushi buzilishlariga xos klinik belgilar deyarli kuzatilmaydi.

Ikkinci nazorat guruhidagi bo'g'oz sigirlarda klinik ko'rsatkichlarni tajribalarning oxirigacha yomonlashib borishi qayd etildi va shuningdek, holsizlanish, harakatning chegaralanishi, ishtahaning pasayishi va o'zgarishi, shilliq pardalar anemiysi, deyarli barcha sigirlarda kesuvchi tishlarning qimirlashi, teri qoplamasи, shox va tuyuqlar yaltiroqligining pasayishi, ko'z atrofida junlarning tushib ketishi, yolg'on yollarning hosil bo'lishi kabi mikroelementozlarga xos belgilar kuzatildi.

Bo'g'oz sigirlar qonining ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari tajribalarni boshlashdan oldin tajriba va nazorat guruhlarida bir xil ko'rsatkichlar bilan xarakterlangan bo'lsa, nazorat guruhidagi bo'g'oz

sigirlarda morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarni tajribalarning oxirigacha yomonlashib borishi qayd etildi.

Tajriba guruhidagi bo'g'oz sigirlarda tajribalarning oxiriga kelib, dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan qonidagi eritrositlar sonining 1,2 mln/mkl.ga, gemoglobinni - 23,1 g/l, glyukozani - 0,94 mmol/l, umumiy oqsilni - 10,2 g/l, ishqoriy zahirani - 2,1 hajm% CO_2 ga ko'payishi, nazorat guruhidagi bo'g'oz sigirlarda esa eritrositlar sonining dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha - 0,42 mln/mkl, gemoglobinni - 3,2 g/l.ga kamayishi, glyukozani - $1,67 \pm 0,05$ va $1,54 \pm 0,06$ mmol/l atrofida bo'lishi, umumiy oqsil miqdonini - 2,8 g/l, ishqoriy zahirani - 2,4 hajm % CO_2 ga kamayishi qayd etildi. Bu guruhdagi sigirlarda qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarini bo'g'ozlikning oxirgi davrlarigacha yomonlashib borishini sigirlar organizmining to'yimli moddalar, vitaminlar va mineral moddalarga nisbatan ehtiyojlarining qondirilishini yomonlashishi, moddalar almashinuvining izdan chiqishi bilan izohlaymiz.

Bo'g'oz sigirlar qonining mineral tarkibi tajriba guruhida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan umumiy kalsiy miqdonining $2,47 \pm 0,09$ mmol/l.dan $2,83 \pm 0,09$ mmol/l.ga, anorganik fosforning - $1,34 \pm 0,06$ mmol/l.dan $1,59 \pm 0,05$ mmol/l.ga, misni - $11,6 \pm 0,13$ mkmol/l.dan $14,0 \pm 0,09$ mkmol/l.ga, kobaltni - $0,39 \pm 0,06$ mkmol/l.dan $0,53 \pm 0,05$ mkmol/l.ga, marganesni - $2,09 \pm 0,07$ mkmol/l.dan $3,05 \pm 1,02$ mkmol/l.ga va ruxni - $34,3 \pm 4,4$ mkmol/l.dan $43,6 \pm 3,6$ mkmol/l.gacha ko'payishi, nazorat guruhidagi sigirlarda esa umumiy kalsiy miqdonining o'rtacha - 0,21 mmol/l, anorganik fosforning - 0,16 mmol/l, misni - 0,88 mkmol/l, kobaltni - 0,27, marganesni - 0,58 va rux miqdonini - 6,49 mkmol/l ga kamayishi qayd etildi.

9-jadval

Tajribadagi sigirlar qonining mikroelementli tarkibi

Guruhsiz		Mis, mkg%	Kobalt, mkg%	Marganes, mkg%	Rux, mkg%
Me'yor		90-110	3,0-5,0	15-25	300-500
I tajriba	A	73,7 $\pm 2,13$	2,31 $\pm 0,06$	11,5 $\pm 0,07$	223,1 $\pm 4,4$
	B	89,3 $\pm 1,72$	3,16 $\pm 0,05$	16,8 $\pm 1,02$	283,7 $\pm 7,6$
II nazorat	A	74,2 $\pm 2,34$	2,78 $\pm 0,07$	14,5 $\pm 0,08$	217,8 $\pm 9,3$
	B	68,6 $\pm 1,61$	2,19 $\pm 0,08$	11,3 $\pm 0,09$	175,6 $\pm 4,7$

Eslatma: A- tekshirishlar boshida; B- tekshirishlar oxirida.

Sigirlarda mikroelementozlarini guruhli profilaktika qilish borasida o'tkazilgan tadqiqotlarimiz asosida tarkibi mikroelementlar va vitaminlardan iborat "Mikrovit" profilaktik majmuasi yaratildi va ishlab chiqarishga joriy etildi. Bu preparatni qo'llashning iqtisodiy va profilaktik samarasi yuqori bo'lib, mikroelementozlarni guruhlab profilaktik davolash maqsadida 60 kun davomida omixta yemlarga aralashtirilgan holda qo'llash sigirlar sut mahsuldorligining 20 foizga, buzoqlarni tug'ilgandagi tana vaznining 6,4 foizga ortishi va ularning dispepsiya bilan kasallanishining 60 foizga kamayishini ta'minlaydi.

10-jadval

"Mikrovit" preparatining tarkibi

Nº	Tarkibi	O'Ichov birligi	Profilaktik dozasi
1	Bentonit	g	50
2	Mis sulfat	mg	200
3	Kobalt xlorid	mg	40
4	Marganes sulfat	mg	200
5	Rux sulfat	mg	250
6	Kaliy yodid	mg	150
7	A vitamini	ming XB	240
8	D ₃ vitamini	ming XB	160
9	E vitamini	mg	100

HAYVONLARNING ENDEMIK MIKROELEMENTOZLARI

Mikroelementozlar - patologik jarayonlarning umumlashtirilgan nomlanishi bo'lib, mikroelementlarning yetishmovchiligi, ortiqchaligi yoki ular orasidagi nisbatlarning buzilishi bilan xarakterlanadi. Bu guruhga mansub kasalliklarning ko'pchiligi endemik kasalliklar (Morbi endemica, grekcha - morbis - kasallik, endemos - mahalliy) guruhiga mansub bo'lib, ma'lum biogeokimyoviy regionlarda (provinsiyalarda) uchraydi va tuproq, suv hamda oziqalar tarkibida hayotiy muhim kimyoviy elementlarning yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi bilan xarakterlanadi.

Biogeokimyoviy provinsiyalar, hayvonlar organizmi kimyoviy tarkibi bilan yer sharning tarkibi orasidagi chambarchas bog'liqlik to'g'risidagi ta'limotni akademik V.I.Vernadskiy yaratgan. Biogeokimyoviy provinsiyalar va ularning insonlar va hayvonlarda endemik kasalliklarning kelib chiqishidagi ahamiyati to'g'risidagi ta'limotning asoschisi A.P.Vinogradov hisoblanadi.

Insonlar va hayvonlarda endemik kasalliklarni kelib chiqishi bilan

tashqi muhitdagi kimyoviy elementlarning miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga asoslangan biogeokimyoviy rayonlashtirish t'limotini V.V.Kovalskiy yaratgan.

Hayvonlarda endemik kasalliklarni o'rganishga olimlardan Ya.M.Berzin, I.A.Karde, A.A.Kabish, N.A.Sudakov, S.A.Ivanovskiy, A.P.Kudryavsev, O'zbekistonda M.A.Rish, Sh.N.Nazarov, R.P.Pushkarevlar o'z hissalarini qo'shishganlar.

Tabiatda uchraydigan 92 elementdan 82 tasi insonlar va hayvonlar organizmida aniqlangan bo'lib, yod, mis, rux, kobalt, xrom, molibden, rikel, vanadiy, selen, marganes, surma, ftor, kremniy va litiy essenseal, ya'ni hayotiy muhim elementlar hisoblanadi.

Etiologik tamoyilga ko'ra, mikroelementzlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: a) tabiiy (endemik), b) texnogen, v) alimentar-kundalik. Tabiiy (endemik) mikroelementzlar endemik zonalar yoki provinsiyalarda tuproq, suv va oziqalarda mikroelementlarning yetishmovchiligi, ortiqchaligi yoki ular orasidagi nisbatlarning buzilishi oqibatida kelib chiqadi.

V.V.Kovalskiy to'rtta biogeokimyoviy zona va undagi bir necha provinsiyalarni farqlashni tavsiya etadi:

1. Tayga-o'rmon noqoratuproqli zona - tuprog'i kislotaligining yuqoriligi, tuproq, suv va oziqalar tarkibida kalsiy, fosfor, kaliy, molibden, kobalt, mis, yod, bor va selenning yetishmovchiligi hamda stronsiyning ortiqchaligi bilan tavsiflanadi. Bu zonada hayvonlar orasida gipokobaltoz, endemik buqoq, endemik osteodistrofiya, gipokuproz, urov kasalligi va oq mushak va boshqa kasalliklar qayd etiladi;

2. O'rmon-cho'l va cho'l qoratuproqli zona - tuprog'i kuchsiz ishqoriy yoki neytral muhitga ega bo'lib, tarkibidagi elementlar miqdori va nisbatlari bo'yicha optimal ko'rsatkichlarga yaqin bo'ladi;

3. Quruq cho'l, cho'l va yarim cho'l zona - tuprog'i neytral yoki ishqoriy muhitga ega, tarkibida natriy, stonsiy, rux, sulfatlar, bor va molibden ortiqcha va yod, mis, kobalt, marganes yetishmaydi. Ayrim hollarda nitratlarning ortiqchaligi kuzatiladi. Bu zonada bir-biridan farq qiladigan provinsiyalar mavjud bo'lib, mis yetishmaydigan, sulfatlar va molibden ortiqchaligi kuzatiladigan provinsiyalarda qo'zilarda, ba'zan uloq va buzoqlarda enzootik ataksiya; bor otiqchaligi kuzatiladigan provinsiyalarda qo'ylar va tuyalarda endemik enterit; stonsiya va kalsiy ortiqcha provinsiyalarda hayvonlarda suyaklarning patologiyasi qayd etiladi.

4. Tog' zonasasi - klimatik-tuproq sharoitlarining turli xilligi bilan xarakterlanib, yod, kobalt yetishmovchiligi provinsiyalari kuzatiladi,

hayvonlar orasida ushbu elementlarning yetishmovchiligi kasalliklarining kuzatilishi xarakterli bo‘ladi.

Keyingi yillarda endemik kasalliklarning ananaviy tarzda kechishi kam qayd etiladi. Bu holatni omixta yemlar tayyorlash uchun xom ashyoni boshqa hududlardan keltirilishi, premiks va mineral qo‘sishimchalarning keng qo‘llanilishi bilan izohlash mumkin. Lekin hayvonlarda yashirin tarzda kechuvchi mikroelementlar yetishmovchiligi kasalliklari shunday endemik zonaga mansub bo‘lmagan hududlarda ham tez-tez qayd etilmoqda. Bu vaqtida mikroelementlar yetishmovchiligiga bir tomonlama oziqlantirish ya’ni ratsionlarni hayvonlarning bu mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to‘liq qondirmasligi sabab bo‘ladi.

Mikroelementlarning oziqalar tarkibidagi miqdoriga mineral o‘g‘itlarning me’yorsiz ravishda qo‘llanilishi salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Azotli o‘g‘itlar ortiqcha miqdorda ishlatilganda o‘simpliklar tarkibidagi mis, kaliyli o‘g‘itlar ortiqcha miqdorda qo‘llanilganda magniy, fosforli o‘g‘itlar ortiqcha qo‘llanilganda esa o‘simpliklar tarkibidagi rux miqdorining kamayishi kuzatiladi.

Ko‘pchilik endemik kasalliklar surunkali tarzda kechadi. Shuning uchun ularni, ayniqsa kasallikning boshlang‘ich bosqichlarida aniqlashda qiyinchiliklar tug‘iladi. Bu kasalliklarga tashxis quyishda endemik kasalliklarning shu hududda uchrash - uchramasligi, hayvonlarni oziqlantirish tipi, ularni mikroelementlar bilan ta’milanish darjasи, iqlim sharoiti, qon, jun, sut va boshqa biologik substratlarni tekshirish natijalari hamda patologoanatomik o‘zgarishlar hisobga olinadi.

Hayvonlarning mineral moddalar almashinushi buzilishi bilan kechadigan kasalliklari xo‘jaliklarda ko‘p tarqalgan bo‘lib, katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Minerallar almashinuvining buzilishlari oqibatida hayvonlarning semizlik darjasи, mahsuldarligi, ko‘payish xususiyatlari, organizm rezistentligi keskin pasayadi, homilaning rivojlanishida yetishmovchiliklar kuzatiladi. Yangi tug‘ilgan buzoq va qo‘zilarda anatomik va fiziologik yetishmovchiliklar qayd etilib, kasalliklarga tez beriluvchan bo‘ladi va ularning o‘limi ko‘payadi.

ENZOOTIK OSTEODISTROFIYA

Enzootik osteodistrofiya (Osteodistrophia enzootica) - surunkali kasallik bo‘lib, tuproq, oziqalar va suv tarkibida makro- va mikroelementlarning yetishmasligi oqibatida suyak to‘qimasida distrofik o‘zgarishlar kuzatilishi, mahsuldarlikning pasayishi, yosh hayvonlarda

o'sish va rivojlanishning sekinlashishi bilan xarakterlanadi. Asosan qoramol va qo'ylar kasallanadi.

Sabablari. Hayvonlarning enzootik osteodistrofiya bilan kasallanishiga tuproq va oziqalar tarkibida marganes va kobalt elementlarining kam miqdorda bo'lishi hamda nikel, magniy, stronsiy va bariyning ortiqchaligi sabab bo'ladi. Ayrim hududlarda kasallikning sabablarida oziqalar va suv tarkibida yod, kobalt, rux, mis, marganes, molibdenning tanqisligi hamda xrom, nikel va vanadiyning ortiqcha bo'lishi asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Moddalar so'rilishining me'yorida bo'lishi uchun kalsiyning fosforga nisbati 2-3:1 bo'lishi optimal hisoblanadi. Ishqoriy elementlarning me'yoriy darjada almashinuvni uchun ularning ratsiondag'i miqdori 1 oziqa birligiga 0,3-0,5 g to'g'ri kelishi kerak [73].

Muallifning ta'kidlashicha, kislotalik xususyatli elementlar silos, senaj, barda, pivo chiqindisi, qon, go'sht-qon va baliq uni, sut zardobi tarkibida (50,6-73,7 %), ishqoriy elementlar beda va har xil o'tlar pichani, arpa, suli ko'k massasi va ildizmevalilar tarkibida (51,2-73,7 %), fosfor asosan omixta yemlar, kalsiy esa suyak uni va o'simliklardan olinadigan oziqalar tarkibida ko'p bo'ladi.

Ta'kidlashicha, qoramollar orasida endemik osteodistrofiya tuproqlar fosfor kislotalari, kalsiy, kobalt, marganes, yod elementlariga kambag'al va stronsiy, bariy, nikel, ftor va bor ortiqcha bo'lgan regionlarda ko'p uchraydi. Shuningdek, endemik osteodistrofiya oziqalar va suvning tarkibida yod, oqsillar, D, A, C va B guruhi vitaminlari yetishmaganda hamda magniy, sulfatlar, ftorli vodorod, kumir va boshqa kislotalar ortiqcha bo'lganda, natriy va kaliyni kalsiyga, kaliyni fosforga, fosforni magniyga, kobaltni nikelga, stronsiy va bariyni fosfor va kalsiyga nisbatlarining buzilishi oqibatida kelib chiqadi [85].

Ma'lumotlariga ko'ra, enzootik osteodistrofiyaning kelib chiqishida tuproq va oziqalarda kobalt va marganesning yetishmasligi hamda nikel, magniy, stronsiy va bariyning ortiqchaligi asosiy etiologik omil hisoblanadi [36].


Ma'lumotlariga ko'ra, hayvonlarning enzootik osteodistrofiya bilan kasallanishiga tuproq va oziqalar tarkibida marganes va kobaltning yetishmovchiligi hamda nikel, magniy, stronsiy va bariy elementlarining ortiqchaligi sabab bo'ladi. Ayrim hududlarda kasallikning etiologiyasida oziqalar va suv tarkibida yod, kobalt, rux, mis hamda marganes, molibden elementlarining yetishmovchiligi va xrom, nikel, vanadiy elementlarining ortiqchaligi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi [67].

Rivojlanishi. Osteogen mikroelementlar yetishmovchiligi makro- va mikroelementlar nomutanosibligi oqibatida suyak to‘qimasi hosil bo‘lishi va uning o‘sishi yomonlashadi, osteomalyasiya, osteoporoz va osteofibroz jarayonlari kuzatiladi. Marganes, rux, kobalt va boshqa mikroelementlarning yetishmasligi suyak to‘qimasining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, fermentativ tizimlarning zo‘riqishi oqibatida osteodistrofiyaning kelib chiqishini ta’minlaydi. Suyaklarning mineral moddalarga nisbatan kambag‘allashib qolishi suyaklar bufer xususiyatlarining, gomeostaz mexanizmlari va kislota - ishqor muvozanatining buzilishiga sabab bo‘ladi. Qondagi umumiy va ionlashgan kalsiy, anorganik fosfor, magniy, ishqoriy zahira miqdorlari kamayadi.

Ta’kidlashicha, oziqalar tarkibida marganes, yod, kobalt, rux, misning yetishmasligi oqibatida kalsiy va fosforning hazmlanishi va ularning siyidik bilan ajralishi kuchayadi [42].

Qondagi kalsiy va magniy miqdorining kamayishi gavda va silliq muskullar tonusining pasayishi, oshqozon oldi bo‘limlarining gipotoniyasiga sabab bo‘ladi. Kasallik og‘ir kechganda qondagi kalsiyning miqdori 1,875 mmol/l gacha kamayadi, nerv - muskul qo‘zg‘alishi jarayonlari izdan chiqadi, muskullar falaji kuzatiladi.

Enzootik osteodistrofiya paytida qalqonsimon, qalqonoldi va boshqa ichki sekresiya bezlarining funksiyalari izdan chiqadi, tireokalsitonin sintezining kamayishi oqibatida osteoblastlar faoliyati kuchayib, osteoklastlar faoliyati susayadi, osteosintez susayib, osteolizis jarayonlari tezlashadi. Osteoblastlar funksiyasining susayishi oqibatida ishqoriy fosfotaza fermentining faolligi pasayib, gidroksiapatit sintezi izdan chiqadi. Qalqonoldi bezining gipofunksiyasi tufayli qondagi kalsiy miqdorini va hazm trakti orqali mineral moddalarning so‘rilishini boshqarib turadigan paratgormonning ishlab chiqarilishi kamayadi.



**3-rasm. Enzootik
osteodistrofiya kasalligida
majburiy poza**

Belgilari. Shartli ravishda kasallikning uch bosqichi farqlanadi. Birinchi bosqichda teri qoplamasi va tuyoqlar yaltiroqligining pasayishi, ishtahaning pasayishi va o‘zgarishi, mahsuldorlikning kamayishi qayd etiladi. Hayvonlarda lizuxa kuzatilib, bir - birini, oxirlar va devorlarni yalaydi, tushamalarni yeishi mumkin. Bu bosqichda qo‘zg‘aluvchanlik kuchayib, muskullar taranglashadi. Shilliq pardalar oqaradi, oshqozon oldi bo‘limlarining gipotoniyasi, ba’zan qatqorinning qotishi, ich ketishi qayd etilishi mumkin. Tana harorati me’yorlar chegarasida bo‘lib, klinik va qonning morfobiokimyoviy ko‘rsatgichlarida aytarlik o‘zgarishlar kuzatilmaydi.

Kasallikning ikkinchi bosqichida suyak tizimining hamda tog‘ay va muskullarning jarohatlanish belgilari paydo bo‘ladi. Harakat va o‘rnidan turish paytida og‘riq sezish, oqsash, bukchayib turish holati qayd etiladi. Suyaklarning mineralsizlanishi oqibatida umutrqa pog‘onasi qiyshayadi, oxirgi qovurg‘alar cho‘kadi va yupqalashadi, oxirgi dum umurtqalari ingichkalashadi va so‘riladi. Kurak suyagining yupqalashishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi, bo‘g‘inlarning kattalashishi qayd etiladi. Kasal hayvon yog‘och, rezina, selofan kabilarni yutishga harakat qiladi, to‘shamalarni ishtaha bilan iste’mol qiladi. Semizlik darajasi va mahsuldorlik keskin pasayadi. Ko‘pincha suyaklarning sinishi qayd etiladi. Ko‘krak qafasi deformasiyaga uchraydi. Muskullarning qotishi, klonik va tonik qaltiroq, ayrim hollarda muskullar falaji, yurak urishi sonining bir daqiqada 60-80, nafas sonining 40 martagacha yetishi, katta qorin devori 2 daqiqadagi harakatining 3 martadan oshmasligi xarakterli bo‘ladi.

Kasallikning uchinchi bosqichida suyaklarning jiddiy o‘zgarishlari, gavdaning bukchayib turishi, oyoqlarning qiyshayishi, lordoz yoki kifoz, kuchli oriqlash xarakterli bo‘ladi. Kasal hayvon ko‘pincha yotadi, o‘rnidan qiyinchilik bilan turadi, sekin harakatlanadi. Lizuxa kuchayadi, semizlik va mahsuldorlik keskin pasayadi. Osteoskleroz rivojlanishi oqibatida umurtqa pog‘onasi kam haraktchan bo‘ladi.

Enzootik osteodistrofiyaning ikkinchi bosqichida qondagi gemoglobin miqdori, eritrositlar va leykositlar sonining, umumiyligi va ionlashgan kalsiy, anorganik fosfor miqdorining kuchli darajada kamayishi qayd etiladi. Qo‘y va echkilarda enzootik osteodistrofiya paytida sezilarli o‘zgarishlar bosh suyagi va pastki jag‘ suyagida kuzatiladi, ular qalinlashib, deformasiyaga uchraydi. Oqibatda oziqalarni chaynash qiyinlashadi, echkilarda qo‘pincha epeleptik qaltiroq xurujlari qayd etiladi. Teri qoplamasi yaltiroqligini yo‘qotadi, tushuvchan bo‘ladi. Bug‘inlar kattalashadi, qovurg‘a suyaklarida fibrinoz qalinlashish, hayvonlar orasida tez-tez suyaklarning sinishi qayd etilishi xarakterli bo‘ladi.

Ta'kidlashicha, enzootik osteodistro-fiyaning boshlang'ich bosqichida qondagi kalsiyning miqdori me'yorga nisbatan ko'payadi, keyingi bosqichlarida esa 4,4 mg% gacha, fosfor 1,78 mg% gacha kamayadi, magniy 8,38 mg% gacha ortadi. Ko'pchilik kasal hayvonlarda kalsiyning fosforga nisbati kuchli darajada o'zgaradi, ya'ni 2,36:1 dan 10-10,5:1 ni tashkil etishi mumkin. Qondagi kobaltning miqdori 0,13 mkg%, marganes - 45 mkg%, qon zardobidagi umumiy oqsil - 6,54 g% gacha kamayadi [36].

Ma'lumotlariga ko'ra, qo'ylerda enzootik osteodistrofiya qondagi umumiy kalsiy miqdorining 1,87+-0,07 mmol/l, misni - 4,5+-0,14 mkmol/l (me'yor - 7,9-11,0 mkmol/l), selenni - 0,13+-0,025 mkmol/l (me'yor - 1,01-1,52 mkmol/l) gacha kamayishi hamda qondagi anorganik fosfor va magniy miqdorlarining ortishi bilan kechadi [67].

Patologoanatomik o'zgarishlar. Suyak va to'qimalardagi o'zgarishlar xarakterli bo'ladi. Suyaklar deformasiyaga uchragan, yupqalashgan yoki qalinlashgan, bo'rtiklarga ega, yumshab qolgan yoki qattiqlashgan (osteoskleroz) bo'ladi. Naysimon suyaklarda bo'shliq kattalashgan, ularning devori yupqalashgan, ba'zi kasallik oqibatida o'lgan hayvonlarda ba'zan suyaklar devori teshikchalari ochilib qolgan bo'ladi. Ko'krak qafasining shakli o'zgargan bo'lib, uning ichki tomonida qovurg'alar sternal uchlarining ovalsimon qalinlashishi, ba'zan sinishlar, suyak mozollari paydo bo'lishi aniqlanadi. Bug'inlar, ayniqsa paylar birikadigan joylari qalinlashgan, bug'in yuzasida nekroz va yaralar qayd etiladi. Dum umurtqalari orasidagi bo'shliq kengaygan, oxirgilarida osteolizis kuzatiladi.

Ma'lumotlariga ko'ra, qoramollarning znzootik osteodistrofiya kasalligi paytida suyak to'qimasi zichligining kamayishi, osteositlarning 20-25 foizgacha o'lishi, suyak plastinkalarini bir-biriga birikishining buzilishi, ayrim trabekullalarning to'lig'icha lizisga uchrashi oqibatida yacheykalarning birikib ketishidan bo'shliqlarning paydo bo'lishi xarakterli bo'ladi. [18].

Diagnoz. Hududning biogeokimyoviy xususiyatlari o'granoladi, tuproq, oziqalar va suv tarkibi tahlil qilinadi. Ratsionlar tahlil qilinib, uning tarkibi, hayvonlarning assosiy oziqaviy elementlar, biologik faol moddalarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi, kalsiy-fosfor nisbatlari aniqlanadi.

Osteodistrofiyani ertachi diagnostika qilish uchun I.G.Sharabrin usuli S.A.Ivanovskiy modifikasiyasi bilan beshinchil dum umurtqasida rentgenofotometriya, katta kadrlı flyuroografiya, ultratovushli exosteometriya kabi usullar bilan suyaklarning zichligi va minerallanish

darajasi aniqlanadi. Enzootik, alimentar va ikkilamchi osteodistrofiyalarni bir - biridan farqlash lozim.

Kechishi va prognoz. O‘z vaqtida sabablari yo‘qotilib, davolash o‘tkazilganda kasal hayvon 2-3 haftada sog‘ayadi. Og‘ir kechganda va davolash kechikganda kasallik surunkali tus olib, kasal hayvon 12 oy yoki undan ham uzoq vaqtida sog‘ayishi mumkin. Lekin umurtqanining qiyshayishi, dumlarning so‘rilishi, ko‘krak qafasining deformasiyasi va qovurg‘alarning qalinlashishi belgilari saqlanib qoladi.

Davolash. Organizmga suv va oziqalar orqali asosiy oziqaviy moddalarining yetarli darajada tushmasligi oqibatida kelib chiqqan osteodistrofiyalarni davolashda kasal hayvonga beda yoki har xil o‘tlar pichani, sifatli silos, ildizmevalilar beriladi, konsentrat oziqalar berish ko‘paytiriladi. Yoz oylarida ko‘k oziqalarga qo‘srimcha sifatli pichan va konsentratlar beriladi. Oziqlantirish me’ yori 20-25% ga ko‘paytiriladi.

Kalsiy va fosforning qo‘srimcha manbai sifatida oziqabop fosfatlar (oziqabop kalsiy fosfat, monokalsiyfosfat, oziqabop presipitat va b.), suyak, go‘sht - suyak uni, kavshovchilarga diammoniyfosfat, fosfat mochevina beriladi. Ratsionda yetishmaydigan mikroelementlarning tuzlari, A va D vitaminlarining yog‘li konsentratlari, baliq yog‘i yoki vitaminli preparatlar qo‘llaniladi.

Falaj yoki qaltiroqlar kuzatilganda katta hayvonlarga 10 foyizli kalsiy xlorid eritmasidan 400 ml gacha, 10 foyizli magniy sulfat eritmasidan 100 ml vena qon tomiriga yuboriladi. Magniy sulfat eritmasi inyeksiya qilinmasdan faqat kalsiy xlorid eritmasining qo‘llanilishi osteodistrofiyani davolashda yetarlicha samara bermaydi. Kaliy va magniya boy preparat sifatida kamagsol qoramollarga 100-400 ml, otlarga 50-250 va qo‘ylarga 10-20 ml vena qon tomiriga yuboriladi. Fosforga boy preparat sifatida fosfosan qoramollarga 1 kg tana vazniga 0,2-0,4 ml, qo‘y va echkilarga 0,1-0,2 ml hisobida juda sekinlik bilan vena qon tomiriga yuboriladi. Inyeksiya 24 soatdan keyin qaytarilishi mumkin. Glyukoza eritmalari vena qon tomiriga 0,2-0,4 g/kg miqdorda yuboriladi yoki 300-500 g shakar og‘iz orqali ichiriladi. D₃ vitaminini endogen hosil bo‘lishini yaxshilash uchun ochiq havoda yayratish tashkil etiladi yoki ultrabinafsha nurlarning sun‘iy manbalaridan foydalaniladi.

Alimentar-enzootik osteodistrofiyani davolash va oldini olishda alost (tarkibi: diammoniyfosfat, kalsiy fosfat, mgniy sulfat, natriy gidrokarbonat, kobalt, mis, rux, marganes, yod tuzlari, melasa yoki qand, A, D, E vitaminlari va to‘ldiruvchi vosita) aralashmasidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Hayvonlarga alost aralashmasi oziqalarga aralashtirilgan holda 30-40 kun va undan ko‘p vaqt davomida, sutkalik doza ikkiga bo‘linib, ertalab va kechqurun beriladi [42].

Enzootik osteodistrofiyani davolash uchun sog‘in sigirlarga davolovchi aralashma sifatida tarkibi: mis sulfat, marganes sulfat va kobalt xlorid preparatlaridan iborat aralashmadan 1g va kaliy yodiddan 100 mkg kuniga bir marta, 10 kun davomida qo‘llashni tavsiya etadi [63].

Profilaktikasi. Oziqa va pichanlarni ushbu endemiyaga mansub bo‘lмаган hududlardan keltirish tashkil etiladi.

Qoramollarda enzootik osteodistrofiyani profilaktika qilish uchun ratsionga qo‘sishimcha ravishda hayvonning 100 kg tana vazniga 30 mg kobalt va 45 mg marganesni 30-60 kun davomida omixta yemlar bilan qo‘llashni tavsiya etadi. [85].

Ratsionga qo‘sishimcha ravishda kobalt, marganes, rux elementlarini shunga mos ravishda 2,5, 50,0, 350 mkg/100 ml konsentrasiyada alohida-alohida holda qo‘shilganda kalsiyning ingichka bo‘lim ichaklarini oldingi qismida rezorbsiyasining jadal kechishini kuzatilgan.

Sigirlarda enzootik osteodistrofiyani profilaktika qilish uchun ratsionga qo‘sishimcha bir sutkada bir boshga 671 mg marganes sulfat va 125 mg kobalt xlorid berishni va A, D vitaminlarini talab etiladigan dozalarda qo‘llashni, A.I.Batenov (1987) tarkibi: diammoniyfosfat (80 g), kaliy yodit (9 g), kalsiy xlorid (12,6 g), mis sulfatdan (93 mg) iborat mineral qo‘sishimchani qo‘llash hamda tetravit preparatidan har oyda bir marta 15 ml muskul orasiga inyeksiya qilishning suyaklar demineralizasiyasini kamaytirishi va qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlarining me’yorlashtirishini ma’lum qiladi [65].

Enzootik osteodistrofiyani profilaktika qilish uchun ratsionga 30 mg kobalt va 45 mg marganes (100 kg tana vazni hisobida) qo‘sishni tavsiya etadi. Kobalt va marganes tuzlari hayvonlarga 30-60 kun davomida beriladi [12].

Sog‘in sigirlar ratsioniga qo‘sishimcha ravishda tarkibi: 100 g mochevina, 75 g suyak uni, 40 mg mis sulfat, 27,5 mg marganes sulfat, 16,5 g rux sulfat va 5 mg kaliy yodiddan iborat aralashmani qo‘llash va har kuni teri ostiga 5 ml trivitamin inyeksiya qilish enzootik osteodistrofiyani davolashda yuqori terapevtik samara berishi aniqlangan.

Enzootik osteodistrofiyani profilaktika qilish uchun hayvonning 100 kg tana vazniga 30 mg kobalt va 45 mg marganes ratsionga qo‘sishimcha ravishda 30-60 kun davomida omixta yemlar bilan qo‘llash mumkin.

ENDEMIK BUQOQ

Endemik buqoq (Struma endemika) - surunkali tarzda kechadigan kasallik bo‘lib, yodning yetishmovchiligi oqibatida qalqonsimon bezning kattalashuvi (buqoq) va uning funksiyalarining buzilishi bilan xarakterlanadi. Yod yetishmovchiligi o‘choqlari asosan tog‘li tumanlar, daryolarning o‘zanlarida joylashgan tekisliklar, qattiq ishqoriy suvlar yuvib turadigan joylar, botqoqlik, sho‘r va sho‘rxok tuproqli joylarda bo‘ladi.

Sabablari. Yod organizmga asosan oziqalar, suv va qisman nafas havosi orqali tushadi. O‘simliklarda yod juda kam miqdorlarda (yashil o‘tlarda - 400, ildizmevalilarda - 500, donlarda - 300 mkg/kg gacha), suv tarkibida o‘rtacha 0,2-2 mkg/l gacha bo‘ladi. Hayvonot olami oziqalari, ayniqsa, baliq uni yodga boy hisoblanadi. Oziqalarni saqlashda tarkibidagi yodning 30-50 foizga yaqin qismi parchalanib ketadi.

Kasalikning asosiy sababi yod elementining oziqalar va suv tarkibida tanqisligi tufayli organizmda uning yetishmovchiligi hisoblanadi. Yodning miqdori tuproq tarkibida 0,1 mg/kg, suv tarkibida 10 mkg/l dan kam bo‘lgan joylarda kasalikning qayd etilishi aniqlangan. Yod elementining so‘rilishiga boshqa mineral moddalarning miqdori ta’sir ko‘rsatadi. Kalsiy, magniy, qo‘rg‘oshin, ftor, brom, stronsiy, temir ortiqcha bo‘lgan zonalarda yod yetishmovchiligi ko‘p qayd etiladi.

Hayvonlarga ko‘p miqdorda tireostatik moddalar (tiosianatlar) saqlovchi oziqalar: raps, oq beda, lavlagi, turneps va karamning ayrim navlari berilganda yod yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin. Nitratlar, paraaminosalisil kislotasi, tiomochevina birikmalari, tiourasil, sulfanilamidlar, sianogen glyukozidlar ham yoddepressiv ta’sirga ega bo‘ladi.

Oziqa va suv tarkibida kobalt, rux va boshqa mikroelementlar hamda vitaminlarning yetishmovchiligi ikkilamchi omillar hisoblanadi.

Ta’kidlashicha, yodning yetishmovchiligi yosh hayvonlarning o‘sishdan qolishi va katta yoshdagi qoramollarda buqoq kasalligiga sabab bo‘ladi. Hayvonlarning yod elementiga bo‘lgan sutkalik o‘rtacha ehtiyoji oziqaning 1 kg quruq moddasida 0,4 mg.ni tashkil etadi. Yod ingichka bo‘lim ichaklarida yodidlar holida so‘riladi va asosan buyraklar orqali (80%) tashqariga ajraladi. Shuningdek, kam miqdorda ichaklar, teri, o‘pka va sut bezlari orqali ajratiladi [44].

Yod yetishmaydigan biokimyoviy provinsiyalarda yuqori mahsuldor hayvonlarda moddalar almashinuvi buzilishlari hamda organizm rezistentligining pasayishi ko‘p qayd etilishini ta’kidlaydi [34].

Muallif xulosasiga ko‘ra, [Boboyev O.R. Sigirlarda endemik bo‘qoqning etiopatogenezi va guruhli proflaktikasi. veterinariya fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajargan dissertasiya avtoreferati. Samarkand. B. - 19-20.]. endemik bo‘qoq kasalligi Samarqand viloyati sharoitidagi mahsuldor sigirlar orasida 50,0-57,3%, Qashqadaryo viloyati sharoitlarida 35,2-50,0%, Buxoro viloyati sharoitlaridagi sigirlar orasida, 58,0-62,5% gacha, 6-oylikgacha yoshdagi buzoqlar orasida, mos holda, 45,4-66,6%, 46,0-54,5 va 51,0-77,6% gacha tarqalgan bo‘lib, asosan surunkali endemik tarzda kechadi [96].

Muallif xulosasiga ko‘ra, mahsuldor sigirlarning endemik bo‘qoq bilan kasallanishining asosiy sababi hududning yodga nisbatan endemik xususiyati, ikkilamchi sababi bo‘lib esa ratsionning hazmlanuvchi proteinga nisbatan ta’minlanish darajasining 31,8% ga, qandga nisbatan 73% ga, fosforga nisbatan 47% ga yetishmasligi, shuningdek, undagi qand-protein va kalsiy-fosfor nisbatlarining buzilishlari hisoblanadi [96].

Ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida yod elementining yetishmasligiga uning so‘rilishini qiyinlashtiradigan elementlardan kalsiy va magniyning tuproq, suv va o‘simliklar tarkibida ortiqcha bo‘lishi hamda kobalt, mis, marganes va ruxning yetishmasligi sabab bo‘ladi [68].

Ma’lumotlariga ko‘ra, enzootik buqoq surunkali kasalik bo‘lib, yod elementining yetishmovchiligi oqibatida qalqonsimon bezning giperplaziysi yoki gipoplaziysi, tireotrop gormonlar ishlab chiqarilishining kamayishi va moddalar almashinuvining izdan chiqishi bilan xarakterlanadi. Kasallik yodning miqdori to‘proq tarkibida 0,00001%, suv tarkibida 10 mkg/l.dan kam bo‘lgan hududlarda qayd etiladi. Kalsiy va fтор tuzlarining ortiqchaligi va hayvonlarga ko‘p miqdorda dukkakli soya, nuxat, oq beda, karam berilganda ham yod yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin [44].

Ma’lum qilishicha, Moskva oblastida buzoqlarning yod yetishmovchiligi bilan kasallanishi 30 foizga yetadi. Bunga tuproq va oziqalar tarkibida yod elementining yetishmovchiligi sabab bo‘ladi. Shuning uchun bo‘g‘oz sigirlar va yangi tug‘ilgan buzoqlarda yod saqlovchi preparatlarni qo‘llash bilan profilaktik tadbirlarni o’tkazish lozim [25].

Rivojlanishi. Oziqalarning hazmlanishi jarayonlarida yodning organik birikmalari yoditlar holigacha qayta tiklanadi va shu ko‘rinishda asosan ingichka bo‘lim ichaklarida qonga so‘riladi. Ratsionda kalsiy, magniy, temir va stronsiy ortiqcha bo‘lganda yodning so‘rilishi qiyinlashadi. Yod qondan turli to‘qima va a’zolarga o‘tadi va uning asosiy qismi (17-60%) qalqonsimon bezda to‘planadi va u yerda yodidaza

fermentlari ta'sirida yodidlar ko'rinishidan molekulyar yod holatiga o'tadi. Molekulyar yod qalqonsimon bezda tirozin aminokislotasi bilan birikib, mono- va diyodtirozinlar hosil bo'ladi, keyinchalik ulardan qalqonsimon bezning gormonlari triyodtironin (T_3) va tetrayodtironin (T_4 -tiroksin) sintezlanadi [85].

Teriod gormonlarning hujayraviy va subhujayraviy darajadagi modda almashinuvida qatnashishi ularning mitoxondriyalarda modda va energiya almashinuviga ta'siri bilan bevosita bog'liq. Tiroksin elektronlarni mitoxondriyalar zanjiriga o'tkazilishida ATP sintezini to'xtatib qo'yish xususiyatiga ega. Ya'ni gazlar almashinuvi va fosforillanuvchi-oksidlanish jarayonlarining mutanosibligini izdan chiqaradi [82].

Yirik shoxli hayvonlarda yod-kobalt yetishmovchiligi qalqonsimonbezning gormonlar ishlab chiqarish funksiyalarining buzilishiga sabab bo'lib, bu qondagi oqsilga birikkan yodning kamayishi bilan namoyon bo'ladi. Qalqonsimonbez funksiyalarining buzilishi oqibatida yosh hayvonlar o'sish-rivojlanishdan qoladi, tullahning kechikishi, junlarning to'kilib ketishi, azot almashinuvining buzilishi qayd etiladi, qon zardobi va sutda umumiyoq oqsil, erkin aminokislotalar miqdorining kamayishi kuzatilib, ratsionni yod, kobalt va karotinga nisbatan me'yorlashtirish talab etiladi [60, 96].

Oziqa yoki suv bilan tushgan yod oshqozon va ichaklarda qonga so'rildi. Yodidlar qalqonsimon bezda oksidlanib molekulyar yod ko'rinishiga o'tadi va gipofiz bezining tireotrop gormonini stimullaydi. Molekulyar yod qalqonsimon bezida T_4 tiroksin va T_3 triyodtironinning sintezi uchun ishlatiladi. Qalqonsimon bezning tiroksin gormonini ishlab chiqarilishi triyodtironinni ishlab chiqarishdan 10-20 marta ko'p bo'ladi. Qalqonsimon bezning gormonlari qonga uib, plazma oqsillari bilan birikadi. Bu birikmalarning to'qimalarda qayta parchalanishidan tiroksin va triyotironin ajralib chiqadi. Qon plazmasidagi tireoid gormonlar tarkibidagi oqsillar bilan birikkan yod "organik yod" deb ataladi, organik yodning 90-95 foizini tiroksin tashkil etadi.

Yodning organizmdagi ahamiyati bir qancha fiziologik jarayonlarni gumoral boshqarishda qatnashadigan teriod gormonlarning (tiroksin, triyodtironin va boshqa yodli birikmalar) sintezi va almashinuvi bilan bog'liq. Bu gormonlar organizmdagi barcha tizimlar funksiyalarini boshqarishda, to'qimalarning o'sishi va tabaqalanishi, to'qimalar tomonidan kislorodning o'zlashtirilishi, markaziy va periferik asab tizimi holati, metabolizmning kechish jadalligi, issiqlik hosil bo'lishi, yog'lar,

uglevodlar, oqsillar, vitaminlar, suv va bir qancha elektrolitlar almashinuvida faol ishtirok etadi.


Organizmda uzoq muddat yod yetishmovchiligi kuzatilganda tireoid gormonlar sintezi kamayadi, kompensator jarayon sifatida gipofizning tireotrop gormon ishlab chiqarishi kuchayadi, qalqonsimon bezning giperplaziysi, uning kattalashishi kuzatiladi. Avvaliga modda almashinuv buzilishlari kuzatilmasada keyinchalik, uzoq muddat yod yetishmovchiligi oqibatida qalqonsimon bezning nafaqat oddiy giperplaziysi, balki spesifik - buqoq giperplaziysi, organizmda almashinuv jarayonlarining buzilishi, qalqonsimon bezda biriktiruvchi to‘qimaning o‘sishi bilan bir vaqtda bezning hujayraviy elementlarining atrofiyasi kuzatiladi.

Organizmda tireoid gormonlarining yetishmovchiligi uglevod, oqsil, yog‘lar va minerallar almashinuvining buzilishi, o‘sish va rivojlanishdan qolish, reproduktiv hususiyatlarning, oshqozon oldi bo‘limlari mikroflorasining sellyulozalitik faoliyatining pasayishiga sabab bo‘ladi. Tireoid gormonlar kobalt elementining almashinuviga ta’sir etadi.

Yod saqlovchi gormonlarning yetishmovchiligi markaziy asab tizimi, yurak, jigar va boshqa a’zolar funksiyalarining buzilishi bilan o’tadi. Glikoproteidlar almashinuvining buzilishi to‘qimalarda musinning to‘planib qolishi va meksidema kuzatilishiga sabab bo‘ladi. Gipotireoz paytida meksidema paydo bo‘lishini mukoproteid oqsillarining biosintezi va parchalanishining sekinlashishi va ularning to‘planib qolishi oqibatida teri va teri osti kletchatkasida shishlar paydo bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

Belgilari. Katta yoshdagi hayvonlarda klinik belgilar yaqqol namoyon bo‘lmaydi. Yod yetishmovchiligi o‘choqlarida hayvonlarning past bo‘yli, ko‘kragini cho‘zinchoq bo‘lishi, sut, go‘sht, jun va boshqa mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatiladi. Teri qattiq va quruq bo‘lib, kasallangan sigirlar bo‘yni terisida burmalar hosil bo‘ladi. Teri yuzasining shoxlanishi (giperkeratoz), bo‘yin va boshda junlarning kuchli o‘sishidan “yolg‘on yollar” hosil bo‘ladi.

Yo‘ldoshning ushlanib qolishi, bachadon subinvalyusiyasi, tug‘ishdan otalanishgacha bo‘lgan davrning uzayishi, anovulyator jinsiy sikl, follikulyar kistalarning hosil bo‘lishi, tuxumdonlar gipofunksiyasi qayd etiladi. Ko‘pincha bola tashlash, o‘lik yoki nimjon bola tug‘ilishi kuzatiladi. Yod yetishmovchiligi ko‘pincha gipoterioz belgilari bilan kechadi, ya’ni enoftalm (ko‘z olmasining cho‘kishi) va jag‘ osti bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planishi bilan o‘tadigan meksidema kuzatiladi. Bradikardiya, ya’ni sigirlarda 1 daqiqadagi yurak urishi sonining 32-28 martagacha kamayishi xarakterli bo‘ladi.



4-rasm. Endemik buqoq bilan kasallangan qo‘zida qalqonsimon bezning kattalashishi.

Endemik buqoq qalqonsimon bez funksiyasining me'yorda yoki me'yordan yuqori darajada bo'lishi bilan kechishi mumkin. Kuchli darajadagi yod yetishmovchiligidagi katta yoshdagi qo'ylarda qalqonsimon bezning kattalashishini aniqlash mumkin. Yodning yetishmovchiligi belgilari yosh hayvonlarda xarakterli bo'ladi, tug'ilgandagi vazni kichiklashib, qo'zilarda 0,7-1,5, buzoqlarda 12-15 kg gacha bo'lishi, terida junsiz joylar yoki butunlay junsiz tug'ilish, qalqonsimon bezning kattalashib, qo'zichoqlarda 50-150, buzoqlarda 150-200 grammgacha yetishi kuzatiladi.

Ona hayvonlar organizmida yodning yetishmovchiligi yangi tug'ilgan hayvonlarda qalqonsimon bezning kattalashishi "buqoq" kuzatilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari nimjon yoki o'lik bola tug'ilishi mumkin.

Endemik buqoq qalqonsimon bez funksiyasining me'yorda yoki me'yordan yuqori darajada bo'lishi bilan kechishi mumkin. Yodning yetishmovchiligi belgilari yosh hayvonlarda xarakterli bo'lib, terida junsiz joylarning kuzatilishi yoki tanasining butunlay junsiz bo'lishi, qalqonsimon bezning kattalashib, qo'zichoqlarda 50-150, buzoqlarda 150 - 200 grammgacha yetishi kuzatiladi. Cho'chqa bolalarida teri qalinlashgan va teri osti kletchatkasi biroz ko'tarilgan bo'ladi. Ko'pincha tug'ilgandagi tana vazni qo'zilarda 0,7 - 1,4 (me'yorida 2,0 - 4,5), buzoqlarda 16-18 (me'yorida 30 kg dan ortiq) kilogrammni tashkil etadi. Buzoqlarda pastki jag'ning deformasiyasi kuzatilishi mumkin. Jadal kattalashuvi oqibatida qalqonsimon bezning tomoq, qizilo'ngach va kekirdakni qisib qo'yishi va nafas harakatlarining qiyinlashishi kuzatiladi. Kasallangan yosh hayvonlar

odatda nobud bo‘ladi, yoki o‘sish va rivojlanishdan qoladi, kasalliklarga tez beriluvchan bo‘ladi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, yod yetishmovchiligi katta yoshdagi hayvonlarning past bo‘yli bo‘lishi, 81% hayvonda teri qoplamasi o‘sishining yomonlashishi, alopesiya, buzoqlarning junlari siyrak va hatto junsiz holatda tug‘ilishi, 43% hayvonda giperkeratoz, 50% hayvonda ekzoftalm, 50% hayvonda bradikardiya va 44% ga yaqin hayvonda yurak birinchi tonining uzayishi va ikkinchi tonining kuchsiz eshitilishi, elektrokardiogrammada R tishning pasayishi PQ intervalning uzayishi, QRS tishlar kompleksining pasayishi va T tishning kengayishi va pasayishi kabi belgilar bilan xarakterlangan [80].

Ma’lum qilishicha, cho‘chqalarda qalqonsimon bez funksional faolligining pasayishi qon zardobidagi umumiyoqsil miqdorining ortishi, oqsil spektrida beta- va gamma-globulinlar miqdorining ko‘payishi va albumin:globulin koeffisiyentining pasayishi bilan kechadi. Leykoformulada sezilarli darajada eozinofiliya, neytrofillar yadrosining chapga siljishi va kuchli limfosit oz qayd etiladi. Gipotireoz uchun leykositlar fagositar faolligining kuchli darajada pasayishi xarakterlidir [68].

Patologoanatomik o‘zgarishlar. Asosiy o‘zgarishlar qalqonsimon bezda kuzatilib, buqoqning diffuz, nuqtali va aralash turlari, histologik jihatdan parenximatoz va kolloidli turlari farqlanadi. Parenximatoz buqoq paytida bez qattiqlashgan, go‘shtsimon konsistensiyada, oqish-jigar rangda, kesma yuzasi yaltiroq, namligi oshgan bo‘ladi. Kolloidli buqoq paytida bez shishgan, uning yuzasi burishgan, sarg‘ich-ko‘kimir yoki och-jigar rangda, kesilganda rangsiz follikulalar aniqlanadi.

Diagnoz. Biokimyoviy provinsiyaning xarakteri, tuproq, suv va oziqalar tarkibidagi yod miqdorini aniqlash, qon, sut kabilarni biokimyoviy tekshirish, patologoanatomik o‘zgarishlar asosida qo‘yiladi. Jun, qon va oziqalar tarkibidagi yod miqdori e’tiborga olinadi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, yod yetishmovchiliga diagnoz qo‘yishda qondagi, qalqonsimon bez, sut hamda tuproq, oziqalar va suv tarkibidagi yod miqdorini aniqlash asosiy diagnostik testlar hisoblanadi. Kasallangan hayvonlar qonida oqsilga birikkan yod (OBY) miqdorining 3 mkg%, qalqonsimon bezda - 0,3-0,7 mg%, sutda - 2-2,5 mkg/l gacha kamayishi qayd etiladi. Bundan tashqari qalqonsimon bezning gipofunksiyasi paytida qondagi kalsiy miqdorining kamayishi va anorganik fosfor miqdorining esa biroz ko‘payishi kuzatiladi [44].

Buqoq kasalligini diagnostika qilish uchun hayvonlar suyilganda yoki murdadan qalkonsimon bezi olinib, uning hayvonni tirik vazniga nisbatan og‘irligi aniqlanadi.

Normal holatda qalqonsimon bezning og‘irligi qo‘ylarning har 100 kg vazniga 8 g, buzoqlarda - 7 grammni tashkil etishi lozim. Tekshirilayotgan guruhda hayvonlarning kasallanish darajasi 30 foizdan past bo‘lsa endemiya koeffisenti 1 ga teng deb hisoblanadi, 30 dan 60 foizgacha o‘rtacha darajada deb hisoblanib, endemiya koeffisenti 2 ga, kasallanish darajasi 60 foizdan yuqori bo‘lganda endemiya koeffisenti 3 ga teng bo‘ladi. Kasallik yengil kechganda qalqonsimon bezning og‘irligi hayvonning har 100 kg tana vazniga 8 -12 g. ni, o‘rtacha darajada kechganda 12-20 gramm va og‘ir kechganda 20 g va undan ko‘p bo‘lishi mumkin.

Ratsionda 400 mg/kg miqdorida yod bo‘lganda cho‘chqa bolalari o‘sishdan qolmasada, qon zardobidagi yodning miqdori kamayadi, qalqonsimon bezning massasi kattalashadi. Cho‘chqalar ratsionidagi yodning miqdori 800-1600 mg/kg ni tashkil etganda tana vazninining kunlik o‘sishi kamayadi, oziqa qabul qilish susayadi, qondagi gemoglobin va jigardagi temir miqdorlari pasayadi.

Davolash va profilaktikasi. Hayvonlarni yod elementiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradigan ratsionlarda boqish. Ratsionning 1 kg quruq muddasida nasllik buqalar va sigirlar uchun 0,3-0,6 mg, 6 oydan katta qoramollar uchun 0,3-0,4, 6 oygacha bo‘lgan buzoqlar uchun -0,3-0,6, katta yoshdagи qо‘ylar -0,2-0,6, 6 oygacha va katta bo‘lgan qо‘zilar uchun 0,2-0,4 mg yod bo‘lishini ta’minlash lozim. Agar oziqalar tarkibida yodning so‘rilishiga to‘sinqilik qiluvchi moddalar mavjud bo‘lsa uning miqdori 2 martaga ko‘paytiriladi.

Yod yetishmovchiligining oldini olish maqsadida hayvonlar ratsioniga 0,5% hisobida yodlangan osh tuzi qо‘shiladi (1 tonna osh tuzida 25 g kaliy yodid bo‘ladi). 100 kg osh tuzini yodlash uchun 2,5 g kaliy yodid 200 ml sigir sutida eritilib, unga 100 g ichimlik sodasi aralashtiriladi. Aralashma 2 kg osh tuziga aralashtirilgach, 98 kg tuzga aralashtirish kerak. Yodlangan osh tuzi hayvonlarga erkin holda berilishi mumkin.

Qoramollarda yod yetishmovchiligin yo‘qotish uchun kaliy yodid, kayod kabi preparatlar qо‘llaniladi. Kaliy yodidning profilaktik dozasi (1kg tana vazniga): kata yoshdagи qoramollar uchun - 3 mg, buzoqlar uchun - 0,1-0,6, qо‘larga - 0,5-1, cho‘chqalar uchun - 0,2-0,3 mg tashkil etadi. Kaliy yodidni parenteral usulda ham qо‘llash mumkin. Buning uchun kaliy yodid vazelin yog‘i yoki A vitaminining yog‘li eritmasida

eritilib, muskul orasiga inyeksiya qilinadi. Bunda kaliy yodidning dozasi $\frac{1}{3}$ martaga kamaytiriladi. Parenteral usulda yuborilgan kaliy yodid sekinlik bilan, ya’ni 15 kun davomida so‘riladi [85].

Tibbiyotda gipotireozni davolash uchun gormonal preparatlar (tireoidin, tireokomb, tireotom, tiroksin, triyodtironinn gidroxlorid), glyukokortikoidlar (prednizolon, deksametazon, kenalog), gipolipidemik preparatlar (miskleron, klofibrat, lipostabil), siydik haydovchi preparatlar, B guruh vitaminlari, C vitamini, ATF, kokorbaksilaza, riboksin va antianemik preparatlar tavsiya etilgan [3].

Yod yetishmovchiligini profilaktika qilishda yodni aerogen usulda organizmga yuborish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Parrandachilikda yod yetishmovchiligini aerozol usulda profilaktika qilish bilan samarali natijalarga erishilgan.

Tabletka holidagi kayodning sutkalik dozasi: sog’indan chiqarilgan bo‘g‘oz sigirlar uchun 2-6, sut beradigan sigirlar -1-5, g‘unojinlar - 1-2, bir marta tuqqan sigirlar - 2-3, nasllik buqalar uchun 200 kg tana vazni hisobiga 1 tabletkani tashkil etadi. Yuqori mahsuldor va bo‘g‘oz sigirlar uchun bu preparatlarning dozasi 50 % ga ko‘paytiriladi. Yodning tuzlari natriy gidrokarbonat, natriy tiosulfat va boshqa stabillovchi vositalar bilan birgalikda qo‘llaniladi.

Ma’lum qilishicha ona cho‘chqalar ratsioniga qo‘sishmcha ravishda 1 kg oziqaga 6-8 mg yod elementini qo‘shib berish ularning pushtdorligini 24-50%ga, cho‘chqa bolalari tug‘ilgandagi tana vaznining 16,9 %ga ortishini ta’minlaydi. Yangi tug‘ilgan cho‘chqa bolalarining kasallanishi va o‘limi keskin kamayadi [68].

Miksedema kabi qalkonsimon bez faoliyatining susayishi bilan kechadigan kasallikkarda “Tireoidin” preparatidan cho‘chqa bolalariga 0,05 - 0,1 g, katta yoshdagi cho‘chqalarga 0,2 - 0,5 g hisobida kuniga 2-3 martadan ichiriladi.

Voronej tarmoqlararo territorial informasiya va propaganda ilmiy-texnik markazi olimlari hayvonlarda yod yetishmovchiligini profilaktika qilishda amiloidin preparatini tavsiya etishadi. Amiloidin preparati tarkibida kaliy yodid, kristal holidagi yod va kraxmal saqlaydi. Preparat omixta yemlarga aralashtirilgan holda: sigirlarga bir sutkada -0,1, qo‘ylarga -0,01 g qo‘llaniladi.

Yod yetishmaydigan biokimyoviy provinsiyalarda yuqori mahsuldor hayvonlarda yod yetishmovchiligini davolash maqsadida “Amiloidin” preparatini qo‘llash yaxshi samara berishi, hayvonlarda nospesifik rezistentlikning ko‘tarilishi va qon zardobidagi umumiyoqsil, beta- va gamma-globulinlar miqdorining ortishini ta’minlashini ta’kidlaydi [16].

Yod saqlovchi preparatlarning dozasini oshirib yuborish embrionning yoki homilaning o'lishi, nimjon bola tug'ilishi va mahsuldorlikning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Enzootik buqoq bilan kasallangan hayvonlarni davolashda yod preparatlaridan tashqari, a'zo va tizimlar funksiyalarini yaxshilash maqsadida boshqa terapeutik vositalar (simptomatik davolash) ham tavsiya etiladi.

Propion kislotali yodid-3 (2.2.2-trimetilgidrazin) oq sichqonlar eksperimental gipoteriozida kaly yodiddan farqli o'laroq hayvonlarning tireoidli bioenergitik va morfologik statusining mo'tadilashishiga olib keldi. Shuningdek, endemik bo'qoq bilan kasallangan sigirlar va buzoqlar ratsioniga fumorat kislotasini (10 kun davomida 50 mg/kg dozada yodlangan osh tuzidan) qo'shish yod birikmalari bilan qo'shimcha oziqlantirilmagan holatlarda ham tireoidli status va energetik metabolizmning mo'adillashishini ta'minlaydi [34].

11-jadval

Amiloidin preparatini tayyorlash texnologiyasi:

- 1. 1.880 g 65°C haroratda quritilgan kraxmal 1 litr suvda eritiladi.**
- 2. Aralashmaga aralashtirib turish bilan 1 litr qaynoq suv aralashtiriladi. Bunda kraxmal kleystri hosil bo'ladi.**
- 3. Yod eritmasi tayyorlanadi: buning uchun 85 g kaly yodid 0,5 l suvda erilib, unga 35 g 35 g maydalangan kristall holdagi yod aralashtiriladi.**
- 4. Tayyorlangan yod eritmasi 50°C haroratgacha sovitilgan kraxmal kleystriga solinib, 30 daqiqa davomida aralashtirilib turiladi (aralashma avvaliga ko'k, keyinchalik qora rangga ega bo'ladi).**
- 5. Aralashma namligi butunlay yo'qolgunga qadar qizdiriladi, keyin talqon holigacha maydalanadi.**
- 6. Preparatni omixta yemlarga yoki premikslar holida hayvonlar ratsioniga qo'shish mumkin.**
- 7. 1g preparat tarkibida 100 mkg stabillashtirilgan yod saqlaydi.**

Muallif xulosasiga ko'ra, sigirlarga bo'g'ozlikning 5-7 oylarida kuniga 50 g dan faollashtirilgan yodlangan tuz va 5 g dan "Blattin Premium" premikslini omixta yemga aralashtirilgan holda berish, muskul orasiga 5 ml/100 kg miqdorda jami 5 marta (1, 3, 8, 18 va 33 kunlari) 10% li qalqonsimon bez ekstraktini va har 7 kunda bir martadan 10 ml Trivit preparatini yuborishga asoslangan guruhli profilaktik majmuani qo'llash qalqonsimon bez faoliyatining mo'tadillashishi, shuningdek, jun va teridagi o'zgarishlarning 10-50% ga, qalqonsimon bezdagи morfometrik kattalashishlarning 20-30% ga pasayishiga olib keladi [96].

Muallif ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyaning markaziy hududlarida yod yetishmovchiligi profilaktikaning asosiy usuli sifatida 40 ± 50 mkg/kg miqdorida kaliy yodid bilan yodlangan osh tuzidan foydalanishni, guruhli profilaktika uchun esa kuniga 150-200 mkg yod saqlovchi tabletkalarni qo'llashni tavsiya etilgan [24].

GIPOKUPROZ

Gipokuproz (Hipopetrosis) - surunkali tarzda kechadigan kasallik bo'lib, organizmda misning yetishmovchiligi oqibatida kelib chiqadi va gemopoezning buzilishi, teri qoplamasi rangining o'zgarishi hamda markaziy asab tizimida distrofik o'zgarishlar kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Ko'pincha qo'ylar, asosan qo'zilar va ba'zan qo'toslar, cho'chqa bolalari, qoramollar kasallanadi. Qo'zilarda kasallik turli mahalliy nomlar: "Enzootik ataksiya", "Belangi", Kubada "Paduchaya bolezn", Fransiyada "Paraplegiya", G'arbiy Afrikada "Lakruma" bilan ataladi.

Sabablari. Kasallikning asosiy sabablari tuproq va o'simliklar tarkibida misning "harakatchan" shakllarining yetishmovchiligi yoki ularda molibden, oltingugurt, qo'rg'oshin, bor, kalsiy kabi misning hazmlanishini qiyinlashtiruvchi elementlarning ortiqcha miqdorda bo'lishi hisoblanadi.

Tuproqdagagi misning harakatchan shaklining optimal miqdori 2,5-4 mg/kg ni tashkil etadi. 2,5 mg/kg gacha bo'lganda – "taqchilligi", 4 mg/kg dan ko'p bo'lganda "ortiqcha" - deb hisoblanadi.

Sanoat yaxshi rivojlangan hududlarda havoning gaz holidagi oltingugurt, kadmiy, molibden bilan yuqori darajada ifloslanishi, yerkarta tarkibida ammiak va vodorod sulfidni ko'p miqdorda saqlovchi azotli o'g'itlar va go'nglarni ortiqcha miqdorda ishlatilishi oziqalar tarkibidagi mis miqdorining kamayishiga va oqibatda organizmda misning yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Tuproq va oziqalar tarkibida oltingugurt, molibden, kadmiy, kalsiy, stronsiy va xromning ortiqcha miqdorda bo'lishi qiyin eriydigan birikmalarining hosil bo'lishi hisobiga misning so'rilihini yomonlashtiradi.

Buzoqlarni uzoq muddat davomida sutning o'rnini qoplaydigan oziqalar bilan boqish ularda mis yetishmovchiligiga sabab bo'lishi mumkin.

Hayvonlar organizmnning misga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi oziqalar turi va ularni yedirish usullariga ham bog'liq bo'ladi. Dukkakli

oziqalar, makkajo‘xori, esparset, sut va sut mahsulotlari tarkibida mis elementi kam miqdorda bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida qoramollarning mis yetishmovchiligi bilan kasallanishi ratsionning 1 kg quruq moddasidagi misning miqdori 3-4 mg.dan kam va molibden 1,5 mg.dan ortiqcha bo‘lganda kuzatiladi [28].

Mualliflarning ma’lum qilishicha, O‘zbekistonning yaylovlarida o‘simliklarning 1 kg quruq moddasida 0,4-0,5 mg kobalt mavjud bo‘lib, bu hayvonlarning ehtiyojlarini qondirsada, bo‘g‘oz sigirlar va yosh buzoqlar orasida gipokobaltoz rivojlanishi mumkin.

Oziqalar tarkibidagi kalsiyning miqdori 8g/kg.ni tashkil etganda misning manfiy balansi kuzatiladi [38]. Misning yetishmovchiligi buzoqlarning uzoq muddat sun’iy sut bilan boqilishida ham kuatilishi mukin.

Rivojlanishi. Mis temirning gemoglobin tarkibiga birikishini ta’minlashi bilan eritrositlarning yetilishiga sharoit yaratadi, osteogenez, junlar va patlarning pigmentasiysi va kreatinizasiysi jarayonlarida qatnashadi. Mis elementi seruloplazmin, sitoxromoksidazalar, tirozinazalar va boshqa fermentlar tarkibiga kiradi.

Misning yetishmovchiligidagi temir gemoglobinning sintezi uchun ishlatilmaydi va eritropoez izdan chiqadi, ya’ni eritrositlarning rivojlanishi retikulositlar bosqichida to‘xtaydi. Oksidlanish-qaytarilish, kreatinizasiya va pigmentasiya jarayonlarining buzilishi qayd etiladi, tarkibida mis saqlaydigan oksidlovchi fermentlarning faolligi pasayadi va shu bilan bir vaqtda to‘qimalardagi proteazalarning faolligi ortadi. Kasallikning kechishi davomida markaziy asab tizimi va orqa miyada atrofik va distrofik o‘zgarishlar, keyinchalik, miyelinsizlanish, ensefalomalyasiya va gidrosefaliya rivojlanadi. Misning taqchilligi oqibatida oshqozon oldi bo‘limlaridagi mikrofloralarning faoliyati ham izdan chiqadi.

Belgilari. Kasallik qo‘ylarda, ayniqsa yosh qo‘zilarda juda og‘ir kechadi. Katta yoshdagagi qo‘ylarda ishtahaning o‘zgaruvchan bo‘lishi, shilliq pardalar anemiyasi, junlar o’sishining sekinlashishi, yaltirolqligining pasayishi, pigmentsizlanishi va tananing ko‘p qismida junlarning to‘kilib ketishi xarakterli bo‘ladi.

Bo‘g‘oz sovliqlarda bola tashlash, o‘lik bola tug‘ish yoki ko‘pchilik sovliqlardan tug‘ilgan quzilarning “Enzootik ataksiya” bilan kasallanishi qayd etiladi. Qo‘zilarda kasallik xarakterli klinik belgilar bilan og‘ir holda kechadi. Kasallangan qo‘zilar bo‘ynini va oyoqlarini cho‘zgan holda yotadi, muskullar tonusi pasayadi. O‘rnidan turmoqchi bo‘lganda chayqalib ketadi, harakatlanishda gandiraklab, yiqiladi. Vaqt-vaqt bilan klonik va tetanik qaltiroq xurujlari qayd etiladi.



**5-rasm. Qo‘zida
enzootik ataksiya
klinikasi.**

Kasallik og‘ir kechganda odatda tug‘ilganidan 2-5 kun o‘tgach qo‘zilarning o‘limi kuzatiladi. Kasallik o‘rtacha darajada yarim o‘tkir yoki surunkali tarzda kechganda qo‘zilarda kasallikning klinik belgilari ularning 2-3 haftaligida, ba’zan 3 oyligida kuzatiladi. Shilliq pardalarning oqarishi, gavda orqa qismining tebranishi, gandiraklash, keyinchalik klonik va tetanik qaltiroq, oyoq muskullarining falaji qayd etiladi, kasallangan qo‘zilar qiyinchilik bilan o‘rnidan turadi va harakatlanadi, ko‘pincha yiqilib tushadi, orqa oyoqlari harakatsiz bo‘ladi.

Qo‘tos bolalarida kasallikning boshlanishida holsizlanish, ishtahaning pasayishi, gandiraklash, harakat muvozanatining buzilishi, keyinchalik, orqa oyoqlarning, ko‘p hollarda oldingi oyoqlarning ham falajlanishi kuzatiladi.



**6-rasm. Sigirda mis
etishmovchiligidida ko‘z atrofida
junlarni tushib ketishi (“misli
ko‘zoynak”).**

Qoramollar, cho‘chqalar va boshqa hayvonlarda gipokuproz ko‘pincha yashirin tarzda kechadi. Ularda shilliq pardalarning anemiyasi, junlarning siyraklashishi (ko‘z, lablar atrofida qulq suprasining ichki

yuzasida), rangining o‘zgarishi, sinuvchan, qattiqlashgan bo‘lishi, tananing ko‘p qismida junlarning to‘kilishi, ishtahaning o‘zgarishi (lizuxa) va diareya qayd etiladi. Buzoqlarda ko‘z, lablar atrofida teri qoplamasining pigmentsizlanishi, bo‘yin sohasi va tananing boshqa qismlarida terida burmalar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Cho‘chqa bolalarida suyaklarning o‘sishi yomonlashadi, oyoqlar deformasiyasi, anemiya, oriqlash, gandiraklab harakatlanish, orqa oyoqlar falaji xarakterli bo‘ladi.

Gipokuproz barcha turdagи hayvonlarda qondagi gemoglobin, eritrositlar, seruloplazmin va mis miqdorining kamayishi bilan kechadi.

Kechishi va prognozi kasallikning kechish darajasi va o‘z vaqtida davolashga bog‘liq. Qo‘zilarda enzootik ataksiya ko‘pincha o‘lim bilan tugaydi.

Patologoanatomik o‘zgarishlar. Enzootik ataksiya paytida qo‘zilar bosh miyasi yumshoq va o‘rgamchaksimon pardasida giperemiyaka kuzatilib, miya moddasining namligi oshgan, bo‘shashgan, ba’zan miya yarim sharlarida miya moddasining suyuqlashib qolishi qayd etiladi. Orqa miya yumshoq va o‘rgamchaksimon pardasining giperemiyasi, loyqalanishi, epidural bo‘shliqda yarim tiniq sarg‘ich suyuqlik to‘planishi xarakterli bo‘ladi.

Diagnoz. Qo‘zilarda tipik klinik belgilari asosida qo‘yiladi. Katta yoshdagи sovliqlar va boshqa hayvonlarda tashxisning me’zonlari shilliq pardalarning oqarishi, ko‘z atrofida junlarning pigmentsizlanishi, alopesiya, lizuxa, diareya kuzatilishi, qonda eritrositlar soni, gemoglobin, mis miqdorining kamayishi, seruloplazmin faolligining pasayishi, teri qoplamasida mis miqdorining 6-15 mg/kg dan kam bo‘lishi hisoblanadi.

Mis yetishmovchilagini “Oq mushak” kasalligidan farqlash lozim, qaysiki u kasallikda asosan muskullar jarohatlanadi va selenit natriy, E vitaminini preparatlarining qo‘llanishi yaxshi samara beradi, mis tuzlarining esa davolovchi samarasi bo‘lmaydi. Ayrim hollarda bir vaqtning o‘zida mis va selenning yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin [45].

Davolash va profilaktikasi. Otardagi qo‘zilar orasida kasallik qayd etilganda 0,1% li mis sulfat eritmasi bir boshga bir sutkada 5-10 ml hisobda sigir suti bilan qo‘llaniladi. Kasallikning kechishini hisobga olgan holda simptomatik davolash tavsiya etiladi. Qo‘zilarni sigir suti bilan boqish lozim. Qo‘zilarda falaj yoki yarim falaj kuzatilganda davolash yaxshi samara bermaydi. Qo‘zilar va boshqa hayvonlar ratsioni tog‘oldi, cho‘l zonalarida yetishtirilgan tabiiy o‘tlar pichani, bug‘doy va beda ko‘k massasi, soya, kunjara yoki shirot kabi misga boy oziqlar bilan boyitiladi.

Gipokuprozning oldini olish maqsadida mis sulfat me’yorlar asosida qo‘llaniladi. 1 kg mis sulfat 1 tonna osh tuziga aralashtirilib, hayvonlarga

erkin holda berilishi mumkin. Mis elementi yetishmaydigan xududlarda yaylovlarga va oziqa yetishtiriladigan yerlarning 1 hektariga shudgorlashdan oldin 3 - 7 kg mis sulfat sepiladi.

Ratsionda kalsiy, molibden, marganes, qo'rg'oshin, rux va sulfatlarning ortiqcha miqdorda bo'lishi misning hazm kanalida so'rilihini qiyinlashtiradi.

GIPOKOBALTOZ

Gipokobaltoz (Hypocobaltosis) - organizmda kobaltning yetishmovchiligi oqibatida kuzatiladigan endemik kasallik bo'lib, eritropoezning, oqsillar almashinuvining buzilishi, suyaklar distrofiyasi va kuchli oriqlash bilan tavsiflanadi. Ko'pincha kavshovchilar, ayrim hollarda otlar, cho'chqalar va boshqa hayvonlar kasallanadi. Kasallik ko'pchilik davlatlarda qayd etilib, mahalliy nomlar bilan: masalan, Rossiyada "Suxotka", "Bolotnaya bolezn"; Avstraliyada "Enzooticheskiy marazm", "Beregovaya bolezn"; Yangi Zellandiyada "Kustarnikovaya bolezn"; Shotlandiyada "Iznemojeniye"; AQSh da "Priozernaya bolezn" deb ataladi.

Sabablari. Kasallik asosan qumloq, yarim qumloq, torfli-botqoqli tuproqli joylarda, tuproq tarkibidagi kobaltning miqdori 1,5-2,5 mg/kg dan kam bo'lgan biogeokimyoviy provinsiyalarda qayd etiladi. Kobaltning tuproqdag'i miqdori 7-30 mg/kg bo'lganda me'yorda, 2-7 mg/kg bo'lganda "yetishmaydi" va 30 mg/kg dan ko'p bo'lganda "ortiqcha" - deb hisoblanadi. Kobaltning yetishmovchiligiga silos-jom, barda tipida va uzoq muddat bir tomonlama oziqlantirish ham sabab bo'ladi.

Havonlarda gipokbaltozning kelib chiqishida tuproq va oziqlarda uning antagonistlari - marganes, stronsiy va bor elementlarining ortiqchaligi sabab bo'lishi mumkin. Fosforli-kalsiyli mineral o'g'itlar ekin maydonlariga ortiqcha miqdorlarda ishlatilganda qoramollarning gipokobaltoz bilan og'mr darajada kasallanishi qayd etiladi. Chunki kalsiy va fosfor kobaltning o'zlashtirilishini qiyinlashtiradi [97].

Rivojlanishi. Kobaltning organizmga talab etiladigan darajadan kam miqdorda tushishi siankobalaminning mikrobial sintezining kamayishi, gemopoezning buzilishi, mikrositar va megaloblastik gipoxrom anemiya kuzatilishiga sabab bo'ladi. B_{12} vitamini tanqisligi kuzatilganda folat kislotasini uning metabolistik faol shakli hisoblangan tetragidrofolat kislotasiga aylanishi qiyinlashadi. Oqibatda qon hosil bo'luvchi hujayralarda, xususan eritro - va normoblastlarda DNK sintezi izdan

chiqadi. Bu hujayralarning bo‘linishi va yetilishi sekinlashadi. Gemopoezning izdan chiqishi to‘qima va a’zolarda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining sekinlashishiga olib keladi. Kobalt transmetillanish reaksiyalarida qatnashadi, oqsillarning mikrobial sintezi uchun zurur hisoblanadigan arginaza, karbongidraza, aldolaza, ishqoriy fosfotaza kabi fermentlarni faollashtiradi. Shuning uchun kobalt yetishmaganda oziqalar tarkibidagi proteinning o‘zlashtirilishi yomonlashib, manfiy azot balansi rivojlanadi, ya’ni organizmdagi zahira oqsillar ishlatila boshlaydi va oqibatda kuchli oriqlash (suxotka) kuzatiladi.

Yirik shoxli hayvonlarda yod-kobalt yetishmovchiligi qalqonsimonbezning gormonlar ishlab chiqarish funksiyalarining buzilishiga sabab bo‘lib, bu qondagi oqsilga birikkan yodning kamayishi bilan namoyon bo‘ladi. Qalqonsimonbez funksiyalarining buzilishi oqibatida yosh hayvonlar o‘sish-rivojlanishdan qoladi, tullahning kechikishi, junlarning to‘kilib ketishi, azot almashinuvining buzilishi qayd etiladi, qon zardobi va sutda umumiyoq oqsil, erkin aminokislotalar miqdorining kamayishi kuzatilib, ratsionni yod, kobalt va karotinga nisbatan me’yorlashtirish talab etiladi [59].



7-rasm. Gipokobaltoz bilan kasallangan sigir.

Belgilari. Teri qoplamasini hurpaygan, shilliq pardalar oqargan, ishtaha o‘zgaruvchan (lizuxa) bo‘lib, yalanish qayd etiladi ya’ni kasal hayvon latta, qog‘oz, taxta, rezina kabi yot jismlarni iste’mol qilishga harakat qiladi. Semizlik darajasi, mahsuldarlik va reproduktiv funksiyalar pasayadi, kaxeksiya, teri qoplamasining dag‘allahishi, tananing ko‘p joylarda tushib ketishi, teri elastikligining pasayishi va quruqlashishi xarakterli bo‘ladi. Oshqozon oldi bo‘limlarining gipotoniyasi kuzatilib, ichaklar harakati sekinlashgan, tezak odatda quruqlashgan, ba’zan yupqa shilimshiq parda bilan qoplangan bo‘ladi. Shirdon va ichaklarning yallig‘lanishi oqibatida diareya kuzatiladi. Qonda gemoglobin miqdori va

eritrositlar sonining keskin kamayishi ($47-98 \text{ g/l}$ va $4-2,5 \cdot 10^{12}/\text{l}$ gacha) kuzatiladi. Mikrositar anemiya, polixromaziya va kuchli poykilositoz qayd etiladi. Qondagi kobaltning miqdori $0,43 \text{ mkmol/l}$ dan kam, rang ko'rsatkichi birdan yuqori bo'ladi.

Gipokobaltoz paytida diurezda o'zgarishlar (poliuriya, oliguriya va ba'zan anuriya) kuzatilib, siydiqda qand va keton tanachalari paydo bo'ladi. Ona hayvonlarda reproduktiv a'zolar gipofunksiyasi, akusher-ginikologik kasalliklar (yo'ldoshning ushlanib qolishi, metrit, mastit) ko'p qayd etiladi. Buzoqlar juda kichik vaznda tug'iladi, fiziologik jihatdan rivojlanmagan va organizm rezistentligi past holatda, ularda dispepsiya, bronxopnevmoniya, salmonellyoz kabi kasalliklarga beriluvchanlik yuqori bo'ladi.

Kechishi. Kasallik asosan surunkali tarzda kechadi va uning asorati sifatida travmatik retikulit, retikuloperitonit, perikardit, gastroenterit, bezoar kasalligi rivojlanishi mumkin. Yosh qo'zilar orasida bronxopnevmoniya qayd etiladi.

Patologoanatomik o'zgarishlar teri osti kletchatkasida suvsimon infiltratning to'planishi, yog' to'qimasi va ko'ndalang targ'il muskullarning atrofiyasi, shirdon va ichaklarning kataral yallig'lanishi bilan xarakterlanadi, oshqozon oldi bo'limlarida turli xil yot jismlar yoki bezoarlarning bo'lishi xarakterli bo'ladi.

Diagnoz. Hududning biogeokimyoviy xususiyatlari, xarakterli klinik belgilar, hayvonlar qoni va juni tarkibida kobalt miqdorining kamayishi diagnoz uchun asos bo'ladi. Ishlab chiqarish sharoitlarida kobalt tuzlarini ratsionga qo'shimcha ravishda berishning yaxshi samara berishi e'tiborga olinadi.

Gipokobaltozni alimentar distrofiya (kaxeksiya) va alimentar osteodistrofiyadan farqlash lozim. Bu kasalliklar oziqalar tarkibida oqsillar, energetik va mineral moddalar yetishmasligi oqibatida, hayvonlarni o'zoq muddat to'yimligi past oziqalar bilan boqish, kuchli jismoniy zo'riqtirish, masionning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi va ularda kobalt tuzlarining qo'llanilishi samarasiz bo'ladi.

Ma'lumotlariga ko'ra, gipokobaltoz uchun qondagi kobalt, gemoglobin, umumi oqsil, B_{12} vitamini miqdorlari va eritrositlar sonini aniqlash diagnostik testlar hisoblanadi. Gipokobaltoz paytida qondagi gemoglobin miqdorini $9-5 \text{ g\%}$, eritrositlarning - $5-4 \text{ mln/mkl}$, kobaltni - $2,5-2 \text{ mkg\%}$ va qon zardobidagi umumi oqsil miqdorini $7-6,5 \text{ g\%}$ gacha kamayishi kuzatiladi [44].

Davolash va profilaktikasi. Kasallikni davolash kompleks tarzda amalga oshirilib, yengil hazmlanadigan, oqsillar, uglevodlar, vitaminlar,

mineral moddalar, shu jumladan kobaltga boy oziqalardan (ko'k beda, qand lavlagi, vitaminli o't unlari, oziqabop achitqilar, achitqilar bilan ishlangan oziqalar, baliq yoki go'sht-suyak uni, go'shtxona chiqindilari,) iborat parhyez oziqlantirish tashkil etiladi. Mikroelementning kobalt xlorid, kobalt sulfat va boshqa tuzlari briquetlar, davolovchi - profilaktik mineral aralashmalar holida qo'llaniladi.

Ma'lumotlariga ko'ra, kobalt preparatlarini faqatgina og'iz orqali qo'llash samara beradi, chunki kobalt katta qorindagi mikrofloralar tomonidan B₁₂ vitamini sintezi uchun ishlatiladi. Qondagi kobaltning konsentrasiyasini bir necha marta ko'paytirish ham hyech qanday samara bermaydi [73].

Kobalt tuzlarini qo'llashda ratsionda uning ortiqcha bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Kobaltning ortiqchalisida hayvonlarda holsizlanish, ariqlash, og'izdan so'lak oqishi, hansirash, qonda gemoglobin miqdorining ortishi kabi salbiy holatlar kuzatilishi mumkin. Hayvonlar ratsionida bir vaqtida kobalt, yod, mis va boshqa mikroelementlarning yetishmovchiligi kuzatilganda ularning aralashmalarini qo'shimcha mineral oziqalar sifatida qo'llaniladi.

Hayvonlar uchun oziqa yetishtiriladigan maydonlarga kobalt tuzlari mikroog'itlar sifatida qo'llaniladi.

ENZOOTIK ALIMENTAR ANEMIYA

Enzootik alimentar anemiya - tuproq, oziqalar va suv tarkibida kobalt, mis, rux yetishmaydigan biogeokimiyoviy hududlarda kuzatilib, qon ishlab chiqarilishining buzilishi, kamqonlik, qon tarkibidagi gemoglobin konsentrasiyasining kamayishi, moddalar almashinushi jarayonlarining susayishi, natijada hayvonlarning o'sishdan qolishi va organizm rezistentligining pasayishi bilan xarakterlanadi. Kasallik ko'pincha cho'chqa bolalari, buzoqlar, qo'zilar va it bolalarida qayd etiladi. Alimentar anemiya aksariyat hollarda raxit, A va D gipovitaminozlar va boshqa kasalliklar bilan birgalikda rivojlanadi.

Sabablari. Enzootik alimentar anemiyaning asosiy sabablari kobalt, mis, rux yetishmasligi oqibatida organizmda temirni o'zlashtirilishining yomonlashishi, qon ishlab chiqaruvchi a'zolarlar faoliyatining buzilishi hisoblanadi.

Organizmda asosan temir yetishmovchiligi kuzatilishi sababli kasallik «temir taqchilligi anemiyasi» - deb ham ataladi. Lekin, keyingi yillarda, oziqalar tarkibida protein, mikroelementlar va vitaminlarning

yetishmovchiligi ham kasallikka sabab bo‘lishi ma’lum bo‘ldi. Ya’ni, alimentar anemiya polietiologik kasallik hisoblanadi. Kasallik temir va boshqa elementlarning ichaklar orqali so‘rilishining yomonlashishi, ratsionda askorbin kislotasi, tokoferol, oltingugurt saqlovchi aminokislotalarning yetishmovchiligi hamda organik kislotalar ortiqcha bo‘lganda ham rivojlanishi mumkin [45].

Rivojlanishi. Ratsionda temir va shuningdek, kobalt, mis, rux elementlarining yetishmasligi gemoglobin, muskullar mioglobini, sitoxromoksidazalar, sitoxrom, peroksidazalar va boshqa gem saqlovchi fermentlar sintezining kamayishi, oksidlanish - qaytarilish jarayonlarining susayishi bilan kechadi. Eritropoezning jadalligi pasayadi, to‘qima va a’zolarning kislorod bilan ta’minlanishi yomonlashadi va gipoxrom anemiya rivojlanadi, kalsiy-fosfor, oqsillar, uglevodlar va yog‘lar almashinuvi izdan chiqadi.

Eritropoezning susayishi oqibatida gipoxrom anemiya, oksidlanish va qaytarilish jarayonlarining chuqur buzilishlari kelib chiqadi. Kislород tanqisligi rivojlanadi. Qonda to‘liq oksidlanmagan maqsulotlarning to‘planib qolishi oqibatida asab, yurak qon tomir va boshqa tizimlarning funksiyasi buziladi. Umumi gipoksiya jarayonining kompensasiyalanishi sifatida pul’s tezlashadi, yurakning minutlik hajmi ortadi va yurak muskullarining gipertofiyasi rivojlanadi. To‘yimli moddalarning hazmlanishi pasayadi.

Belgilari. Klinik belgilar cho‘chqa bolalarining 7-15 kunligida, buzoqlarda esa sut davridan keyingi yoshda namoyon bo‘ladi. Shilliq pardalarning oqarishi, terining quruqlashishi va oqarishi, teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, hurpayishi, sinuvchan va tushuvchan bo‘lishi kasallikning xarakterli belgilari hisoblanadi. Ishtaha o‘zgaruvchan bo‘lib, kasallangan yosh hayvonlar devorlarni yalaydi, to‘planib qolgan siydikni ichishga harakat qiladi, qo‘zilar onasining junlarini yalmaydi. Ich qotishi yoki ich ketishi kuzatilishi mumkin.

Alimentar anemiya paytida qonda gipoxrom anemiya, ya’ni eritrositlar sonining biroz kamayishi, tarkibidagi gemoglobin konsentrasiyasining esa keskin kamayishi, qon rang ko‘rsatkichining 0,8 dan past bo‘lishi qayd etiladi. Qondagi gemoglobinning miqdori cho‘chqa bolalarida 40-50 g/l, qo‘zilarda - 54, buzoqlarda - 75 g/l gacha, eritrositlar soni cho‘chqa bolalarida 3 mln/mkl, qo‘zilarda - 4 mln/mkl, buzoqlarda - 5 mln/mkl gacha kamayadi. Qon zardobidagi temirning miqdori 100 mkg% dan past bo‘ladi.

Kasallangan cho‘chqa bolalarida holsizlanish, umirtqa pog‘onasining bukchayishi (kifoz), harakat muvozanatining buzilishi, ishtahaning

yo‘qolishi, kuchli darajada o‘sish va rivojlanishdan qolish xarakterli bo‘ladi. Natijada yosh hayvonlar «gipotrofik» bo‘lib qoladi. Ko‘pincha yotadi, ich ketishi, ich qotishi bilan almashinib turadi. Tezak to‘q qo‘ng‘ir rangda, qo‘lansa hidli, tarkibida hazm bo‘lmagan oziqalar va shilimshiq suyuqlik bo‘ladi. Tana xarorati me’yorida yoki me’yordan past, kasal hayvon tinch turganda pul’s va nafas me’yorlar chegarasida bo‘lsada, kuchsiz ta’sirotlar oqibatida ham juda tezlashgan bo‘ladi. Kasallikning rivojlanishi bilan pul’s kichiklashgan, sust to‘lishgan bo‘ldi.

Miokardiodistrofiya belgilari kuzatiladi. Yurak tonlari, asosan birinchi ton kuchsiz, o‘zaygan, ba’zan ikkilangan bo‘lishi mumkin. Fonokardiogrammada yurak tonlari chastotasining pasayishi xarakterli bo‘ladi. Ba’zan, yuqori chastotali sistolik shovqinlar (anemik shovqin) paydo bo‘ladi (Urazayev N.A. va b., 1990).

Anemiya bilan kasallangan buzoqlarda ishtahaning pasayishi, shilliq pardalarning oqarishi, jigarning kattalashuvi, o‘sish va rivojlanishidan qolish belgilari xarakterli bo‘ladi. Diareya va pnevmoniya kuzatilishi mumkin. Anemiya ko‘pincha dispepsiya va boshqa kasalliklarning oqibatida ikkilamchi kasallik sifatida kelib chiqadi.

Patologoanatomik o‘zgarishlar. Shilliq pardalar, teri, gavda muskullari va ichki a’zolar zardob pardasi rangining oqarishi (anemiya), taloqning biroz kattalashib, qattiqlashishi, yurakning kengayishi va miokard distrofiyasi, ba’zan bo‘yin, tush va qorin sohalarida teri osti kletchatkasida shishlar paydo bo‘lishi, gastroenterit belgilari qayd etiladi.

Kechishi va prognozi. Enzootik - alimentar anemiya qish va bahor fasllarida o‘tkir kechadi, yoz va kuzda yarim o‘tkir yoki surunkali tarzda kechib, nisbatan yengil o‘tadi.

Davolash va profilaktik tadbirlarining o‘z vaqtida o‘tkazilishi yaxshi samara beradi. Lekin kasallanib tuzalgan yosh hayvonlar o‘sish va rivojlanishdan qoladi.

Diagnozi. Hududning biogeokimiyoviy xususiyatlari, hayvonlarni saqlash sharoitlari va ratsionlarni tahlil qilish, klinik, laborator va patologoanatomik tekshirishlar natijalari hisobga olinadi. Kasallik uchun gipoxrom anemiya xarakterli test hisoblanadi.

Anemiya sindromi, teri va teri qoplamasida o‘zgarishlar kuzatilishi, o‘sish va rivojlanishdan qolish, ishtahaning o‘zgarishi, qondagi gemoglobin miqdorining keskin kamayishi va rang ko‘rsatkichining pasayishini alimentar anemiyada diagnozning me’zoni deb hisoblashadi [45].

Kasallikni oshqozon yarasi, gelmintoz kasalliklar paytida kuzatiladigan postgemorragik anemiyalar, radiasiyaning ta'sirida kuzatiladigan gipoplastik (aplastik) anemiyalardan farqlash lozim.

Davolash va profilaktikasi. Alimentar anemiyani davolashning asosini temir saqlovchi (ferrodekstran) preparatlarni (ferroglyukin - 75, urzoferan-100, glyukoferon, ferbitol, polifer, impozil, gemodeks, ferrum-lek va b.) parenteral yo'llar bilan organizmga yuborish tashkil etadi.

Ferroglyukin 75 profilaktik maqsadda (bir boshga) 3-4 kunlik cho'chqa bolalariga 2-3 ml, ehtiyoj tug'ilganda ularning 15 - 20 kunligida ikkinchi marta yana 3ml, bug'oz ona cho'chqalarning tug'ishiga 15 - 20 kun qolganda 10 ml, 5-6 kunlik qo'zi va o'loqlarga - 3-4 ml, 3-4 kunlik buzoq va toylarg'a - 5-8 muskul orasiga inyeksiya qilinadi. Ferroglyukin - 75 preparatining terapevtik dozasi uning profilaktik dozasidan 1,5-2 marta ko'p bo'ladi. Boshqa temir saqlovchi preparatlarning dozasi tarkibidagi temirning miqdoriga qarab belgilanadi. Ular itlar, mushuklar va quyonlarga 1 kg tana vazniga 100 mg hisobida tavsiya etiladi.

Enzootik alimentar anemiyani polietiologik kasallik ekanligini hisobga olib, keyingi yillarda tarkibida mis, kobalt, marganes, rux, yod kabi mikroelementlarni saqlovchi kompleks preparatlar keng qo'llanilmoqda.

Ferrolizin preparati tarkibida temir, mis, rux, marganes, kobalt elementlarini saqlaydi, preparat cho'chqa bolalariga birinchi marta bir boshga 1,5 ml, ikkinchi marta 16 kundan keyin 2 ml muskul orasiga inyeksiya qilinadi. Suferrovit preparati buzoqlarga 0,15 ml/kg dozada hayvon to'liq sog'ayguncha har 3 kunda bir marta muskul orasiga inyeksiya qilinadi.

Buzoqlarda anemiya kuzatilmasligi uchun ularning 1 kg tana vazni ortishi uchun 200 mg temir to'g'ri kelishi yoki 100 kg tana vazni uchun bir kunda 250 mg temir qabul qilishi yoki 1 kg oziqada 100 mg temir bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [106].

Qondagi gemoglobin miqdorini oshirish va shu orqali gipotrofik bola tug'ilishining oldini olish maqsadida bo'g'oz cho'chqalarning tug'ishiga 14-20 kun qolganda ferroglyukin-75 preparatidan 5 ml muskul orasiga yuborish mumkin.

Temir gliserofosfat preparatidan ikki haftalik va undan katta yoshdagi cho'chqa bolalariga 1,0 g, 16 - 26 kunlik yoshdagi cho'chqa bolalariga 1,5 g kuniga bir marta og'iz orqali beriladi. Preparat 45 kunlikdan boshlab yana 10 kun davomida beriladi. Hazm kanali kasalliklarida temir saqlovchi preparatlar organizmga parenteral yo'llar bilan yuborilganda samarasи yaxshiroq bo'ladi.

Buzoqlarda alimentar anemiyani davolashda temir preparatlaridan eng samaralisi ferroglyukin - 75 hisoblanib, buzoqlarga 15 mg/kg dozada muskul orasiga yuboriladi.

Qondagi gemoglobin miqdorini fiziologik me'yorlar darajasida saqlab turish uchun temir dekstranlari sutkasiga 36 mg temir moddasi hisobida parenteral yo'llar bilan yoki 70 mg hisobida og'iz orqali qo'llaniladi.

Profilaktik maqsadda buzoqlarga ferroglyukin - 75 preparatidan 2,5 - 3 ml va B₁₂ vitaminidan 80 - 120 mkg, har 3 - 5 kunda 1 marta muskul orasiga yuborib turiladi. 16 haftalik buzoq organizmidan sutkasiga 12 mg temir ajralib chiqishi, sutkalik minimal talabning esa 46 ekanligi aniqlangan. Sutkasiga har 100 kg tana og'irligiga 1 grammidan temir sul'fat berib borish hayvonlarda anemiyaning oldini oladi.

Yosh hayvonlarda enzootik-alimentar anemiyani oldini olishda tarkibi temir sulfat, mis sulfat, kobalt xloriddan iborat mineralli eritmadan bir kunda 50-100 ml omixta yemlarga aralashtirilgan holda 30 kun davomida qo'llash yaxshi natija beradi. Eritmani tayyorlash uchun 1 litr suvga 10,0 temir sulfat, 5,0 mis sulfat, 0,5 kobalt xlorid aralashtiriladi. Eritmani ishlatishdan oldin yaxshilab chayqatish lozim.

MARGANES YETISHMOVCHILIGI

Marganes yetishmovchiligi (toyuvchi bo'g'in) surunkali kasallik bo'lib, reproduktiv (ko'payish) funksiyalarning buzilishi, suyaklar va bo'g'inalarning deformasiyasi bilan xarakterlanadi. Barcha turdag'i hayvonlar kasallananadi.

Sabablari. Oziqalar va suv tarkibida marganesning yetishmasligi kasallikka sabab bo'ladi. Marganes yetishmovchiligi qumloq, torfli neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitli tuproqli biogeokimyoviy prvinsiyalarda qayd etilib, pH yuqori bo'lganda tuproqdagi marganesning o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishi yomonlashadi. Marganesning yetishmovchiligi uzoq muddat bir xil turdag'i oziqlantirishda, masalan, qoramollarda yuqori tuyimli konsentrat tipda yoki silos-senaj tipda oziqlantirishda ham kuzatiladi. Shuningdek, marganes yetishmovchiligi ratsionda lavlagi yoki lavlagi tuppasi, barda ko'p bo'lganda kuzatilishi mumkin.

Rivojlanishi. Ma'lumotlariga ko'ra, marganes oksidlanishli-fosforillanish jarayonlarida aktivator vazifasini bajaradi va fosfoglyukomutazalar, yenolazalar, fosfofruktokinzalar kabi fermentlar tarkibiga kiradi. Marganesning yetishmovchiligiga ayniqsa parrandalar

sezgir hisoblanib, ularda oyoq suyaklari va qanotlarning deformasiyasi kuzatiladi. Hayvonlarning marganesga nisbatan sutkalik ehtiyoji oziqaning 1 kg quruq moddasida 40-60 mg.ni tashkil etadi [44].




8-rasm. Marganes yetishmovchiligidagi tilni o'ynatish belgisi.

Hayvonlarda marganes yetishmovchiligi oqibatida oshqozon osti bezi Langerhans orolchalari sonining kamayishi, parrandalarda suyak hosil bo'lishining buzilishi (peroz, xondrodistrofiya) qayd etiladi. Marganesning ortiqchaligida esa uning suyaklardagi konsentrasiyasining ortishi xuddi raxit paytidagidek suyak to'qimasining o'zgarishlariga (marganesli raxit) sabab bo'ladi. Marganesning suyak to'qimasiga bunday ta'sirini uning ishqoriy fosfotaza fermentini faollashtirishi va suyaklar matrisasida kislotali glikozaminoglikanlar sintezining kuchayishi bilan izohlash mumkin.

Marganes yetishmaganda yog'lar, uglevodlar va oqsillarning oksidlanish jarayonlari yomonlashadi, organizmda to'liq oksidlanmagan almashinuv mahsulotlari (keton tanachalari), pirouzum kislotasi to'planib qoladi. Jigarning yog'li distrofiyasi rivojlanadi, tuxumlarda follikulalarning yetilishi buziladi, ovulyasiya kechikadi, qochirishning samaradorligi pasayadi, bola tashlash hollari ko'payadi. Erkak hayvonlarda spermatozoidlarning harakatchanligi va spermaning miqdori kamayadi.

Belgilari. Ko'yikishning bir maromda bo'lmasligi yoki butunlay yo'qolishi, urug'lantirishdan otalanishgacha bo'lgan davrning uzayishi kuzatiladi. Ona hayvonlarda kuyikish belgilarsiz kechib, uni aniqlash qiyinlashadi. Murtakning va homilaning o'lishi yoki so'rilib ketishi, erkak hayvonlarda tuxumdonlar atrofiyasi, aspermiya, periartritlar, bosh barmoq va Axillov payining chuzilishi, oqsash va itlarga o'xshash o'tirib qolish qayd etiladi. Sut beradigan hayvonlarda sut berishning kamayishi yoki agalaktiya, echkilarda suyaklarning deformasiyasi, bo'g'inalarning

qalinalashishi, oriqlash, yosh hayvonlarda o'sishdan qolish, suyak va bo'g'inlar deformasiyasi kuzatiladi.



9-rasm. Peroz bilan kasallangan kurka jo'jasি

Buzoqlar yelkasini keng tutib, oyoqlarini "cho'loq" tayoqsimon qo'yib turadi, harakatlanish qiyinlashadi, ba'zan tilini og'zidan chiqarib o'ynatib turadi. Orqa oyoqlarini o'ziga xos orqaga cho'zib harakatlanadi.

Parrandalarda marganes yetishmovchiligi asosan oyoq bug'inlarining deformasiyasi (peroz) bilan kechadi.

Marganes yetishmovchiligi barcha sut emizuvchilar hamda parrandalarda miokardiodistrofiya belgilari bilan kechadi. Yurak urishi tezlashgan, miokard tonusi va qisqaruvchanligining pasayishi sababli yurakning birinchi toni kuchsiz va bug'iq eshitiladi. Ikkinchi tonning uzayishi va ikkilanishi, arterial bosimning pasayishi xarakterli bo'ladi.

Jigarda distrofik o'zgarishlar kuzatilishi oqibatida jigar bug'iqligining kattalashishi, og'riqli bo'lishi va shilliq pardalarning kuchsiz sarg'ayishi kuzatiladi.

Patoloqanotomik o'zgarishlar. Naysimon suyaklar va epifizlarining deformasiyasi, kortikal qavatning yupqalanishi va zichligining pasayishi, bo'g'inlarning qalinlashishi va deformasiyasi bilan xarakterlanadi.

Diagnozda klinik belgilar, qondagi marganes miqdorining 2 mkg /100 ml dan, junlar tarkibida esa 4 mg/kg dan kam bo'lishi hisobga olinadi.

Davolash va profilaktikasi. Ratsionga o't uni, bug'doy va boshqa donlar kepagi kiritiladi. Marganes sulfat, marganes xlorid kabi qo'shimchalar hayvonlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda qo'llaniladi. Hayvonlarning marganesga bo'lgan sutkalik ehtiyoji qoramollarda oziqaning 1 kg quruq moddasida 40-60 mg, qo'ylarda - 40-

60, cho‘chqalarda 50-55 mg. ni tashkil etadi. ratsionda kalsiyning miqdori ortiqcha bo‘lganda marganesning miqdori ham ko‘paytiriladi.

Marganes yetishmovchiligin davolash va oldini olish uchun ratsionga o‘t uni, bug‘doy va boshqa donlar kepagini kiritish va marganes sulfat, marganes xlorid kabi qo‘sishimchalarni qo‘llashni tavsiya etadi. Hayvonlarning marganesga bo‘lgan sutkalik ehtiyoji ratsionning 1 kg quruq moddasiga nisbatan qoramollarda 20 mg, cho‘chqalarda 40 mg. ni tashkil etadi. Ratsionda kalsiyning miqdori ortiqcha bo‘lganda marganesning miqdori ham ko‘paytiriladi [85].

Parrandalarda marganes yetishmovchiligin (peroz) oldini olish uchun har 10 kunda 2-3 marta 1 litr ichimlik suviga 1 g marganes sulfat aralashtirilib beriladi.

Marganes yetishmovchiligi bilan bir paytda boshqa mikroelementlarning ham yetishmovchiligi kuzatilganda ularning preparatlari (ferrodekstranlar, selen preparatlari, mis, kobalt, marganes, rux tuzlari) tavsiya etiladi

Mikroelementzlarning oldini olishda mikroelementlarning preparatlarini alohida holda qo‘llash samara bermasligini takidlashadi. Mualliflarning ma’lum qilishicha, sigirlar uchun ratsionning 1 kg quruq moddasida 10 mg mis, 40 mg rux, 60 mg marganes, 1 mg kobalt, 0,5 mg yod bo‘lishi eng optimal miqdorlar hisoblanadi [50].

RUX YETISHMOVCHILIGI

Rux yetishmovchiligi (Parakeratoz) - surunkali tarzda kechadigan kasallik bo‘lib, modda almashinuvlarining, epidermis hujayralari shoxlanishining buzilishi (parakeratoz), suyaklarning hosil bo‘lishi, qon ishlab chiqarilishi, produktiv xususiyatlarning izdan chiqishi, yosh hayvonlarning o‘sish va rivojlanishdan qolishi bilan xarakterlanadi. Kasallik barcha turdagи hayvonlarda uchraydi, cho‘chqalarda parakeratoz holida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sabablari. Ruxning organizmga ehtiyojidan kam miqdorda tushishi yoki uning hazm traktida so‘rilishining yomonlashishi, hamda tuproq va oziqlar tarkibida uning antagonisti - kalsiyning ortiqchaligi sabab bo‘lishi mumkin. Ruxning yetishmovchiligi tuproqdagi uning miqdori 30 mg/kg va oziqlardagi miqdori 20 mg/kg dan kam bo‘lganda kuzatiladi. Cho‘chqa bolalari quruq holdagi oziqlar bilan boqilganda hamda ratsionda kalsiy ortiqcha bo‘lganda rux yetishmovchiligi kuzatiladi. Bunday holat yuqori konsentrat tipda boqilganda, oziqbop bo‘r yoki boshqa kalsiyga boy

qo'shimchalar ortiqcha miqdorda qo'llanilganda qayd etiladi. Ratsionda kalsiy va fosforning ortiqcha miqdorda bo'lishi ichaklarda qiyin eriydigan birikmalarining hosil bo'lishi tufayli ruxning adsorbsiyasining qiyinlashishiga sabab bo'ladi. Ruxning so'rilishini kadmiy va mis ham qiyinlashtiradi. Parakeratozning sababi qalqonsimon bez funksiyasining yomonlashishi ham bo'lishi mumkin.

Rivojlanishi. Qondagi ruxning 75 foizga yaqini eritrositlar tarkibida bo'lib, ulardag'i karbonat angidritni birikishi va ajralishini boshqaruvchi ferment tarkibiga kiradi. Rux urug'donlar va qo'shimcha jinsiy bezlar sekretining asosiy komponenti hisoblanadi. Oshqozon oldi bo'limlari va to'g'ri ichaklardagi mikrofloralarning hayot-faoliyati oziqalar tarkibidagi ruxning miqdori bilan bog'liq. Organizmda ruxning yetishmovchiligi oksidlanish jarayonlarining va oqsillar sintezining izdan chiqishi, rivojlanish va o'sishning yomonlashishi, jinsiy voyaga yetishning kechikishi, jinsiy bezlarning yaxshi rivojlanmasligi, o'rugi hujayralari yetilishining va kuykishning to'xtashiga sabab bo'ladi [45].

Organizmda ruxning yetishmovchiligi oksidlanish jarayonlarining buzilishi, oqsillar sintezining, o'sish va rivojlanishining sekinlashishi, jinsiy yetilishning kechikishi, urug'donlarning to'liq yetilmasligi, urug' hosil bo'lishning to'xtashi va kuya kelishning kechikishiga sabab bo'ladi.

Bo'g'oz ona hayvonlar ratsionida rux elementining tanqisligi ulardan nimjon bola tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ruxning yetishmovchiligidagi suyaklarning rivojlanishi va epidermis hujayralarining shoxlanishi susayadi. Shoxsimon qavatda yadroli, lekin donadar qavati bo'lмаган hujayralarning paydo bo'lishi (parakeratoz) xarakterli bo'ladi.

Bo'g'oz hayvonlar ratsionida ruxning yetishmovchiligi homilaning rivojlanishiga salbiy ta'sir etib, nimjon bola tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ruxning oziqlarda va bo'g'oz sigirlar organizmda yetishmovchiligi yangi tug'ilgan buzoqlar qon zardobida immun oqsillar miqdorining kamayishiga hamda ularning diareya kasalligiga moyilligining ortishiga sabab bo'ladi [45].

Belgilari. Kasallik 1,5-2 oylik cho'chqa bolalarida va sutdan ajratilgandan keyin 3-4 oylikda xarakterli tarzda kechadi. Hayvonlarda ishtahaning pasayishi, oriqlash, o'sishdan qolish, chanqoqning kuchayishi, qayd qilish va ich ketishi kuzatiladi. Quloq, burun, ko'z atrofi, oyoqlar va tananing boshqa qismlarida qizarish va mayda toshmalar paydo bo'ladi. Keyinchalik, terida qazg'oqga o'xshagan hosilalar paydo bo'lib, teri qalinlashadi, burmalar hosil bo'ladi.

Ona cho'chqalarda bo'g'ozlik muddati uzayadi, tug'ish jarayonlari qiyinlashadi, o'lik bola tug'ilishi, erkak cho'chqalarda urug'donlarning

distrofiyasi, yosh qoramollarda o'sishdan qolish, oyoqlar shishi, bo'g'irlarning kattalashishi, terida qazg'oq paydo bo'lishi, junlarning tushib ketishi, teri elastikligini pasayishi va burmalar paydo bo'lishi xarakterli bo'ladi.

Rux yetishmovchiligi buzoq va qo'zilarda o'sishdan qolish, oyoqlar shishi, bo'g'irlarning kattalashishi, terida qazg'oq paydo bo'lishi, teri elastikligini pasayishi, junlarning tushib ketishi, terida burmalar paydo bo'lishi qayd etiladi.

Sigirlarda tuxumdonlarning atrofiyasi, sut yog'liligining pasayishi, buqalarda spermiogenezning kamayishi kuzatiladi.

Kechishi va prognoz. Kasallik yosh cho'chqalarda ko'pincha o'lim bilan tugaydi. O'z vaqtida davolash yaxshi samara beradi.



10-rasm. Parakeratoz bilan kasallangan buzoq

Patologoanatomik o'zgarishlar. Terining qattiqlashishi, qiyin kesilishi, kesma yuzasining oqargan, yaltiroq (xuddi salaga o'xshash) bo'lishi xarakterli bo'ladi.

Diagnozning mezonlari oziqalardagi ruxning miqdori 20 mg/kg dan kam bo'lishi, terining xarakterli jarohatlanishi, ruxning miqdori qonda - 200-400 mkg/100 ml, qon zardobida - 100-200 mkg/100 ml dan kam bo'lishi hisoblandi. Rux yetishmovchilagini sarkoptoz (qo'tir) dermatitlar va yuqumli kasalliklardan (o'lat, saramas) farqlash lozim.

Davolash. Kasallangan cho'chqa bolalariga kasallikning boshlanishida sutkasiga 200 mg, kasallikning rivojlangan bosqichida 500 mg, og'ir kechganda esa 700-1000 mg gacha rux sulfat beriladi. Preparat suvda eritilgan xolda oziqaga aralashtirilib, 2 xaftha davomida beriladi. Preparatni bir marta 10 mg/kg dozada 5% li eritma holida muskul orasiga yuborish tavsiya etiladi.

Profilaktikasi. Ratsiondag'i ruxning miqdori ma'romlashtiriladi va

kalsiyning ortiqcha bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Qoramollar uchun ratsiondagi ruxning miqdori 1 kg oziqa quruq moddasida 30-60 mg, qo‘ylar uchun 20-50 mg, cho‘chqalar uchun 45-50 mg bo‘lishi opitmal miqdor hisoblanadi.

Ruxning yetishmovchiligi ratsionga rux saqlovchi preparatlarni kiritish, ko‘pincha rux sulfat tuzini qo‘llash orqali bartaraf etiladi. Rux sulfatning sutkalik dozasi: nasillik buqalar - 100-150 mg, sigirlar - 60-70, yosh qoramollar uchun 100-300 kg tana vazniga - 25-35, 6 oylikgacha buzoqlar - 10-25, qo‘y va echkilar - 6-9, cho‘chqalar uchun 100 kg tana vazniga - 30 mg. ni tashkil etadi.

Ruxning yetishmovchiligi bilan bir qatorda boshqa mikroelementlarning ham yetishmovchiligi kuzatilganda ularning preparatlari (ferrodekstranlar preparatlari, mis, kobalt, marganes, rux tuzlari, selen va yod preparatlari) tavsiya etiladi [45].

Adabiyot ma’lumotlarida ham rux mikroelementining sigirlarda reproduktiv organlar faoliyatiga ta’siri va ruxning organizmdagi ahamiyati to‘g‘risida bayon etilgan bo‘lib, rux mikroelementi barcha to‘qimalarda va suyaklarda saqlanadi. Moddalar almashinushi, ribonuklein kislotasi sintezida qatnashadi, ko‘pgina fermentlarni aktivlashtiradi, hayvonlar reproduktiv xususiyatlarini meyorlashtiradi. Suyak va qon hosil bo‘lishi uchun zarur hisoblanadi, epiderma to‘qimasining rivojlanishi uchun zarur gipofizning gonadotrop gormonlari va jinsiy gormonlarni aktivlashtirib, urug‘lanish jarayonlariga ta’sir etishi ta’kidlangan [103].

Mikroelementozlar asosan qishda, hayvonlarni bir joyda saqlash sharoitlarida ko‘p qayd etiladi. Shuning uchun bu davrda guruhli profilaktik vositalarni aralashma holida qo‘llash tavsiya etiladi (bir boshga bir sutkada): diammoniy (monokalsiy) fosfat - 40 g, kobalt xlorid - 50 mg, mis sulfat - 110 mg, rux sulfat - 800 mg, kaliy yodid - 5 mg, osh tuzi - 10 g. Bu miqdorlar hududning geokimyoviy holatiga ko‘ra o‘zgartirilishi mumkin.

V.V.Konsevenko rux yetishmovchiligidagi 5% li rux sulfatning suvli eritmasidan bir marta 10 mg/kg dozada muskul orasiga yuborishni tavsiya etadi [45].

SELEN YETISHMOVCHILIGI

Selen yetishmovchiligi (oq mushak kasalligi, muskullar distrofiyasi, miopatiya, jigarning alimentar nekrozi) - tana va yurak muskullarining distrofik o‘zgarishlari bilan xarakterlanadi. Asosan yosh hayvonlar (qo‘zi,

buzoq, toylar, cho‘chqa bolalari, jo‘jalar) hamda katta yoshdagи hayvonlar kasallanadi.

Sabablari. Oq mushak kasalligi oziqalarning 1 kg quruq moddasidagi selenning miqdori 0,1 mg dan kam bo‘lganda kelib chiqadi. Kasallikni buzoqlar hayotining birinchi kunlarida yoki haftasida kuzatilishi bo‘g‘ozlik davrida sigirlar organizmida selenning yetishmovchiligi va ularning yashirin tarzda kasallanganligidan dalolat beradi. Organizmda E vitaminining yetishmovchiligi patologik jarayonni kuchaytiruvchi etiologik omil hisoblanadi. Kasallik hayvonlar orasida Yevropa, Osiyo, Amerika, Afrika va Avstraliyaning ko‘pchilik davlatlarida uchraydi.

Ko‘pchilik olimlarning xulosalariga ko‘ra, ratsionlarning vitaminlar (asosan tokoferol) va mikroelementlar (mis, kobalt, yod, marganes va b.) bilan kam ta’minlanganligi kasallikka sabab bo‘lishi mumkin. Asosiy etiologik omil faol bioelement - selenning yetishmovchiligi hisoblanadi.

Ma’lumotlariga ko‘ra, selen - antioksidant ta’sirga ega bo‘lib, geminlanmagan temirni oksidlanishdan saqlaydi va organizm immunobiologik faolligining ortishini ta’minlaydi. Ratsionda selenning yetishmovchiligi hayvonlarda «Oq mushak» kasalligiga sabab bo‘ladi. Hayvonlarning selenga bo‘lgan sutkalik ehtiyoji oziqaning 1 kg quruq moddasida 0,1 mg.ni tashkil etadi [44].

Rivojlanishi. Kasallikning rivojlanishi selen va E vitaminining yetishmovchiligi va organizmda peroksidlarning to‘planib qolishi bilan bog‘liq bo‘ladi. E vitamini peroksidlarning hosil bo‘lishini sekinlashtiradi, selen esa glutationtiroksidazalar tarkibida turib, bu birikmalarni parchalaydi.

Selenning yetishmovchiligi oqibatida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari boshqarilishining va bu reaksiyalar kechishining izdan chiqishi, ATF sintezida qatnashuvchi nospesefik fosfatazalar faolligining pasayishi kuzatiladi. Oqibatda faol harakat qiladigan muskullar, birinchi navbatda yurak muskullari va gavda muskullarida yallig‘lanish-degenerativ o‘zgarishlar kuzatilishiga sabab bo‘ladi.

Selenning yetishmovchiligidagi to‘qimalarda to‘liq oksidlanmagan modda almashinushi mahsulotlari to‘planib qoladi, jigarning yog‘li infiltrasiyasi va distrofiyasi, tana va yurak muskullarida destruktiv o‘zgarishlar kuzatiladi. Yosh hayvonlarda oq mushak kasalliginining rivojlanishida muskullarning jarohatlanishi asosiy o‘rinni egallaydi. Kasallikning rivojlanishi glutotionperoksidazalar, amilazalar faolligining pasayishi, qon zardobida alfa- va beta-globulinlarning ko‘payishi bilan kechadi.

Selenning yetishmovchiligidagi to‘qimalarda havo almashinuv sekinlashadi, ayrim oksidlanish jarayonlarida qatnashuvchi fermentlar (suksinatdegidrogenaza) faolligi pasayadi, selenogemoglobin hosil bo‘ladi. Selen jigarda, buyraklar, junlar, tuyoqning shox qavatida to‘planib qoladi va a’zolarning distrofiyasi, shoxning deformasiyasi va yumshab qolishiga sabab bo‘ladi [102].

Selen yetishmovchiligi kasalligining rivojlanishi selen elementi va E vitaminining yetishmovchiligi hamda organizmda perekislarning to‘planishi bilan bog‘liq. Chunki E vitamini ularning hosil bo‘lishini sekinlashtiradi, selen glyutationperoksidazalar tarkibida turib perekislarning parchalanishini ta’minlaydi.

Selen va E vitamini yetishmovchiligidagi to‘liq oksidlanmagan almashinuv mahsulotlari to‘planib qoladi, lipidlarning erkin-radikalli oksidlanishi izdan chiqadi, hujayralar uchun zaharli hisoblangan perekis vodorod va kislorod anionlari ortiqcha miqdorda to‘planib qoladi va oqibatda jigarning yog‘li infiltrasiyasi, gavda va yurak muskullarida destruktiv o‘zgarishlar rivojlanadi. Kasallik glutationiperoksidazalar, amilazalar faolligining pasayishi va alaninaminotransferaza va laktatdegidrogenazalar faolligining ortishi, qon zardobida alfa- va beta-globulinlar miqdorining ko‘payishi bilan kechadi.

Belgilari. Oq mushak kasalligi yosh hayvonlarda o‘tkir, yarim o‘tkir va surunkali tarzda kechadi.

Kasallik buzoqlarda o‘tkir tarzda kechganda umumiy holsizlanish, ishtahaning pasayishi, muskullar tonusining pasayishi va kam harakatlilik kuzatilib, keyinchalik, sudralib harakat qiladi. Yelka va son muskullari qattiqlashadi va taranglashadi, og‘riqli bo‘ladi. Ko‘pingcha shilliq pardalarning sianozi, ba’zan ko‘krak osti sohasida va qorin ostida shishlarning paydo bo‘lishi qayd etiladi.

Katta yoshdagagi hayvonlarda selenning yetishmovchiligi jinsiy a’zolar, jigar va buyraklarda distrofik o‘zgarishlarning kuzatilishi bilan kechadi. Selen yetishmovchiligi oqibatida jigarning yog‘li infiltrasiyasi va distrofiyasining rivojlanishi jigarning og‘riqli bo‘lishi bilan kechadi. Mahsuldorlik va sutning yog‘liliqi pasayadi, yo‘ldoshning ushlanib qolishi, urug‘lantirishdan otalanishgacha bo‘lgan vaqtning uzayishi holatlari ko‘payadi. Ko‘pchilik ona qo‘ylar qisir qoladi. Bo‘g‘ozlikning oxirgi davrlarida homilaning o‘lishi qayd etiladi.

Laborator tekshirishlar bilan qonning morfobiokimyoviy ko‘rsatkichlarida gematokrit ko‘rsatkichini pasayishi, oqsillar miqdorini, karotinni va ishqoriy zahirani kamayishi, alfa-globulinlarni kamayishi va gamma-globulinlarning ko‘payishi bilan xarakterlanadigan

disproteinemiya kuzatiladi. Siyidikda oqsillar, qand, buyraklar epiteliysi hujayralari va keton tanachalari paydo bo‘ladi. Kreatinining miqdori 3-5 martaga ortadi.

Patologoanatomik o‘zgarishlar. Jigarda, yurak muskullari va kundalang-targ‘il muskullarda xarakterli o‘zgarishlar kuzatiladi. Jigar kattalashgan, kapsulasi taranglashgan, yuzasi har xil rangda bo‘ladi. Kesilganda pulpasi yog‘simon bo‘lib, cho‘chqa salasini eslatadi (опилючная печень). Ko‘proq jismoniy ish bajaradigan muskullar oqargan, bo‘shashgan, shishgan yoki atrofiyaga uchragan bo‘lib, muskullarning jarohatlanishi simmetrik xarakterga ega, ularda qo‘ng‘ir-oqish tusli chiziqlar yoki dog‘lar, muskullarning yo‘nalishi bo‘ylab esa och rangli shtrixsimon nuqtalar kuzatiladi. Yurak kengaygan, mushaklari bo‘shashgan, ko‘kimir rangda yoki har xil bo‘yalgan bo‘lib, qaynatilgan go‘shtni eslatadi.

Diagnoz oziqalarni zootexnikaviy tahlil qilish, klinik belgilar, patologoanatomik tekshirishlar natijalari assosida aniqlanadi. Oziqalar tarkibida selenning (0,1 mg/kg dan kam) yetishmasligi va qonda 60-100 mkg/l dan, 100 g jigarda 3-5 mg dan, junda 120 mkg/kg, sutda 5 mkg/litrdan kam bo‘lishi diagnozning me’zoni hisoblanadi. Diagnozni aniqlashda hududning biogeokimyoviy xususiyatlari hisobga olinadi, miopatiya va jigarning boshqa xarakterdagi distrofiyalaridan farqlash lozim.

Kechishi va prognoz. Kasallik katta yoshdagি hayvonlarda surunkali, yosh hayvonlarda o‘tkir, yarim o‘tkir yoki surunkali tarzda kechadi, prognoz katta yoshdagи hayvonlarda yaxshi, yosh hayvonlarda yomon bo‘lishi mumkin.

Profilaktik davolash. Selen yetishmovchiligin davolash uchun qo‘zi va buzoqlarga 0,1-0,2 mg/kg (0,1-0,2 ml/kg 0,1 foizli eritma holida) miqdorida natriy selenit teri ostiga yoki muskul orasiga yuboriladi. E vitamini va selen antioksidant xususiyatiga ega bo‘lgan preparatlar hisoblanadi, gem- va oqsillar biosintezida ishtirok etadi. Davolashda bu preparatlarni ishlatalishi hayvonlarning o‘limini kamaytiradi. Fexolin preparati (bug‘doy urug‘ining mo‘rtagidan ajratib olingan bo‘lib, tarkibida E va B guruhi vitaminlarini saqlaydi) buzoqlarga 15-20, cho‘chqa bolalariga 3-5 ml ichiriladi. Davolashning samarasi E vitamini, selen va metionin preparatlaridan tayyorlangan aralashmadan foydalanish yaxshi natija beradi. Hozirgi kunda E-selen preparati amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

Hayvonlarni bir xil ratsionda boqilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak, chunki bunda hayvonlarning selen va boshqa mikroelementlarga bo‘lgan

ehtiyojlarining qondirilishi yomonlashadi. Hayvonlarning selenga bo‘lgan ehtiyojlarini ratsionga premikslar, selenit natriy va boshqa selenli preparatlarning oziqaviy qo‘sishchalarini kiritish bilan qondirish mumkin. Ratsiondagি selenning miqdori 1 kg quruq moddasida 1-1,5 mg. ni tashkil etishi kerak. Selenit natriy zaharli modda bo‘lib, A guruhi preparatlari bilan birga saqlanadi. Uning terapevtik va toksik dozalari o‘rtasidagi interval 1:5 ni tashkil etadi, shuning uchun hayvonlarning zaharlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natriy selenit og‘iz orqali yoki parenteral usullarda 0,1mg/kg dozada veterinariya vrachi nazorati ostida qo‘llaniladi. Selen preparatlari bilan birgalikda tokoferol preparatlari tavsiya etiladigan dozalarda qo‘llaniladi.

Bug‘oz sigirlarga E vitamining yuborilishi buzoqlarni oq mushak kasalligi bilan kasallanishining oldini oladi. E vitaminining buzoqlarga qo‘llanishi ham kasallikka qarshi profilaktik ta’sir ko‘rsatadi. Tokoferoldan 1 tonna omixta yemga buzoq va sigirlar uchun 5 g, onasidan ajratilgan cho‘chqa bolalari va ona cho‘chqalar uchun 10 g qo‘sish mumkin. Preparatni katta yoshdagi qoramollarga 0,01-0,03 g/kg, buzoqlarga 0,005-0,01g/kg hisobida ichirish ham mumkin.

Tibbiyotda achitqilardan tayyorlangan «Selena» preparatidan foydalaniladi. Preparatning 1 tabletkasi tarkibida 100 mkg selenometionin holidagi selen bo‘ladi [48].

Selen yetishmovchiligin davolash va oldini olishda yangi preparatlardan selerol, E-selen, diasetofenonil-selenid (DAFS) preparatlari tavsiya etilgan bo‘lib, 1 ml selerol preparati tarkibida 25 mg tokoferol asetat va 2,2 mg natriy selenit saqlaydi. Selerol profilaktik maqsadda bir marta, davolash maqsadida 5-7 kun oralig‘ida ikki marta qo‘llanib, tavsiyanomasida ko‘rsatilgan dozada teri ostiga yoki muskul orasiga yuboriladi. E-selen preparati 1 ml.da 50 mg E vitamini va 0,5 mg selen saqlaydi. Preparat muskul orasiga yoki teri ostiga (otlarga faqat muskul orasiga) profilaktik maqsadda 2-4 oyda bir marta katta hayvonlarga 50 kg tana vazniga 1 ml, yosh hayvonlarga 10 kg tana vazniga 0,2 ml hisobida tavsiya etiladi.

Yangi tug‘ilgan buzoqlarda selen yetishmovchiligin oldini olish uchun sigirlarning tug‘ishiga 30 kun qolganda natriy selenit preparati 0,1 mg/kg dozada tavsiya etiladi. Buning uchun yangi tayyorlangan natriy selenitning 0,5 foyizli suvli eritmasi qo‘llaniladi. Sigirlarda yo‘ldoshning ushlanib qolishi ko‘p qayd etiladigan fermalarda sigirlarning tug‘ishiga 20 kun qolganda 50 mg natriy selenit va 680 XB tokoferol parenteral usulda qo‘llanadi [42].

Selen bilan bir qatorda boshqa mikroelementlarning ham

yetishmovchiligi kuzatilganda ularning preparatlari (ferrodekstran preparatlari, mis, kobalt, marganes, rux tuzlari) tavsiya etiladi [45].

Selen preparatlari qo'llanilgan hayvonlar go'shtini iste'mol qilishga 45 kun keyin ruxsat etiladi. Sut beradigan sigirlarga natriy selenit preparatini qo'llash tavsiya etilmaydi.

SELENNING ORTIQCHALIGI

Selenning ortiqchaligi (Selenli toksikoz, "ishqor kasalligi") - o'tkir va surunkali tarzda kechuvchi kasallik bo'lib, kamqonlik, yurak-qon tomir yetishmovchiligi va shoxlarning jarohatlanishi bilan tavsiflanadi.

Sabablari. Tuproq va oziqlar tarkibida selen elementi ortiqcha bo'lgan endemik uchoqlarda qayd etiladi. Sut emadigan buzoqlarning surunkali tarzdagi selenoz bilan kasallanishi sut tarkibidagi selenning miqdori 3-20 mg/kg atrofida bo'lganda kuzatiladi. Oziqlarning 1 kg quruq muddasidagi selenning miqdori 3-50 mg ni tashkil etishi qo'yalar uchun havfsiz miqdor bo'lsada, bu miqdor minimal ehtiyojdan 30-500 marta ko'p hisoblanadi.

Rivojlanishi. To'qimalarda havo almashinushi sekinlashadi, ayrim oksidlanish jarayonlarida qatnashuvchi fermentlar (suksinatdegidrogenaza) faolligi pasayadi, selenogemoglobin hosil bo'ladi. Selen jigarda, buyraklar, junlar, tuyuoqning shox qavatida to'planib qoladi va a'zolarning distrofiyasi, shoxning deformasiyasi va yumshab qolishiga sabab bo'ladi.

Belgilari. O'tkir selenoz qisqa vaqt davomida kuchli holsizlanish, ataksiya, yurak qon tomir yetishmovchiligi, burundan qon ketish, shilliq pardalarning oqarishi yoki sianozi bilan harakterlanadi. Kasallikning surunkali tarzda kechishi holsizlanish, shilliq pardalarning oqarishi va sarg'ayishi, oriqlash, taxikardiya, nafasning tezlashishi, alopesiya va harakat muvozanatining buzilishi bilan kechadi. Selenden zaharlanish oqibatida tuyoqlar shox qismining deformasiyasi, ba'zan butunlay qurib qolishi kuzatilib, hayvonlar harakatlana olmaydi.

Patologoanatomik o'zgarishlar. Ko'krak va qorin bo'shliqlarida suyuqlik to'planishi, miokardda distrofiya va nekroz o'choqlarining qayd etilishi, jigarda atrofiya, nekroz va sirroz o'choqlarining bo'lishi bilan harakterlanadi. Taloq kattalashgan, kuchli gemorragiya, buyraklar yallig'langan va distrofiya holatida bo'ladi.

Diagnoz. Hududning biogeokimiyoviy xususiyatlari, oziqlar, qon, jigar, sut, junlar tarkibidagi selenning miqdori, harakterli klinik belgilari va patologoanatomik tekshirish natijalari hisobga olinadi.

Davolash. Natriy tiosulfatning 20% li eritmasi 0,5 mg/kg dozada vena qon tomiriga yuboriladi. Spesifik vosita sifatida 25-40 mkg/kg miqdorida prozerin tavsiya etiladi.

Profilaktikasi. Tuprog‘i tarkibida selen ortiqcha bo‘lgan yaylovlar almashtiriladi. Ratsion dukkakli oziqalar bilan boyitiladi. Selenga boy oziqalarni berish to‘xtatiladi. Og‘iz orqali oltingugurt tavsiya etiladi.

FTORNING YETISHMOVCHILIGI

Ftorning yetishmovchiligi (tishlarning enzootik kariyesi) surunkali kechadigan kasallik bo‘lib, tishlar qattiq to‘qimasining jarohatlanishi va kovaklar hosil bo‘lishi bilan harakterlanadi.

Sabablari. Kasallikga suv va oziqalar tarkibida ftorning yetishmovchiligi sabab bo‘ladi. Kasallik suv tarkibidagi ftorning miqdori 0,5 ml/l dan kam bo‘lgan joylarda qayd etiladi. Tuproq va oziqalar tarkibidagi ftorning miqdoriga ko‘ra, bu miqdor boshqacha bo‘lishi ham mumkin.

Rivojlanishi. Ftorning organizmga kam miqdorda tushishi uning tishlar va suyaklarda ham kamayishiga sabab bo‘ladi. Tish emalida gidroksil ftorapatit va ftorapatit kam hosil bo‘ladi, oqibatda tishlar kislotalar ta’siriga sezgir va kariyesga chidamsiz bo‘lib qoladi. Emal, dentin va cement qavatlari mustahkamligini yo‘qotadi va jarohatlanadi, tishlarning yemirilishi tezlashadi. Sezilarsiz darajada bo‘lsada, suyak to‘qimalarida ham distrofik o‘zgarishlar, mahsuldarlikning pasayishi kuzatiladi. Shuningdek, gavda suyaklarida ham sezilarsiz darajada bo‘lsada distrofik o‘zgarishlar rivojlanadi [102].

Belgilar. Oziqani chaynashning qiyinlashishi va kasallangan hayaonlarning suvni sekin ichishi, og‘izdan so‘lak oqishi, qo‘lansa hid kelishi harakterli bo‘ladi. Qoziq tishlarning chaynash qismida yoki kesuvchi qismi emalida bo‘rsimon yoki pigmentlangan dog‘lar paydo bo‘ladi, tishlar emalining butunligi buziladi. Tishlarning jarohatlangan joylarida, emal va dentin qavatidagi kovaklarda qoramtil va jigarrang qoplamlalar paydo bo‘ladi. Kariyes og‘ir o‘tganda tishlar ildizining yallig‘lanishi, tish ildizida cement moddasining ortiqcha darajada to‘planishi oqibatida dentin qavati jarohatlanadi va pulpa bo‘shtig‘i ochilib qoladi.

Diagnoz. Klinik belgilar, suv va oziqalar tarkibidagi ftor miqdorini aniqlash asosida qo‘yiladi. Kasallikni flyuorozdan farqlash lozim. Flyuoroz suv va oziqalar tarkibida ftorning ortiqcha bo‘lishi oqibatida

kelib chiqadi.

Davolash va profilaktikasi. Vaqit-vaqt bilan og‘iz ochilib, qoldiq oziqalardan tozalanib turiladi, antiseptik eritmalar bilan ishlov beriladi. Ichimlik suvi yoki osh tuzi ftor bilan optimal darajada boyitiladi, buning uchun kremniy-ftorli natriy yoki ftorli natriy qo‘llaniladi. Baliq uni, suyak, go‘sht-suyak uni, shuningdek, oziqabop kalsiy fosfat, monokalsiyfosfat va boshqa oziqabop fosfatlar (tarkibida 0,2-0,3% ftor saqlaydi) ftorga boy qo‘sishimchalar hisoblanadi.

Kasallikni oldini olish uchun ratsionga ftorga boy oziqalardan baliq, suyak, go‘sht-suyak uni qo‘shiladi, tarkibida 0,2-0,3 foizgacha ftor saqlaydigan oziqabop kalsiy fosfat, monokalsiy fosfat kabi preparatlar qo‘llanish tavsiyanomasiga asosan tavsiya etiladi.

FTORNING ORTIQCHALIGI

Ftoring ortiqchaligi (enzootik flyuoroz, Fluorosis) - surunkali kasallik bo‘lib, osteoskleroz va tishlar emalining gipoplaziysi bilan tavsiflanadi.

Sabablari. Ftor tabiatda ko‘p tarqalgan bo‘lib, shpatlar, apatitlar, kriolitlar va boshqa minerallar tarkibiga kiradi. Ftor birikmalari qishloq xo‘jaligi va sanoatda keng qo‘llaniladi. Tashqi muhitni ftorli birikmalar bilan ifloslanishi qishloq xo‘jalik hayvonlarining ftor bilan zaharlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Endemik (enzootik) flyuoroz suvlar tarkibida 1,2-1,5 mg/l, tuproqda 0,05% dan ko‘p miqdorda ftor saqlaydigan joylarda uchraydi. Kasallik apatitlar to‘planib qolgan joylarda hamda ftor saqlovchi mineral o‘g‘itlar (superfosfat va boshqalar) ortiqcha miqdorda ishlatiladigan xo‘jaliklarda ko‘p qayd etiladi. Tarkibida yuqori miqdorda ftor saqlovchi artezan quduqlaridan sug‘orishda ham kasallikning uchrashi ko‘payadi [45].

Alyumeniy, mineral o‘g‘itlar (superfosfat va b.) ishlab chiqaradigan zavodlar atroflaridagi yaylov larga boqiladigan hayvonlar orasida kasallikning ko‘p qayd etilishi kuzatiladi.

Rivojlanishi. Ftoring yuqori dozasi suyak fosfatazalarining faolligini pasaytiradi, oqibatda suyak va tishlar to‘qimasining suyaklanishi yomonlashadi. Ftoring ortiqcha miqdorda bo‘lishi bir qancha ferment tizimlari faolligini pasaytiradi, suyak to‘qimalari va jigarda limon kislotasining to‘planib qolishiga sabab bo‘ladi. Suyak va tishlarning jarohatlanishi bilan bir qatorda hazm trakti, jigar, endokrin va boshqa a’zolarning faoliyati buziladi.

Belgilar. Klinik belgilariga ko‘ra, flyuorozning uch bosqichi: dog‘simon, donachali va deformasiyalanuvchi bosqichlari farqlanadi. Dog‘simon bosqichda tishlarning emalida simmetrik joylashgan oqish-sariq, sariq, jigarrang yoki to‘q jigarrang dog‘lar hosil bo‘ladi. Kasallikning donachali bosqichida tishlar emalida ko‘plab jigarrang yoki qora donachalarning paydo bo‘lishi xarakterli bo‘ladi. Deformatsiyalanuvchi bosqichda tishlar yemirilishining tezlashishi, emal qavatining teshilishi, tishlar koronkasining buzilishi qayd etiladi. Kasal hayvonda ishtahaning pasayishi, oriqlash, qovurg‘a suyaklari ko‘krak qismining, oyoq bo‘g‘inlarining qalinlashishi, umurtqa pog‘onasi va oyoqlarning qiyshayishi, ya’ni suyaklar distrofiyasiga xos klinik belgilar kuzatiladi. Ona hayvonlarda mahsuldorlik va reproduktiv funksiyalar pasayadi, bola tashlash, o‘lik bola tug‘ilishi hollari qayd etiladi. Hayvonlarni xo‘jaliklarda ishlatish muddatlari qisqaradi.

Davolash. Ftor bilan zaharlangan qoramollarga 800 g, mayda shoxli hayvonlarga 100 g magniy sulfat tuzi og‘iz orqali kuniga bir marta beriladi, 10%-li kalsiy xlorid va magniy sulfat eritmalari qon tomiriga inyeksiya qilinadi.

Qoramollarda kasallikni davolashda quyidagi tarkibagi davolovchi-profilaktik aralashmani qo‘llash bilan antidotterapiya o‘tkazishni tavsiya etadi (% hisobida): bo‘r - 75, alyuminiy sulfat - 15, magniy sulfat - 7, rux sulfat - 2,5, kliy yodit - 0,25, askorbin kislotasi - 0,25. Aralashma konsentrat oziqalarga aralashtirilgan holda bir bosh hayvonga: 2-4 oylikda - 5-12 g, 4-8 oylikda - 5-12, 8-12 oylikda - 10-25, 12-24 oylikda - 15-45 va 24 oylikdan katta qoramollarga - 30-60 g beriladi [102].

Profilaktikasi. Tarkibida ortiqcha miqdorda ftor saqlaydigan suvlardan foydalanish to‘xtatiladi. Suvdagagi ftorning ruxsat etiladigan optimal miqdori 0,7-1,5 mg/l ni tashkil etadi. Hayvonlar uchun ftorning sutkalik ruxsat etiladigan miqdori 1 kg tana vazniga 1mg dan oshmasligi lozim. Chet el olimlarining ma’lumotlariga ko‘ra, qormollar ratsionidagi ftorning ruxsat etiladigan maksimal miqdori 1 kg quruq moddada 40-50 mg.ni, qo‘ylar uchun - 60-150 mg. ni tashkil etadi.

Tarkibida ortiqcha miqdorda ftor saqlaydigan suvlarni ammoniy sulfat yoki ammoniy xlorid yordamida ftorsizlantirish mumkin. Ular bilan ftorning birikishidan ichaklar orqali kam darajada so‘riladigan ammoniy ftorid hosil bo‘ladi [45].

BORNING ORTIQCHALIGI

Borning ortiqchaligi (borli enterit) - ichaklarning yallig‘lanishi, buyraklar, miya va boshqa a’zolarning jarohatlanishi bilan xarakterlanadi.

Sabablari oziqalar va suv bilan organizmga bor elementining ortiqcha miqdorda tushishi hisoblanib, ko‘pincha qo‘ylar kasallanadi.

Suv tarkibida o‘rtacha $11,4 \times 10^{-6}$ % bor elementi mavjud bo‘lib, insonlar va hayvonlar organizmi ehtiyojlarini to‘lig‘icha qondiradi. Ayrim provinsiyalarda ichimlik suvi va oziqalar tarkibidagi borning miqdori optimal darajadan ortiqcha bo‘lib, kasallikka sabab bo‘ladi. Ichimlik suviga 0,25% hisobida borat kislotasi qo‘shilganda hayvonlarda surunkali toksikoz belgilari paydo bo‘ladi. Ratsionda misning yetishmovchiligi kasallikning kuchayishini ta’minlaydi.

Rivojlanishi. Kasallikning rivojlanishida bor elementining ichaklardagi proteolitik fermentlar faolligining pasaytirishi asosiy omil hisoblanib, oqibatda ichaklarning yallig‘lanishi va diareya xarakterli bo‘ladi. Ichaklarda oziqalar hazmlanishining buzilishi tufayli oqsillarning parchalanish mahsulotlari hisoblangan toksinlar hosil bo‘ladi va ular jigar va buyraklarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Borning yuqori konsentrasiyasi katta qorindagi mikrofloralar faoliyatini pasaytiradi, oshqozon oldi bo‘limlarida hazmlanish jarayonlari izdan chiqadi. Bor asosan buyraklar orqali ajraladi va ularda to‘planadi, shuning uchun ko‘pincha nefrozonefrit rivojlanadi. Elementning bosh miyada to‘planishi uning jarohatlanishiga hamda funksiyalarining izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Organizmda borning ortiqcha bo‘lishi fosfatlar ekskresiyasining kuchayishiga sabab bo‘ladi [102].

